

MAMATQUL HAZRATQULOV

# ESHIKLAR OCHIQ

Qissa



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent—2009

84 (50ʻ) 6  
H-18

Hazratqulov, Mamatqul.

Eshiklar ochiq: qissa / M.Hazratqulov. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. 168 b.

Sevgi, uning quvonch va iztiroblari haqida hikoya qiluvchi ushbu qissa Sizning koʻnglingizdan munosib joy oladi.

**BBK 84 (50ʻ)6**

**ISBN 978-9943-03-202-6**

© **Mamatqul Hazratqulov**  
**Gʻafur Gʻulom nomidagi**  
**nashriyot-matbaa ijodiy**  
**uyi, 2009-y.**

---



## MUQADDIMA

Sa'dulla atrofga alangladi. To'rt taraf zulmat, biror joydan ninadaygina bo'lsin nur tushmaydi. U dovdirab qoldi. «Qayerga boraman? Nima qilaman endi?» So'qir kabi bir-bir bosib oldinga yurdi. Ro'parasida nimadir ko'ringanday bo'ldi. To'xtadi. Paypaslangan ko'yi o'ng oyog'ini sal surdi. Pastlik ekanini bildi. Yana tushurdi. Oyog'i yerga tegdi. Keyin chap oyog'ini oldi. Yana yurdi. Demak, zina ekan. «Ajabo, enish... Axir men yuqoriga chiqmoqchi edim-ku. Nahotki, endi...» U bir zum o'ylanib qoldi. Keyin... keyin pillapoyalarni mo'ljal qilib asta-sekin tusha boshladi. Qalovini olgandan so'ng yurishni tezlashtirdi.

Taxminan o'n besh-yigirma pillapoya tushgach, to'xtadi. Bunday joyda ko'zni ochib yurish bilan yumib yurishning farqi yo'q. Yuragi uvushdi. Badani jimirlab, hatto mo'ylaridan sovuq ter chiqqanday bo'ldi. Umid bilan oldinga tikildi. Tikildi... Kimsasiz sahroda kechasi yurganmisiz? Ikki-uch chaqirim uzoqlikdagi chiroq ham yulduz kabi charaqlab ko'rinadi. Hozir xuddi shunday bir shu'la olisdan ko'zga tashlandi. «Chiroq? Qayerdan ko'rinyapti u?» Butun vujudini ko'zga aylantirib o'sha tomonga termildi.

«Zina... qayerga olib boradi. Naryog'ida nima bor? Mil-tirayotgan nur qayerda?»

Nur ko'ngliga ko'chdi. Yuzi ham yorishdi. Ishtiyoq va shavq bilan pillapoyalardan yurishda davom etdi...

Zarbuvi milt-milt qaynayotgan sho‘rvadan qoshiqqa ozingina olib puflab sovutdi-da, ichib ko‘rdi. Ta‘midan qanoatlanmadi shekilli, o‘choqboshidagi tuzliqdan tuz olib sepdi.

– Shunaqa deng? – Sa‘dulla o‘ychan holda chirs-chirs yonayotgan olovdan nigohini uzmay o‘tirardi. – Qachonakan to‘yi?

– Qachonligini aniq bilmayman. Lekin shunday gap eshitdim. Pochchangdanam so‘radim, – dedi Zarbuvi.

– Xolmatning o‘zidan so‘ramadingizmi?

– Bilasan, Xolmat pochchangga jijan... Yigiti tushgur bir kuni o‘zi gap ochib qoldi. Sal ichkanakan, og‘zi ko‘pirib maqtandi: «Yanga, Salima bilan bitta qishloqdansiz, o‘zi shu qanaqa qiz?» Yuragim shuv etdi-yu, o‘zimni hech narsa bilmaganga olib «Nimaydi? Nimaga so‘rayapsiz?» dedim. «Unga uylanmoqchiman», dedi. Nima deyishimni bilmay qoldim. So‘ng jo‘rttaga o‘smoqchiladim. Aytishicha, bir yildan beri xat olib-xat berarkan. Kissasidan besh-oltita xat olib ko‘rsatdi. Keyin rasmini, sovg‘a qilgan ro‘molchasini... Shunda senda ham ro‘molchasi borligi esimga tushdi.

Sa‘dulla jahl bilan kissasidan bir ro‘molcha oldi va uni opasiga qarata otdi. Zarbuvi og‘rindi. Rost-da, Zarbuvining aybi nima? Nega unga jahl qiladi?

Opasining avzoyi o‘zgarganini sezib, Sa‘dulla xijolat chekdi.

– Kechiring meni, opa. Qizishib ketibman.

Zarbuvi indamadi. O‘tin sindirib o‘choqqa tashladi. Olov gurillab ketdi.

– Bering ro‘molchani, – dedi Sa‘dulla ham xijolatdan, ham olovning taftidan qizarib.

– Nima qilasan?

– Olovga tashlayman... Ro‘molchasi ham, «Sizni yaxshi ko‘raman», deb aytgan so‘zlari ham yonib ketsin. Shaharga

borgach, xatlarini ham yoqib tashlayman. Men ahmoq uning gaplariga ishonib yuribman-a...

U jim bo'lib qoldi. Sukunat. Og'ir sukunat. Tokpilla<sup>1</sup> ning chirs-chirs yonishi eshitiladi, xolos. Zarbuvi ham miq etmaydi. Ukasini qanday ovutishni bilmaydi. «Aytmaganim tuzukmidi... Shuncha yo'ldan meni ko'rgani kelsa-yu, ko'nglini xulfton qilsam... Lekin aytmasamam bo'lmasdi-da. Bari bir eshitadi. «Ko'rib-bilib, aytmabsiz», deb o'pka-ginani katta qilar edi».

Sa'dulla boshqa opalariga qaraganda Zarbuvinini ko'proq yaxshi ko'radi. Ular bolalikdan inoq: kuniga dam-badam urishishar, tortishar, ammo bir-birini birpas ko'rmasa, to'rvasini yo'qotgan gadoday garangsib qolishardi.

Maktabni bitirgach, Zarbuvinini qo'shni qishloqqa turmushga uzatishdi. Sa'dulla dastlabki vaqtlar tez-tez kelardi. Keyinchalik o'z tashvishlari bilan bo'lib kelishi kamaydi. Toshkentga o'qishga ketgandan keyin esa opasi bilan kamdan-kam diydorlashadigan bo'ldi. Hozir bahorgi ta'til. U bir-ikki soat uyda o'tirdi-da, odatiga ko'ra ukasining velosipedini minib yo'lga tushdi.

– Qo'y, Sa'dullajon, ko'p kuyinma. Rostini aytsam, asli Salima uncha didni olmaydi. Ilgariroq sezdirmoqchi bo'luvdim-u, vaqti-soati bilan tushuntirarman, deb o'ylovdim.

– Lekin men uni yaxshi ko'rib...

– Bo'ldi-bo'ldi, – Zarbuvi ukasining gapini kesdi. Sa'dullaning bo'g'zidan og'ir bir xo'rsiniq uzildi. Harchand o'zini bosishga tirishsa ham eplolmadi.

– Ha og'ajon-a, jigar-bag'ringdan urgan ekan-da, – gapni hazilga burdi Zarbuvi. – Ichingdan chiqqan olovga sho'rva qaynaydi-ya.

<sup>1</sup> Tokpilla – tok novdasidan qilingan o'tin.

– Ro‘molchani bering, – dedi Sa‘dulla qat‘iy. – Uni yoqib, shu bilan hammasini ko‘nglimdan chiqarib tashlayin.

Zarbuvi ukasining jingalak sochlarini siladi. Yuragini ezayotgan alamni tarqatish niyatida uni opalik mehri ila erkalab-suydi.

– Qo‘y endi, ko‘p achinaverma. Yigit degan sal dadil bo‘ladi. Yana prokuror bo‘laman deydi-ya. Bunday bo‘shanglik bilan odamlar o‘rtasida qanday hakamlik qilasan?

Sa‘dulla ham opasining gapiga yarasha javob qildi:

– Yoqib tashlay – jinoyatchiga shafqat yo‘q, desam qo‘ymayapsiz-ku o‘zingiz.

– Ro‘molchani yoqqaning bilan ish bitmaydi. Bu menda tursin. Sandiqning tagiga tashlab qo‘yaman. Bir kun kelib asqotadi. Jinoyatchining jinoyatini isbotlash uchun ham dalil kerak-ku.

«Xo‘sh, sandiqqa tashlab qo‘yganda nima bo‘ladi? Nima munda qilding, deb surishtirib yurarmidim? Gapni chuvalashtirishning nima keragi bor?..»

– Ha, o‘ylanib qolding, – dedi Zarbuvi.

– Jinoyatchining taqdirini hal qilish oson emas-da. Maktabga borib bolalarga latifa aytib berib kelishmi bu sizga.

Zarbuvi institutni sirdan bitirib maktabda adabiyotdan dars beradi. Hozir Sa‘dulla shunga ishora qilayotgan edi. Zarbuvi ham bo‘sh kelmadi. Aslida u uncha-munchaga haqini yediradiganlardan emasdi.

– Ha-a, tuzuksan-ku. Hali biz latifachi bo‘lib qoldikmi... Voy, o‘rgildim sizdaqa yuristdan-ey.

Sa‘dulla kuldi. Bildiki, mavzuni davom ettirish ortiqcha. Shu bois opasiga bo‘yin bergan kabi gap o‘ramini boshqa tomonga burdi. Bu bilan o‘zining xayolini chalg‘itmoqni ham o‘yladi, ammo gap aylanib yana Salimaga taqalaverdi. O‘sha qiz necha bor esiga tushib asabi buzildi. Go‘yo uni Xolmat

quchoqlab turganday, u Xolmatga nozli tabassumu, bolday bo'salar hadya etayotganday tuyilaverdi.

Darvoza g'iyq etib ochildi. Zarbuvi yugurib chiqdi.

Xolmatning ovozi eshitib, Sa'dullaning eti uvushdi, qo'llari titradi. U bilan yuzlanish azobini o'yladi. Qanday ko'rishadi? Nima deydi? Balki hozir Salimaning oldidan kelayotgandir...

Uning fikrlari oxiriga yetar-yetmas Xolmat ayvonga o'tdi.

– Qani Sa'dulla? Kesayam uydan chiqmaydi.

Sa'dulla butun irodasini jamlab o'zini qo'lga oldi. Sir boy bermaslikka, bor gapdan o'zini mutlaqo bexabar ko'rsatishga intildi. Oshxonadan chiqib Xolmatga peshvoz yurdi.

– Ana, aytmadimmi, qizlarga o'xshaysan, desam yana ko'ngliga oladi. Aslida sen yuristikka emas, oshpazlikka o'qishing kerak edi.

U quchoq ochdi, Sa'dulla ham... Yo'q, u unday qilmadi, qilolmadi. Sinfdoshining quvnoq chehrasiga qarab fikridan qaytdi. Shunchaki nopisand qo'l uzatganini o'zi ham sezmay qoldi. Ammo Xolmat uning holatiga, harakatiga e'tibor bermadi, shartta Sa'dullaning belidan oldi. «Bu bilan nima demoqchi? Ko'rib qo'y, men sendan kuchliman... Har jihatdan... demoqchimi?» Sa'dullaning xayolidan lop etib shu fikr o'tdi. «Yo'q, unday emas!» U Xolmatni dast ko'tarib, ikki marta chir aylantirdi. Buni kutmagan Xolmat dovdirab qoldi.

– Hoy-hoy, Sa'dulla, nima qilayapsan? Ayvondan otib yuborma tag'in.

Ularni kuzatib turgan Zarbuvi, urishib qolishmasa go'rga edi, deb xavotir olardi.

– Qalaysan? – dedi Xolmat Sa'dullaning yelkasiga qo'lini tashlab.

– Rahmat...– Sa’dullaning gapi juda sun’iy chiqdi. U ko’zlarini Xolmatdan olib qochar, unga qarashni ham istamas, biroq noiloj, azbaroyi sinfdoshlik hurmati hol-ahvol so’rashedi.

– Yanga, birov bilan urishib qolganmi bu. Qovog’idan namuncha qor yog’adi, – dedi anchadan keyin Xolmat o’smoqchilab.

– Bilmadim,– dedi Zarbuvi.– Uyga kiringlar. Hozir ovqat pishadi.

– Yo’q, rahmat, men ketaman. Tog’amda bir ishim bor edi. Keyin kelarman. Uyga yur, gurunglashamiz.

– Ishim zaril,– dedi Sa’dulla,

– Men ketdim esa,– dedi Xolmat og’rinib. – Yanga, tog’amga aytib qo’yarsiz kelganimni. Ha, aytganday, Sa’dulla, kanikulda u yoq-bu yoqqa ketib qolmaysanmi?

Sa’dullaning ichi muzladi.

– Bilmadim... Nimaydi?

– Avgustda to’y qilmoqchimiz, – dedi Xolmat tirjayib. – Boshni ikkita qilmasak bo’mayapti, jo’ra. Chol-kampir qo’ymayapti. Ola xurjun yelkaga tushay deb turipti...

– Shundaymi? Kimga uylanyapsan? – dedi Sa’dulla iloji boricha o’zini xotirjam tutishga urinib.

– Senga pochcha bo’lmoqchiman. Qishloqlaringdagi Salima bor-ku, shunga.

«Ey, falak! Bunchalar beshafqatsan! Bu gaplarni eshitgandan ko’ra quloqlarim kar bo’lib qolmaydimi?!»

Nima desin u?! Jo’rasiga nima deb javob bersin! Urishsinmi u bilan? Salima menga xat yozib yuradi. Men bilan ahdu paymon qilgan desinmi? Sinfdoshing yuziga oyoq qo’yayapsan desa-chi? Axir unda gunoh nima? Salima bilan o’rtasidagi gaplardan xabari bormikan? Yo’q, mumkin emas! Agar bilsa bu yo’lga qadam bosmas...



Sa'dulla opasi bilan xayrlashib yo'lga tushdi. Qishloq ko'chasidan velosipedni shirillatib borardi.

Hammayoq ko'm-ko'k. Qir-adirlar, dalalar, yo'l chetidagi uvatlargacha ko'zni quvnatadi. Lolaqizg'aldoqlar zumrad dalalarda qip-qizil gilamday to'shalgan... Qishlog'iga kiraverishda, yo'lning kungay tomonida katta sada-qayrag'och bor. Shu yerdan Sa'dulla o'tib ketolmadi. Beixtiyor oyoqlari velosiped pedalini aylantirishdan to'xtadi. Tushdi. Atrofga razm soldi: hech kim ko'rinmaydi. Qayrag'ochning tangasimon barglari bahor epkinida titraydi. U beixtiyor o'ziga qadrdon joy — uvatdagi xarsangga o'tirdi. Ko'ylagining tugmalarini yechib, chuqur nafas oldi.

Necha marta Salima bilan bu yerga uchrashuvga kelgan. Qorong'i tushdimi, tamom, Sa'dulla qayrag'ochni mo'ljalga olardi. Ularga uydan chiqish uchun yaxshi bahona bor edi: har kun oqshom kolxoz klubida kino qo'yiladi. Kinoga borish bahonasida diydorlashardi. Sa'dullaning nazarida qayrag'och ularni har doim quchoq ochib kutib olardi.

Iltijoli ko'zlarini qayrag'ochga qadadi. «Qani u? Endi u yo'q! Ehtimol Xolmat bilan ham shu yerga kelgandir. Unga ham shirin bo'salar berib, ahdu paymon qilgandir. Sen shularni eshitmadingmi, ey tilsiz daraxt! Loaqal bir marta senga ham til bitib, uni uyaltirsang bo'lardi-ku. Balki uning bunaqa qiliqlarini Xolmat bilmas? Agar sen, ey qayrag'och, bir og'izgina aytganingda, Xolmat uning yuziga tuflab ketarmidi...»

Sa'dulla uning naqsh olmadek yuzidan, bodom qovoqlaridan o'pishni yoqtirardi.

Bir kuni Sa'dulla uni yelkasidan asta quchoqlab, yonog'idan o'pmoqchi edi, Salima o'zini olib qochdi. Oyning sutday yorug'ida uning harakatlari, qosh-ko'zlarining suzilishi aniq ko'rinib

turardi. Bu ishvalarga Sa'dulla chidolmadi. Daf'atan Salimaning lablariga lablarini bosdi... Sevgi sharobidan ikkovi ham sarxush edi... Bunday holda nimalar bo'lmaydi deysiz. Sa'dulla mumdek erigan, qiz esa uvatda behol cho'zilgan edi. Qiz allanechuk titrar, shirin-shirin entikar edi.

Shu payt yuqori tarafdin kimningdir «ha, boo-osh» deb baqirgani eshitildi. Keyin yonidan bir sigir lo'killab o'tib ketdi. Sigir ortidan Salimalarning qo'shnisi Shodi aka chopib kelardi. Qiz ham, yigit ham cho'chib tushdi. O'midan turasola u yoq-bu yog'ini to'g'riladi Salima. Darrov o'zlarini butalar panasiga olishdi. Shodi aka ko'rdimi-yo'qmi – Xudo biladi.

Yaxshiyam o'shanda Shodi aka kelib qolgan ekan. Aks holda nima bo'lardi? Yana kimga – o'zining jo'rasiga turmushga chiqyapti-ya! Dahshat!..

U velosipedini minib yo'lga tushdi.

Hozir Salimani ko'rishni, hatto uning uyi yaqiniga boshishni istamasdi. Biroq velosipedini Salimalar hovlisi yonidan o'tadigan yo'lga burib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi. «Nima uchun bu yo'ldan ketyapman? Bordi-yu, Salima chiqib qolsa-chi oldimdan, axir men uni ko'rishga zor emasman-ku. Ko'rib kuygandan ko'ra, ko'rmay-ko'rmay oxiri unutgan ma'qulmasmi...» Xayolidan shu fikrlar kechar, ammo ko'zi bot-bot Salimalarning uyi tomonga tushardi.

Oq tunuka qoqilgan uyga yaqinlashganda oyoqlari bo'shashib, velosiped pedalini aylantirolmay qoldi. Nigohini boshqa tomonga olib qochmoqqa intiladi-yu, lekin kuchi yetmaydi. «Bir jihatdan hozir ko'rsam tuzuk edi. Gaporib-gaporib alamimdan chiqardim. Ertaga ketsam shu ko'yi qachon ko'raman. Boshqa xat yozmayman...» Uy ro'parasida velosipeddan tushdi. Egari tagidagi sumkachasidan kalit olib, velosipedining u yer-bu yerini tuzatgan bo'ldi. Qo'li yumushda, ko'zi, xayoli esa kimsasiz

hovlida. «Nima balo, biron joyga ko'chib ketishganmi? Hademay kech tushadi, poda qaytadi – bularnikida odam zoti ko'rinmaydi». Uzoq turishni o'ziga ep bilmadi – bittayarimta ko'rib qolsa noqulay. «Uning ustiga nimaga men uni kutib turishim kerak? – Yigitlik g'ururi jo'sh urdi. – Ketdim. Ko'zimga ko'rinmagani ma'qul. Aks holda. jahl ustida odamning og'zidan har balo chiqib ketishi mumkin».

Velosipedni g'izillatib haydab ketdi. O'ttiz-qirq qadamlar uzoqlashgach, orqa tomondan «Farhod, o Farhod!» degan tanish ovoz qulog'iga o'qday kelib urildi. Sa'dulla shart orqasiga o'girilib qaradi. Angladiki, Salima ukasini chaqirayotgan edi. Sa'dulla gangidi, miyasida ming bir fikr charx urdi. Shayton aytdi: «To'xta, orqangga qayt! Oldiga bor, ochiqchasiga gaplash!» Vijdon aytdi: «Uyat bo'ladi! Yigitlik g'ururini oyoq osti qilma!»

Velosiped yelib borardi.

\* \* \*

Ertaga yo'lga chiqishim kerak, degan bahona bilan Sa'dulla barvaqt yotdi. Lekin uxlay olmadi. Bunday holatda odamning ko'ziga uyqu ilinarmidi. Yonida yotgan ukasi hashpash deguncha pishillab uxlab qoldi. «Kuni bo'yi charchagan. Maktab, o'qishdan kelgandan so'ng uyning ishi. Bu yog'i bahor – yo'g'on cho'zilib, ingichka uzilgan payt». Ukasining pishpishini eshitib yotarkan, shularni xayoldan o'tkazdi. O'zi ham goh u yonboshiga, goh bu yonboshiga ag'dariladi. Turli fikrlar g'ujg'on o'ynaydi miyasida. Salimani o'ylamay deydi, lekin aylanib ko'z oldida uning qiyofasi gavdalanadi. Bexos bundan ikki yil oldin qo'shni rayonga paxta terimiga chiqishganda ro'y bergan voqea yodiga tushdi...

Bir kuni Sa'dullaning shimi so'kilib ketdi. Kechqurun to'qqizinchi sinfda o'qiydigan singlisi Jamilaga berdi. Ertasi kuni oqshom samovardan choy olayotgan edi, singlisining sinfdoshi Salima «Manavini Jamila berib yubordi», deb shimini tutqazdi.

Ovqatdan so'ng ko'pchilik kinoga jo'nadi. Xonada uch-to'rt bola qoldi. U shimini kiyib, tikilgan joyini tortib-tortib ko'rdi. Cho'ntagiga qo'lini solgan edi bir qog'oz ilindi. «Nima ekan?» deb olib ochdi. Mayda buklangan qog'ozga: «Men sizni ko'pdan beri kuzatib yuraman. Ammo ko'nglimdagini aytishning ilojini topolmayman. O'ylab-o'ylab xat yozishga qaror qildim...»

Eti jimirladi. Atrofga alanglagancha, darhol xatni buklab cho'ntagiga soldi. Keyin tashqariga otildi. «Qayerga borib o'qisam ekan? Qayerda xilvat joy bor?» U alang-jalang qilar, ma'qulroq joy qidirar edi. Yotoqxonaga yoniga o'tdi. O'sha yerdagi simyog'ochda lampochka bor, shuning yorug'ida o'qisa bo'ladi.

Xayriyat, hech kim yo'q ekan. Xatni ochib o'qiy boshladi. «...Zuhra Tohirni, Layli Majnunni ko'rmasa turolmaydigandek men ham sizni ko'rmasam bir narsasini yo'qotgan odamday garangsib qolaman...»

Sa'dullaning qo'llari titrar, yuragi gup-gup urar edi. Xatning davomini ham hayajon bilan o'qidi. «Men sizni sevaman!.. Javobini kutaman. Salima». Sa'dulla xatga yana bir ko'z yugurtirdi. Hayajonini bosolmas, o't ichida qolgandek edi.

U yugurib yotoqxonaga kirdi. Hozir ko'ziga hech kim, hech nima ko'rinmasdi. Kinoga bormay qolgan bolalar qarta o'ynashardi. Sa'dullani ham chaqirishdi. «Yo'q, o'ynamayman. Boshim og'riyapti», dedi-da, joyini solib yotdi. Xayolida Salima. Uning ko'zlarini, kulishlarini, gapirishlari, mayda qadam

tashlab yurishlarini – hamma-hammasini bir-bir ko‘z oldiga keltira boshladi. Ko‘zlari muncha qora, kulishlari-chi? Boshqa qizlar ham shunaqa chiroyli kularmikan? Nazarida butun maktabda, yo‘q, butun olamda eng go‘zal, eng xushro‘y qiz Salima edi. Undan sohibjamol yo‘q dunyoda...

Sa‘dulla u yonboshidan-bu yonboshiga ag‘darilar ekan, o‘sha Salima bilan Xolmatga turmushga chiqayotgan hozirgi Salimani solishtirar, ulardan o‘zaro yaqinlik. o‘xshashlik topolmas edi. «Yo‘q, bu boshqa Salima! U boshqa, u – mening Salimam, yolg‘iz meni sevadi...»

## II

Avtobus g‘ira-shirada Toshkentga yetib keldi. Sa‘dulla metroga tushdi.

Avtobusda ham, metroda ham xayol uni bir lahza tark etmadi. Opasining gaplari, Xolmat bilan kechgan suhbat, Salima... «Xo‘sh, nima bo‘pti? Ilk sevgisiga yetolmagan bitta menmi? Hayot shu ekan-da. Nima, uning oyog‘iga bosh urib yalinishim kerakmi? Shunday qilsam sevgi tug‘ilib qolarmidi. Xohlamagan odamning orqasidan soyaday ergashish... Bu yo‘l bilan qurilgan oila omonat tiklangan uyga o‘xshaydi. Sal qattiqroq shamolgayam dosh berolmaydi. Oxiri bir kun nura raydi...»

«Hamza» bekatida odam gavjum edi. Eshiklar ochilib besh-olti odam kirdi. Sa‘dulla diplomatini tizzasiga qo‘yib, bir nuqtaga termilib o‘tirardi.

– Salom.

U cho‘chib tushdi. Ro‘parasida Feruza turardi.

– Salom, – dedi beixtiyor. – Bu yoqlarda nima qilib yuribsiz? Feruza uning yoniga o‘tirdi.

– Chilonzorda xolam turadilar, shularnikiga keluvdim. O‘zingiz qayerdan kelyapsiz?

Uydan, – dedi Sa’dulla. – Kanikulda ketuvdim. Sa’dulla tovushidagi horg‘inlik Feruzani hayron qoldirdi. Ilgari doim quvnoq yurar, hazil-huzulga o‘ch edi. Bugun esa... Feruza buning boisini so‘ramoqni o‘yladi. Balki o‘zi gap ochib qolar, biroz sabr qilay-chi, degan xayol bilan indamadi.

– Siz qaysi bekatda tushasiz? – deb so‘radi Feruza.

– «Paxtakor»da. Yigirma sakkizinchi avtobusga chiqishim kerak-da.

– Marshrutkaga chiqmaysizmi?

– Keyingi bekatga tushib, to‘qqizinchi marshrutkaga chiqsam ham bo‘ladi.

Feruza uni zimdan kuzatdi. Qandaydir tund, nimadandir xafaday ko‘rinar, bu – gaplarida ham aks etardi.

– Kechirasiz, Sa’dulla, uydagilar yaxshi ekanmi?

– Rahmat, yaxshi.

– Negadir kayfiyatingiz boshqacharoq... Tinchlikmi ish-qilib? Sa’dulla kuldi. Ochig‘i, kulgisi ham zo‘rma-zo‘raki chiqdi.

– Tinchlik, Feruza, – dedi xomushlik bilan. – Biroz charchadim. Avtobus yo‘lda buzilib qoldi.

Elektrichka shuvillab yop-yorug‘ bekatga kirib keldi: «Paxtakor» bekati.

– Bo‘pti, Feruza, – dedi Sa’dulla o‘rnidan turib. – Men tushdim. Yaxshi boring.

– Avtobusga chiqasizmi?

– Ha. Kech bo‘lib qoldi, marshrutka bormi-yo‘qmi endi. Bugun yakshanba bo‘lsa...

– Xayr, yaxshi yetib oling. Ertagacha.

«Eshiklar yopiladi. Keyingi bekat – Beruniy».

Talabalikning gashtli damlaridan biri paxta mavsumi. Shu paytda talabalar bir-birlari bilan yaqinroq tanishadilar, bir-birlarini sinaydilar. Ba'zi yillar bir oy o'qir-o'qimas paxtaga chiqib ketishadi. Bungacha birinchi kurs studentlari hali bir-birlarining ism-sharifini ham bilib olishga ulgurmaydilar. Qolaversa, tortinchoqlik, kirishib ketolmaslik...

Paxtaga chiqishganiga uch kun bo'ldi. Mirzacho'lning bepoyon paxtazorlarini Sa'dulla birinchi marta ko'ryapti. Maktabdan qo'shni rayonga paxtaga olib borishganda jo'yaklar kalta-kalta edi. Bir kunda emas, peshingacha ikki-uchta qatorning paxtasini terib chiqishardi. Shundayi tuzuk ekan — har holda charchagani bilinmaydi. Oxiri ko'rinmaydigan bu qatorlar odamni azoblaydi.

Sa'dulla ikki etak terib toliqdi. Egatga to'kib qo'yilgan paxtasining ustiga chordona qurib o'tirdi-yu, kitob o'qiy boshladi. Orqaroqda bir qiz turardi. U Sa'dullaning yoniga kelgach, qaddini rostladi.

— Uf-f, voy belim-ey, charchab ketdim,— dedi qiz Sa'dullaga qarab.— Siz qancha terdingiz?

— Qanchaligini kim biladi, deysiz. Ikki fartuk to'ldirdim. O'tiring, biroz dam oling.

Qiz o'tirdi.

— Yaxshi-ku, — dedi kulimsirab. — Meniki hech ko'paymaydi-ya. Ba'zilar uch-to'rt fartukdan terishibdi. Siz ham ko'p terolmaysizmi yoki o'zingiz termayapsizmi?

Sa'dulla kuldi.

— Terolmayman. Belim zirqirab ketaveradi. O'rganmanman-da. Siz shaharliksiz-a?

— Ha,— dedi qiz, — umrimda birinchi marta dalani ko'rishim. Siz qayerdانسiz?

- Samarqanddan...
- Samarqandda paxta yo‘qmi? – dedi Feruza hayron bo‘lib.
- Bizning tumanda yo‘q-da.
- Paxta ekilmaydigan tuman ham borakan-da-a. Men o‘ylardimki, O‘zbekistonning hamma joyida paxta ekiladi, faqat Toshkentda yo‘q bo‘lsa kerak, deb o‘ylardim. Otingiz nima?
- Sa‘dulla, Sizniki-chi?
- Feruza. Bir guruhda o‘qib bir-birimizning otimizni endi bilyapmiz. Qanaqa kitob o‘qiyapsiz?– Sa‘dulla kitobning muqovasini ko‘rsatdi.—«O‘tkan kunlar». Qiziq ekanmi?
- O‘qimaganmisiz?
- Yo‘q, kinosini ko‘rganman.
- Yoqqanmi?
- Unchamas, — dedi Feruza labini cho‘chchaytirib.
- Shuning uchun kitobini o‘qish kerak. Kitobi zo‘r. Kinoda qisqartirib tashlashgan.
- Kitob o‘qish uncha yoqmaydi. Kinoga qiziqaman. Ayniqsa dedektiv filmlarga.
- Kitob o‘qish yoqmasa qanday qilib yurist bo‘lasiz?
- Nima, yuristlar kitob o‘qishi shart ekanmi? Mana, mani adamla yuristla, hech ham kitob o‘qimaydila.
- Yoshligida o‘qigandir-da.
- Kecha normani bajardizmi? – deb gapni burdi Feruza.
- Qayoqda, — kuldi Sa‘dulla. — Men ikki kunda bir kunlik normani bazo‘r eplayman.
- Feruza qah-qahlab kuldi. Uning kulishi chiroyli ekan.
- Siz ham o‘zimiz qatori ekansiz-da,— dedi u kulgisini zo‘rg‘a tiyib. — Kim normani bajarmasa, universitetdan haydaymiz, deyishdi, rostmi shu?



– Kim biladi deysiz. Haydashsa haydashar... Yoki biz ham ba'zilarga o'xshab sotib olsakmikan?

Bu gap Feruzaga juda g'alati tuyildi. Ikki boshli buzoq ko'rganday hayratga tushdi.

– Sotib olasiz? Paxta sotadigan joy bormi?

Sa'dulla qizning soddaligini sezib bir zavqlandi, bir achindi. «Bu gaplarni u qayerdan bilsin. Ota-onasining issiq quchog'ida yeb-ichib, xohlagan narsasini kiyib yurgan qizda. Dunyoda bunaqa tashvishlar ham borligi xayoliga kelarmidi. Paxta sotadigan joy bormi deydi-ya. Ilgari o'qituvchilarimiz ham qanchadan-qancha paxta sotib olishardi-ku!»

– Bor.— dedi hazillashib. Feruza chippa-chin ishondi.

– Kilosi qanchadan? Mengayam olib bering. Endi Sa'dulla xoxolab kulib yubordi.

– Qiziq ekansiz-ku siz. Men hazillashyapman.

– Bizdan boshqayam normasini bajarolmayotganlar bor-dir, — dedi Feruza.

– Bo'lsa kerak. Yoki ikkovimizni haydab yuborisharmikan-a? Go'yo bugun kechqurun hammaning oldida mana bular kunlik normasini bajarmadi, deb uyaltirishadiganday, hatto o'qishdan haydab yuborishadiganday tuyuldi Feruzaga. Yuragi shig'illab, yuzlari qizarib ketdi.

– Insof qilishar-e, — dedi Sa'dulla ham o'ziga, ham qizga taskin berib.

Birozdan so'ng yonma-yon egat oralab ketishdi. Feruza chap qo'li bilan g'o'zani bir tomonga egib, o'ng qo'li bilan paxtani olar edi. Sa'dulla engashib paxta tergan ko'yi qizning harakatlarini kuzatdi. Kulgisi qistadi. «Mendanam battar ekan-ku. Bu ahvolda kechgacha yigirma kiloyam terolmaydi». Bu fikrini Feruzaga aytmadi. Kulmadi ham. «Ko'ngliga olishi mumkin.

O'zi-ku kam terganidan yuragini hovuchlab yurgan ekan. Hozir men kulsam – tamom, mazasi qochadi sho'rlikning».

Sa'dulla unga yaqinroq bordi.

– Munaqa qilib termang, – dedi xayrixohlik bilan. – Bu ahvolda albatta ko'p terib bo'lmaydi-da. Mana, menga qarang, ikki qo'llab oling.

Sa'dullaning qo'llari biri etakka kelsa, biri chanoqqa cho'zilar, xullas, navbatma-navbat borib kelardi.

– G'o'zapoyani bir tomonga egib turmasa qanaqa qilib ochilgan paxtani olib bo'ladi?– dedi Feruza.

– O'rganing-da shunga. Bir qo'l bilan ish bitadimi.

Shu kuni kechgacha birga terishdi. Ba'zi qizlar Feruzaga qarab-qarab qo'yishadi. Bu qarashlarning ma'nisi Feruzaga ham, Sa'dullaga ham ayon. Ammo ikkalovi ham e'tibor bermadi.

Yotoqxonaga gurunglashib qaytishdi.

Ular ertasi ham, undan keyin ham birga terishdi.

Bir kuni Sa'dulla sal istihola bilan qizga dedi:

– Sizdan bir narsa so'ramoqchi edim. – Qiz unga yuzlandi. – Bunday kuzatsam, qizlar bilan kam yurasiz, kam gaplashasiz. Ularning orasida dugonalaringiz yo'qmi?

Feruza kuldi. Darhol javob bermadi. Bir necha qadam jim ketishdi. Har ikkalasi o'z xayoli bilan band. Sa'dulla: «Nazarimda, noo'rin savol berdim chog'i. Og'ir botdimi...»  
Feruza: «Nima desam ekan? To'g'ri tushunarmikan?»

– Hali qizlar bilan yaqinroq tanishib olganimiz yo'q, – dedi nihoyat Feruza. – Undan keyin, bilasizmi, negadir menga qizlarning davrasi uncha yoqmaydi.

Sa'dulla ajabsindi.

– Nimaga?

– Ajablanarli-a? – dedi Feruza kulib. – Lekin shunaqa. Bilasizmi, ular doimo bir xil narsani – kiyim-kechak, taqinchoqlar to‘g‘risida gaplashishadi. Shunaqa gaplar uncha yoqmaydi manga... Bo‘sh qolishsa magazininga chopishadi. Kelgan kunimiz hammasi qishloq magaziniga yugurishdi.

Qosh qorayib, odam odamni tanimaydigan bo‘lib borar, g‘arb tomondan mayin shabada esardi.

Ular yotoqxonaga yaqinlashib qolgan edilar.

### III

Cho‘ntagidan xat chiqqandan keyin Sa‘dulla halovatini yo‘qotdi. Yotganda ham, turganda ham, paxta terayotganda ham shu xatni, Salimani o‘ylaydi.

Salima!

Unga nima deb xat yozsa ekan? Men ham seni sevaman, desinmi? Yoki bironta jo‘rasidan so‘raydimi? Yo‘q, bunaqa narsani birovga aytmagani ma‘qul. Keyin hammaga doston bo‘lib ketadi. Salimaga ham yaxshi emas. Ota-onasi, akalari qulog‘iga yetsa – chatoq. Yaxshisi, o‘zi o‘ylab ko‘radi. Kitoblarda o‘qigan-ku. Qaysi kitobda edi? Ha, esiga keldi: «Yodgor»-da. Saodat Jo‘raga, Jo‘ra Saodatga xat yozadi. Ana shunga o‘xshatib bitadi.

Ertalab hech kimga bildirmay paxta zorga ruchka bilan daftar olib ketdi. Biroz terdi-yu, keyin o‘zini kunchiqardagi tutzorga urdi. Tutzor ichida ko‘ksini paxtasiga bosib yotganicha xat yozishga tutindi.

«Salima! Xatingni oldim. Rahmat...» Bu yog‘iga nima deyish kerak? «Men ham seni sevaman...» O‘ylanib qoldi: «Sevamanmi o‘zi? Kitoblarda yozishadi-ku, falonchi sevgilisini ko‘rganda yuragi gup-gup urib ketdi, deb. Salimaning

xatini o'qiganimda mening ham yuragim gupillab urdi-ku». Beixtiyor cho'ntagiga qo'l soldi. Haligi xat chiqdi. Shu zahoti yuragi gup-gup urganini sezdi. «Xatiga shuncha, o'zini ko'rsam, yolg'iz uchratsam nima bo'lar ekan? Yuragim qinidan chiqib ketmasaydi... Demak, sevgi degani shudir-da...» O'ylab-o'ylab xatini davom ettirdi: «Men ham seni sevaman... Bugun...» Bugunmi? Yo'q. bugun emas, ertaga deyin... «Ertaga kechqurun ovqatlanib bo'lganingdan so'ng ariq yoqasidagi katta tutning tagiga chiqasanmi?.. Sa'dulla».

Xatni buklab kissasiga soldi. «Endi huni qanday qilib bersam ekan? Singlimga aytsammikan? Yo'q, bitta-yarimtasi ko'rib qolsa — rasvosi chiqadi. O'zini yolg'iz uchratishim kerak. U qayerdan teryaptikan?»

Paxtazor oralab ketdi.

Huv narida — kartaning oxirida qizlar ko'rindi. Shularning orasida yo'qmikan? Birdan... to'g'ri kelmas. Asta-sekin, paxta terqanday bo'lib boradi.

U qatordan, bu qatordan bir chanoqdan olib qizlar tomonga yurdi. Ularga yaqinlashganda qizlardan biri gap tashladi:

— Ha, partizan! Nimaga bir egatdan termay yonlamasiga oralab yuribsan?

Sa'dulla sir boy bermadi.

— Hadeb bir tomondan terish odamni zeriktirib yubordi. Shuning uchun ko'ndalangiga termoqchiman.

Nigohi Salimani izlardi. Ana, uni topdi. Salima qizlarning narigi tomonida, boshini qizil ro'mol bilan tang'ib, epchillik bilan paxta terardi. U go'yo Sa'dullani ko'rmas, uning kelganiga e'tibor ham bermasdi.

«Nima qilish lozim? Xatni qanday qilib berish kerak?» Bu muammoga Sa'dullaning aqli yetmas, alamini paxtadan olmoqchiday jadal terardi.

– Xo‘sh, qizlar,– dedi Sa‘dulla ularga hazillashib.– Eng ko‘p terganlaring kim-u, eng kam terganlaring kim?

– Nima qilasan? – dedi o‘zi bilan o‘qiydigan Halima. – Kam terganga yordam berarmiding?

– O‘-ho‘, ishtahang karnay-ku. Eng ko‘p tergan qiz menga yordam bersin, demoqchiman-da.

– Ho-o, muncha yaxshi,– dedi yana Halima.– Sizga yordam beraylikmi? O‘zlari-chi? Yigit kishi qizlardan yordam so‘ragani uyalmaysanmi?

Sa‘dulla bo‘sh kelmadi.

– Paxta terish qizlarning ishi-da. Boshqa ish bo‘lsa men yordam berishim mumkin edi.

– Go‘r qilasan,– dedi qizlardan yana biri,– faqat birovdan yulishni bilasan.

Hamma baravar kulib yubordi. Salima ham kuldi. Sa‘dulla zimdan uni kuzatardi. Salima unga qaramas, biroq ko‘ngil ko‘zlari Sa‘dullani kuzatayotgani aniq edi.

– Ja nima berib qo‘yuvding menga? – dedi Sa‘dulla boyagi qizga. Keyin u bitta chanoq yulib, Salima tomon yo‘naldi. Salima ham qizlardan ikki egat nariga o‘tdi. Sa‘dulla yonlab borarkan go‘yo yerga to‘kilgan paxtani olgan kabi engashdi-da, buklangan qog‘ozni sekingina Salimaga otdi, qiz ham sezgirlik qildi. Qog‘ozni paxtaga qo‘shib oldi-da, etagiga tashladi. Yuzi duv qizardi.

– Shunday qilib, yordam bermaysizlarmi. Mayli bo‘lmasa, men ketdim. O‘zim bir kunimni ko‘rarman.

– Bor-bor,– dedi Halima. – Yo‘lingdan qolma. Agar paxtang ko‘payib ketsa bizga ilinarsan.

Sa‘dulla kula-kula ilgariladi.

Ertasi kuni kechqurun xatda tayin qilingan joyga – tut tagiga hovliqib-hayajonlanib keldi. Qaydadir chigirtka chirillaydi. Ariq yoqalab o‘sgan qamishlar bir-biriga ishqalanib g‘ish-g‘ish etgan ovoz chiqaradi.

Sa’dulla alang-jalang. Diqqati ko‘proq Salima keladigan tomonda. Undan darak yo‘q. «Chiqmasmikan? Kecha oqshom choy olayotganda boraman degan ma’noda bosh irg‘ovdiku... Balki dugonalaridan ayrilib chiqishi qiyin bo‘layotgandir. Mendan ham so‘rashdi-ku. Qiz bolaning yolg‘iz o‘zi chiqib ketishi osonmi?...»

Chap tomondagi yolg‘izoyoq yo‘ldan shovur eshitildi. Sa’dulla o‘sha tomonga o‘girildi. «Kelyapti...» Yuragi gupillab urdi. Lekin, bilsaki, boshqa: shu qishloqlik bola ekan. Qaysi kuni maktab stadionida birga futbol o‘ynagan edi. U Sa’dullani ko‘rib cho‘chib tushdi.

– Salomalaykum,– dedi keyin baqirib.

Sa’dulla salomga alik olish o‘rniga uni savolga tutdi: – Nima qilib yuribsan kech bo‘lganda?

– Sigirimizni qidirib yuribman. Podadan kemadi,– dedi bola.

– Bu yerda sigir nima qiladi? – dedi Sa’dulla ensasi qotib.

– O‘zingiz nima qilib o‘tiribsiz bu yerda yakka?

«Juda ezma ekan-ku! Sigirini axtarmaydimi undan ko‘ra». O‘zim, shunday aylanib yuribman.

Bola ketdi.

Shamol biroz zo‘raydi. Qamishlar shig‘-shig‘ etadi. Uzoqdan boyo‘g‘lining ovozi eshitildi. Sa’dullaning yuragi shig‘il-lab, ichi muzlab ketdi. U boyo‘g‘lidan juda qo‘rqardi. Umuman bitta o‘zi kechasi yurishdan cho‘chiydi. Hozir ham

yuragi taka-puka urdi. «Kelmaydi shekilli. Ketaman... Yo'g'-e, picha kutay, ana, tagin bir sharpa...

Keluvchi ikki qadamlar narida to'xtadi.

– Salima!

Salima avval yigitga termildi, keyin birdan yuzini o'girdi. Joyida tek qotdi.

Sa'dulla unga tomon yurmoqni, borib uning qo'llaridan ushlamoqni xayol qildi. Ammo... ammo oyoqlari zilday og'ir, ularni ko'tarolmas, joyidan qimirlatolmas edi.

– Salima!..

Xitobini Salima eshitdimi-yo'qmi – noma'lum. Chamasi o'ziga ham aniqroq eshitilmadi. «Salima» deya oldimi yoki demoqchi bo'ldimi – bilolmaydi. Butun tomirlaridagi qon boshida to'planganday edi. Ajabo, tush ko'ryaptimi, xayol suryaptimi? Tasavvuri xiralashgan, faqat ko'ksi temirchi bosqonidek gupillayotganini his etardi, xolos.

Qiz ham qimir etmaydi. Oralari atigi ikki qadam, balki undan ham yaqin, ammo...

Bu oqshomni Sa'dulla qancha kutdi. Kecha kuni bilan orziqdi, tun bo'yi mijja qoqmadi. Bugun esa kech tushguncha rosa bo'lari bo'ldi. Tezroq u bilan yolg'iz, yuzma-yuz uchrashmoq xayoli bilan yashadi. Endi esa... Mana, endi tilagidagi qiz, intizor kutgani yonida. Shunday qo'l uzatsa yetadi. Lekin uzatolmaydi. Qo'llari go'yo shol, oyoqlari kesak!..

Shaksiz, qiz nigohida ham bir dilgirlik, bir intiqlik aks etgan edi. Axiri u nedandir tamom toqatsizlandi. Qayrilib yigitga xumorvash bir qarash qildi. Hamon haykaldek qotgan yigitdan sado chiqavermagandan so'ng u so'qmoq bo'ylab yugurib ketdi.

O'tlar shitirlashidan yigit o'ziga keldi. Baqirib yuborgani-  
ni o'zi ham sezmay qoldi:

– Salima! Xatingni kutaman!

#### IV

Qishloqdan qaytgach Sa'dulla bir necha kungacha garang-  
sib, devonaday bo'lib yurdi. Birov gap so'rasa «ha» yo «yo'q»  
deb qisqa javob beradi, xolos. Darsda ham jim o'tiradi. Ilgari  
o'qituvchilarga savol berar, umuman, auditoriyada o'tirgani  
sezilib turardi. Endi esa u go'yo darsda yo'qday. Buni  
kursdoshlarigina emas, o'qituvchilar ham payqashdi.

Falsafadan dotsent Qulmatov leksiya o'qiydi. Juda xush-  
chaqchaq odam – o'zi gapirib o'zi kuladi. Talabalar bilan  
o'rtog'iday bermalol, ochiq suhbatlashadi. Shu bois talabalar  
ham unga o'zlarini yaqin oladilar.

Shu o'qituvchi bir kuni so'rab qoldi:

– Primov, sog'ligingiz joyidami?

Sa'dulla hayron. Nega bunday deb so'rayapti domla?

– Darsda boringiz ham, yo'g'ingiz ham bilinmaydi. To'yga  
kelgan mullavachchalarday indamay o'tirib, indamay chiqib  
ketasiz, – dedi Qulmatov. – Ilgari ja savol berishga o'ch edingiz.  
Shuning uchun so'rayapman-da, mabodo betobmisiz deb.

Bolalarga qo'shilib Sa'dulla ham zo'rma-zo'raki jilmaydi.

– Sog'ligim yaxshi, domla, – dedi xasta ovozda.

– Ishonmadim. Ovozingiz bazo'r chiqyapti.

Darsdan keyin bir-bir bosib o'y surib ketayotgan edi, yonida  
qiz bola tuflisining bir maromdagi taqirlashi eshitildi. Ko'ngli  
bir narsani sezdi, lekin o'girilib qaramadi.

– Sa'dulla!.. – Bu Feruza edi. – Qayoqqa ketyapsiz?

– Uyga, – dedi Sa'dulla.



Feruzaning pinjiga kirgudek yaqinidan odimlardi. Yigitning yuziga termildi. U ham qaradi. Feruzaning nigohida teran bir samimiyat, hatto o'ziga nisbatan mehr tuyg'usini sezdi.

– Yo'q demasangiz kinoga boraylik, – dedi Feruza. Sa'dulla kursdosh qizlar bilan kinoga ko'p tushgan. Ammo biron qiz bilan yolg'iz kirmagan. Feruza ham doim ko'pchilikka ergashib borgan. Bugun esa... Nega bu fikrga keldi ekan?

– Qo'rqmaysizmi?

– Kimdan?

– Aytaylik mendan...

– Yo'q, – dedi Feruza, – men hech kimdan, hech narsadan qo'rqmayman. Sizdan esa butunlay. – Sa'dulla nimadir demoqchi bo'lgandi, Feruza og'iz ochirmadi. – Chunki siz hech qachon birovga yomonlik istamaysiz.

– O'-ho', juda maqtab yubordingiz-ku. Shunchalik zo'rli-gimni bilmas ekanman.

– Kulmang, – dedi Feruza jiddiy qiyofada, – man hazil-lashayotganim yo'q, rost aytyapman...

Soat oltida San'at saroyining oldida uchrashadigan bo'lishdi.

Sa'dulla yotoqxonaga ketar ekan, Feruzaning gaplarini o'zicha tahlil qildi: «Maqsadi nima? Nega endi o'zi kelib meni kinoga taklif etdi?.. Sen ham qiziq odamsan-da, Sa'dulla.

Xo'sh, taklif qilsa nima bo'пти. Axir uch yildan beri bir auditoriyada birga o'qiyan. Kinoga borsang nima qipti? Nega endi buni boshqacha talqin qilish kerak? Nima, yigit bilan qiz do'stlashishi, kinoga borishi, suhbatlashishi mumkin emasmi? Qiz bolaligi – aybmi? Ehtimol qizlar bilan kinoga

tushishni xohlamas. O'zi aytuvdi-ku, menga qizlarning davrasi yoqmaydi, deb. Xarakteri shunaqadir-da... Balki mening holatimni tushungandir, nimanidir sezgandir. Qishloqdan kelayotib metroda uchratganimda uydagilar tinchmi, deb so'rovdi. Har holda ancha hushyor, sezgir qiz Feruza».

Yigitchilik-da, xayoli endi boshqa tomonga og'di: «Qancha yigitlar orqasidan ergashib yuradi, bilaman. Paxtadayam nechtasi shilqimlik qildi. Bironotasiga so'z bermaydi. Shartta qayirib tashlaydi... Unaqqa yengiltak qizlardan emas u... Seni esa o'zi kinoga taklif qilyapti...» Bu fikridan o'zicha g'ururlanib qo'ydi.

Kino boshlanishiga yarim soat bor edi. Shoshilmay ikkinchi qavatga ko'tarilishdi. Muzqaymoq olib bir chekkaga -- deraza oldidagi stolga borib o'tirishdi.

– Sizdan bir narsa so'ramoqchiman,– dedi Feruza tamshanib.

– Marhamat,– dedi Sa'dulla takalluf bilan.

– To'g'risini ayting, nega uyingizga borib kelganingizdan beri kayfiyatingiz yaxshimas? Ilgarilari qishloqdan juda xursand qaytar edingiz.

«Demak, meni kuzatib yurar ekan-da». Sa'dulla xayolidan kechgan bu fikrni qizga bildirmadi, o'zini xotirjam tutishga intildi.

– Qaysi kuni metroda ham so'rovdingiz.

– Ezmiligim uchun uzr,– dedi Feruza.

– Yo'q-yo'q, men boshqa ma'noda... – dedi Sa'dulla o'ng'aysizlanib. – Kursdoshlardan birontasi so'ramadi-yu, siz esa qiziqayapsiz. Birovning taqdiri sizni loqayd qoldirmas ekan.

– Axir biz yurist bo'lmoqchimiz-ku. Ikkovi ham kuldi.

– Bilasizmi, Feruza, aytarli muhim gap yo'q. Odam bo'lgandan keyin har xil holatga, kayfiyatga tushishi tabiiy. Shuning

uchun hozir bu haqda gaplashib o'tirmasak. Mavridi kelsa o'zim hammasini aytib beraman. Ammo sizdan xursandman.

– Qo'ysangiz-chi. Birga o'qisak, bir necha yildan beri bir-birimizni bilsak-da, ahvoling qalay, deb so'rash xayolimizga kelmasa. Odamgarchilikdanmi shu?..

«Bu qizni tushunish qiyin. Bir qarasang, balandparvoz, uncha-munchani mensimaydi. Dunyoning bordi-keldisi bilan ishi yo'q. Bir qarasang, juda odamoxun, mehribon, kuyunchak... Bir terining ichida odamzod necha marta semirib, necha marta ozishi mumkin, degan gapni eshituvdim. Lekin turfa xarakterda ko'rinishi mumkinligidan bexabar edim».

– Rahmat sizga Feruza.

Seans vaqti yaqinlashdi. Betoqat odamlar hozirgina ochib qo'yilgan eshik sari yopirilishdi.

Ular ham oqimga qo'shilib ketdilar...

## V

Kinodan chiqishganda qorong'i tushgan, maydalab yomg'ir yog'ardi.

– O-o, zo'r-ku! –dedi Feruza xursand holda.– Piyoda ketamizmi? Men yomg'irda yayov yurishni yaxshi ko'raman.

Yomg'ir yog'ayotganini ko'rib Sa'dulla, bari bir Feruza uyiga shoshiladi, taksi-paksi to'xtatish kerakmi, deb o'ylagandi. Qizning bu gapidan keyin fikridan qaytdi.

– Mayli, – dedi u. – Menga ham yoqadi piyoda yurish. Faqat ustingiz ho'l bo'lib ketmasa bas. Soyabon ham olmagan ekansiz.

– Yomg'ir yog'ishini kim bilibdi deysiz. Boya qanday issiq edi. – U Sa'dullaning tirsagidan ushlab oldi va pinjiga kirdi. – Mana bunday qilib panangizda ketaman.

Neon chiroqlar yorug'ida ko'chalar shishadek yaltillaydi, Feruza tuflisining mix poshnasi beton sahnga taq-tuq etib urilar, Sa'dulla xuddi bu tovushlarni sanayotgandek, jim borar edi.

Navoiy ko'chasiga chiqib, O'rda tomonga burildilar.

– Yomg'ir yog'gani yaxshi bo'ldi, havoni tozalaydi. Qarang, qanday maza.

Feruza yosh boladay sevinar, yomg'ir suvini ichmoqchidek, osmonga qarab og'zini ochardi.

– Albatta,— dedi Sa'dulla, — yomg'irga nima yetsin. Butun chang-g'uborlarni yuvib ketadi.

Anhorning ko'prigiga borganda ustlari bo'kkan, hurpayib turgan sochlari allaqachon peshonalariga chippa yopishib qolgan edi. Ammo avtobus yoki taksiga chiqish ikkovining ham xayoliga kelmasdi...

## VI

O'qishlar tugab, yozgi imtihonlar boshlandi. Har kuni qaysidir fandan sinov bo'lardi.

Bunday kunlarda talabalarda uyqu kamayadi. U sessiyadan bu sessiyagacha kitob o'qish, dars tayyorlash uchun hech kim qunt qilmaydi. Ha, hali vaqt bor-ku, degan tushuncha bilan vaqtni o'tkazib yuborishadi. Sessiya boshlangandan so'ng esa hammalari oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab qolishadi.

Bu «kasal»dan Sa'dulla ham forig' emas. Ahvoli doim shu: sinov va imtihonlar qalashib kelganda qaysi fandan tayyorlanishni bilmay boshi qotadi.

Ertaga imtihon edi. Shu sababli kitobga muk tushdi. tushgacha qimirlamay o'qidi, ayrim narsalarni konspekt qildi. Oxiri boshi og'rib, charchab ketdi. Kitoblarni yig'ishtirib stol ustiga irg'itdi.

Karavotga cho'zilib kitob o'qib yotgan hamxonasi Chori ajablandi.

– Ha, jo'ra, – dedi u kulib. – Nima gap, tinchlikmi?

– Bosh arining uyasiday g'uvillab ketdi. Yetar shuncha o'qiganimiz. Yuring, bir ko'chalarni aylanib, kallani shamolatib kelamiz, qolgani kechqurun...

Chori joyidan qimirlamadi.

– Ko'chaga chiqsam bo'lmaydi, jo'ra.

– Nimaga? Biroz dam olib qaytamiz.

– Yo'q, – dedi Chori. – Ko'chaga chiqsak uni ko'ramiz, buni ko'ramiz. Bir krujkadan pivo ichgimiz keladi. Shu bilan qop ketamiz. Ertaga tag'in holimizga maymun yig'lamasin.

Sa'dulla kiyina boshladi.

– Bo'lmasa men ketdim. Sal aylanib kelaman...

– O'zi sizni keyingi paytlarda tushunmay qolyapman, – dedi Chori kitobdan boshini ko'tarmay. – Qandaydir xayolparastsiz, o'n gapirsa, bir gapirmaysiz. Uyda kam o'tirasiz. Nima balo, birontasini topdingizmi yo?

Sa'dulla sir boy bermadi. O'zini xotirjam tutdi.

– Bilmadim, sizga shunday tuyilayotgandir-da... Mayli, bir-ikki soatda qaytaman, – deb chiqib ketdi.

Feruzada avtobusdan tushdi. Telefon-avtomatga kirib raqam terdi. Ayol kishining «Alyo» degan ovozi eshitildi. Sa'dulla bir zum gangib qoldi. Ungacha trubkadan yana «alyo, eshitaman».

O'rdada avtobusdan tushdi. Telefon-avtomatga kirib raqam terdi. Ayol kishining «Alyo» degan ovozi eshitildi. Sa'dulla bir zum gangib qoldi. Ungacha trubkadan yana «alyo, eshitaman».

degan ovoz keldi, «Onasi», dedi ichida, qoni qizib, so'ng o'zini tutib oldi-da, Feruzani so'radi. Baxtiga u uyda ekan...

– Salom, Feruza, bu men...

– Tanidim. Salom, yaxshimisiz?

– Rahmat. O'zingiz qalaysiz? Kechirasiz, agar vaqtingiz bo'lsa ko'chaga chiqmaysizmi? Biroz aylanamiz, balki kinoga tusharmiz.

– Ertaga imtihon-ku.

– Ha, menam biroz o'qidim. Keyin zerikib ko'chaga chiqdim... O'ylab-o'ylab sizga telefon qilyapman. San'at saroyida yaxshi kino ketayotgan ekan.

Feruza biroz jim qoldi.

– Konsultatsiya dedingizmi? Soat nechchida ekan?

Savollar Sa'dullani hayratga soldi. «Konsultatsiya? Tavba!»

– Soat ikkida? Kecha aytishmovdi-ku...

Qizning niyatini Sa'dulla endi tushundi. Biroq o'zi qayerdan qo'ng'iroq qilayotganini aytmedi-ku. Qiz bechora onasining oldida so'rolmayapti.

– Men O'rdadaman, – dedi ovozini sal pasaytirib. – Bekatda kutaman.

– Albatta boraman. Yana imtihonda o'qituvchi konsultatsiyaga kelmading, deb boshni qotirmasin. Telefon qilganingiz uchun rahmat.

Sa'dulla telefon dastagini joyiga ildi-da, qoniqish bilan budkadan chiqdi. Nechundir kulgisi qistar, oyoq olishlari yengil edi. Hamma narsa go'zal, kunning issig'i ham bilinmasdi. «Qancha vaqtda kelar ekan? Uyi yaqin-ku, darrov kelsa kerak...» Soatiga qaradi: bir yarim, ikkigacha keladi. Bekatga bordi. Skameykaga o'tirdi. Ammo uzoq o'tirolmadi. Dorixona tomonga yurdi, orqasiga qaytdi. Aksiga olib gazeta do'konchasi

ham yopiq edi. Ochiq bo'lsa bironta gazetami, jurnalni olib ermak qilardi. Soatga qaradi. Buncha imillaydi-ya? Endi o'n minut o'tibdi.

Bekatdagi skameykaga o'tirdi-da, o'tgan avtobus-trolleybuslarni betoqat sanay boshladi.

Nihoyat, u yengil nafas oldi: navbatdagi trolleybusning oldingi eshigi shundoqqina ro'parasiga to'g'ri keldi va u sharaqlab ochilishi bilan Feruza tushdi.

Feruzaning egnida yupqa shifon ko'ylak, oyog'ida qimmatbaho bejirim sandal. Yelkasiga tushgan qop-qora qalin sochi o'ziga yarashar, bo'yalgan qosh-ko'zlari allanechuk sirli-ishvali edi. Feruza pardoz-andozni joyiga qo'yar, shu bois atir-surmasi, upa-eligu g'ashni keltirmas, aksincha havaslanib, suq bilan boqishga majbur etardi.

– Xo'sh,— dedi Feruza kulib,— konsultatsiya qayerda ekan? Panoramadami? Qaysi mamlakat fanidan bo'larkan? Hindistonmi yoki Italiya?

– Boraylik-chi, bilamiz-da,— uning haziliga hazil bilan javob berdi Sa'dulla.— Qaysi mamlakat fanidan bo'lsayam ko'raveraylik, zarar qilmas. Menimcha, konsultatsiyaga kirishdan avval muzqaymoq yeyish kerak. Kun juda issiq, odam chanqab ketyapti.

– O'sha yerda bordir... San'at saroyi tomon yurishdi.

– Hazil-hazil-ku, ammo ertaga nima qilamiz? — dedi Feruza. — Man hali tuzukroq o'qib chiqolmadim. Tayyor-garlikning mazasi yo'q. Siz-chi?

– Bir gap bo'lar. Shuncha vaqtdan beri topshirib kelyap-miz-ku. Kinodan chiqqandan keyin qolganini o'qib olar-miz. Xohlasangiz birgalikda tayyorlaymiz.

Feruza yalt etib qaradi:

– Nimalar deyapsiz? Kech qolsam, oyim o'ldiradilar. Olti-yettilargacha kelaman, deganman.

– Konsultatsiya cho'zilib ketdi, deysiz. Ikkovi ham kuldi.

– Yo'q,— dedi Feruza,— yolg'on ham evi bilan-da. Oyim hecham ishonmaydilar.

Kino detektiv ekan, huzur qilib ko'rishdi. Feruzani kuzatib qo'yib, yotoqxonaga qaytganida soat sakkizga yaqinlashib qolgandi.

Chori hamon karavotga cho'zilganicha saboq bilan mashg'ul...

– Juda qattiq kirishibsiz-ku,— dedi Sa'dulla.— Shu yotganicha haliyam turmadingizmi? Ertaga beshni qotirarkansiz-da.

– O'zlari bir-ikki soatda kelaman, deb ketuvdilar.

– Ko'chaga chiqqandan keyin bilasiz-ku.

– Nima devdim... Xat keldi sizga.

Sa'dulla stoldan xatni oldi. Xolmatdan ekan. Yuragi shig'illab ketdi.

«Salom, Sa'dulla jo'ra!

O'qishlaring qalay? Toshkent go'zallariga mahliyo bo'lib yuribsanmi?

Jo'ra, bilasan, to'yni avgustga mo'ljallagan edik. Lekin ba'zi sabablarga ko'ra tezlashtirishga to'g'ri kelib qoldi. O'ninchi iyul kuni to'y. To'rt-beshta og'ayning bilan kel...»

Xat davomini o'qiyolmadi. Bo'shshib karavotga o'tirdi. Uning rang-ro'yini ko'rib Chori hayron bo'ldi, hatto qo'rqib ketdi.

– Tinchlikmi, Sa'dulla? Ota-onangiz sog'-omonmikan?

– Tinchlik... — dedi Sa'dulla bazo'r.

Xat sirg'alib qo'lidan tushdi. Chori uni olib o'qidi. Lekin hech narsaga tushunmadi.



– Jo‘rangiz to‘yga taklif qipti... Sa‘dulla portladi.

– Bas!

Ular uch yildan beri bir xonada yashaydi. Hech qachon san-manga borishmagan. Sa‘dulla juda vazmin, bosiq, kechirimli xarakteri bilan Choriga ma‘qul edi. Ko‘pincha unga havasi kelar, har qanday sharoitda o‘zingizni tiya olasiz, deb uning irodasiga tan berardi. Hozir esa... Demak, jiddiy bir gap bor. Shu sabab Chori uning baqirganidan ranjimadi. Xatni stolga qo‘ydi-da, asta karavotiga o‘tirdi. Sa‘dulla kaftlarini yuziga bosdi. A‘zoyi badani titrardi. Xuddi sovuqda junjikkan odamga o‘xshardi. Chori unga taskin berishni, uni ovutishni o‘ylar, ammo bunga ojiz edi. Binobarin, gap nimada ekanligi unga mutlaqo qorong‘i.

Sa‘dulla mast odamday gandraklab o‘rnidan turdi. Nimanidir qidirdi. Chori so‘ramoqchi bo‘ldi, biroq botinolmadi. Sa‘dulla xatni mayda-mayda qilib yirtib tashladi.

– Chori! – dedi keyin do‘stiga qarab. – Araq yo‘qmi? Ichim yonib ketyapti!..

Chori uning yelkasidan quchdi.

– Sa‘dulla, o‘zingizni bosing. Hammasi o‘tib ketadi. O‘zingizni qo‘lga oling. Men sizni taniyolmay qoldim.

– Qanday qilib chidash mumkin axir bunga?! Ozigina aroq topsangiz-chi...

Bunday holda ichkilik odamni tamom g‘ussaga ko‘madi. Buni Chori biladi. Shuning uchun hozir, nima bo‘lganda ham. Sa‘dullani fikridan qaytarish, sovitish kerak.

– Shu sabildan topamiz, mayli. Lekin nima gap o‘zi? Sal tushuntirsangiz-chi, axir.

– Chori! Do‘stim, Salima...

U tutildi, tomog‘iga nimadir tiqildi.

«Salima... Salima buning yaxshi ko'rgan qizi. Ikkovi bir-biriga xat yozishadi. Suratini ham ko'rsatgan menga. Qishloqqa har gal borganida u bilan uchrashadi. Kelib, menga og'zidan moy tomib gapirib beradi... Nima bo'ldi ekan unga? Demak, u boshqa birovga turmushga chiqyapti chog'i. Shu xat yozgan yigit shunga uylanyaptimikan...»

Ana shu mulohazalarni dilidan kechirarkan, Chori yurak yutib dedi:

– Nima, Salima...

– Ha, Salima, Salima o'ldi.. o'ldi... – O'ldi?!

– O'ldi! Yo'q, koshki edi o'lsa. koshki edi...

«Hammasi tushunarli. O'zim o'ylaganim – Salima manovi xatni yozgan yigitga turmushga chiqyapti. Bechora Sa'dulla, og'zidan Salima tushmasdi-ya... Nega bunday bo'ldi ekan? Xatga qaraganda, Xolmat bilan jo'raga o'xshaydi. Dunyoni tushunish qiyin, odam bolasining aqli yetmaydigan ishlar ko'p bu olamda...»

– O'zingizni bosing, Sa'dulla, – dedi Chori. – Hammasi o'tib ketadi. Ko'p kuyunmang, bunaqada sog'ligingizni yo'qotasiz...

O'sha kuni yarim tungacha ikkovi gaplashib yotdi. E-he, nimalar, kimlar haqida suhbat ketmadi. Chori oxiri maqsadga o'tdi.

– Xo'sh, hammasi mayli, ammo Salima bunday qilishining sababi nima? Sizni yaxshi ko'rsa, siz uni yaxshi ko'rsangiz...

Sa'dulla o'ylanib qoldi.

– Aniq sababini bilmayman, – dedi so'ngra. – Har kimning ko'ngli...

– Har holda biron-bir sababi bordir axir.

– Bilasiz, men uch yildan beri Toshkentdaman, onda-sonda bir boraman... U bilan ham kam uchrashamiz, faqat yozishamiz... Xolmat o'sha yerda... Undan keyin, men oddiy bir kolxozchining o'g'liman, Xolmatning otasi rais...

– Shunday demaysizmi... Gap bu yoqda ekan-da.

Og'ir sukunat cho'kdi. Ikkovi ikki karavotda jim yotibdi. Tashqarida shamol esdi. Nimadir taraqlab ketdi. Birozdan so'ng deraza tiqir-tiqir etdi.

Chori yotgan joyida derazaga o'girilib qaradi:

– Yomg'irmi? Iye, yomg'ir yog'yapti... Shu paytdayam yomg'ir yog'adimi... Sa'dulla indamadi. Nazarida, dunyoning ba'zi ishlariga osmon ham chiday olmay dod solar, ko'z yoshi to'kardi... Yomg'ir tezlashdi...

## VI

Kechki payt ekan. Sa'dulla qishloq ustidan o'tadigan yo'ldan qayoqqadir borayotgan emish. Bir mahal oldinda katta daraxt ko'rinipti. Sa'dulla hayron bo'lib qarasa, Salima bilan soyasida uchrashadigani – sadaqayrag'och emish. «Iye, bu qayrag'och boshqa joyda edi-ku, bu yerga qanday qilib kelib qoldi?» deb o'ylapti. Hali o'yi oxiriga yetmasdan qayrag'och tilga kiripti: «Qancha vaqtdan beri seni poylayman. Hech daraging yo'q. Esingdami, huv birda kelib mendan o'pka qilib ketding, ayt, menda nima gunoh bor? Nimaga mendan ranjiysan?.. Mendan xafa bo'lma, bolam...»

Sa'dulla hayratdan yoqa ushlabdi. E, tavba, daraxt ham gapirar ekan-da. «Mana, til-zaboning bor ekan-ku, aytgin edi o'shanga», debdi kuyunib. Shu mahal ro'parasida – daraxt o'rnida bir qiz jonlanipti: sochlari yoyilgan, etaklari keng, oyoqlari uzun-uzun, qo'llari kalta-kalta emish. Sa'dulla

cho'chib ketipti. Qiz esaqovoq solib bunday debdi: «Mana, xatlaring, ol, o'zingga siylov». U bir to'da qog'ozni osmonga sochib yuboribdi. Keyin orqasiga qaramay qochib, qorong'ilik bag'riga singib ketibdi. Sa'dulla uning orqasidan yugurmoqchi bo'пти, ammo oyoqlarini ko'tarolmas emish. Baqirmoqchi bo'пти, ovozi chiqmashish. Bir mahal ichkaridan, zulmat qo'ynidan qichqiriq eshilibdi: «Sa'dulla aka-a-a... Qayerdasiz?..» Sa'dullaham beixtiyor baqirib yuboripti: «Manamen, bu yerdama-an!»

Sa'dulla o'z ovozidan cho'chib uyg'ondi. Yuragi gup-gup urardi. Boshini sal balandroq qo'yib yotdi-da, o'zini bosib olishga, hozirgina ko'rgan tushini eslamaslikka urindi. Stolda turgan soatni olib deraza yorug'iga soldi: o'n minut kam besh. Chori maza qilib uxlayapti. Sa'dulla yana xayolini chalg'itishga, boshqa narsalarni o'ylashga intildi. Ammo o'yi aylana-aylana Salimaga kelib taqalaverdi.

Kechagidek esida, Sa'dulla mandatdan o'tib qishloqqa borgan kunlar edi. Quvonchi ichiga sig'maydi. Yana uchto'rt kundan keyin Toshkentga — o'qishga qaytib ketishi kerak.

U ukasining velosipedini minib qo'shni qishloqdagi jo'rasining oldiga yo'l oldi. Yo'lni qisqartirish niyatida makkajo'xorizor orasidan o'tadigan yolg'izoyoq yo'ldan haydadi.

Shu payt kimningdir «Assalom» degan ovozini eshitdi. U velosiped tormozini bosdi. So'ng atrofga alangladi. Besh-olti qadam narida, makkajo'xori soyasida Salima o'tirardi. Sa'dulla velosipedini yetaklab o'sha tomonga shoshildi.

— Nima qilib yuribsan? — dedi Sa'dulla dabdurustdan.

— Huv, anavi o'tloqda mollarimiz boylovda edi, shularni sug'orib soyaga olib kelyapman. O'zingiz qayerga ketyapsiz? —

Xuddi tandirda non yopayotgandek uning yuzlari qizarib ketgan edi. — Tabriklayman, o'qishga kiribsiz.

— Rahmat... Beshqo'rg'onga boryapman, birovda ishim bor edi. — Sa'dulla tizzalari og'rib o'rnidan turdi.— Menga qara, yur, ichkariroqqa kiraylik, biroz gaplashamiz.

— Qo'ysangiz-chi. Shu yerda gaplashaveramiz. Sa'dulla qizning qo'lidan ushladi.

— Tura qol, bu yer ham issiq, ham bitta-yarimta ko'rib qolsa gapni ko'paytiradi. Bemalol gaplashamiz, seni sog'in-ganman.

— Aldaysiz,—dedi Salima qo'zg'alib.— Hech sog'inganga o'xshamaysiz. Toshkentda chiroyli qizlar ko'pdir...

O'rtada sal ochiqroq joy bor ekan, o'sha yerda to'xtashdi. Sa'dulla kissasidan ro'molchasini olib pushtaga soldi-da, oyoqlarini jo'yak ichiga uzatib o'tirdi. Salima uning yonidan joy oldi.

Makkajo'xori barglari mayin shabadada asta-sekin g'ishil-laydi. E'tibor berib quloq solsa xuddi nola qilayotganga o'xshaydi. Shundaygina tepalarida so'fito'rg'ayning «chiyev-chiyev»lagani eshitildi. Beixtiyor osmonga qarashdi. Lekin so'fito'rg'ay ko'rinmadi.

Shu bir bahona bo'lib, Salima tilga kirdi.

— Qachon ketasiz Toshkentga?

— O'ttiz birinchida, — dedi Sa'dulla.

— Endi shu bilan qachon kelasiz?

— Tez-tez kelib turaman.

Sa'dulla qizning yelkasiga qo'lini tashladi, u qarshilik bildirmadi.

— U yerda har xil xushro'y qizlarni ko'rib, biz qishloqi-larni esdan chiqarib yuborarsiz,— dedi Salima.

Ko'zlar bir-biriga yaqinlashgani sari yurak urishlari tezlashdi. Hozirgina yo'l yoqasida bermalol gaplashayotgan edilar, endi bu yerda – hech kim xalaqit bermaydigan joyda ochilib suhbatlashish qiyin kechmoqda.

– Nimalar deyapsan... – Sa'dullaning ovozi titradi. – Men seni hech kimga almashtirmayman. Seni yaxshi ko'raman, judayam yaxshi ko'raman.

– Rostmi? – dedi Salima noz bilan o'zini orqaga olarkan.

– Istasang qasam ichaman... Sen-chi? Meni kutasanmi?

– Bo'lmasam-chi. Hali besh yil ekan-ku, o'n yil bo'lsayam kutaman. Men sizni...

Qiz gapini oxiriga yetkazolmadi. Sa'dulla uning lablariga lablarini bosdi...

Qattiq-qattiq yo'talib Chori uyg'ondi. Sa'dulla o'zini uxlaganga olib yotdi. Chori soatiga qaradi-da, irg'ib turdi.

– Sa'dulla, o', Sa'dulla, turing jo'ra, kech bo'p ketipti-ku. Tezroq choy-poy ichib, boraylik.

Bugun oxirgi imtihon. Imtihon oluvchi domla shunday injiq, shunday mijg'ovki, butun fakultetni jondan to'ydirgan. Turdiyev desa, hamma bezillaydi. Shuning uchun Chori ham bezovta. Go'yo ertaroq borsa besh qo'yadiganday. Hech qachon bunday bo'lmaydi, lekin har holda Chori shu o'qituvchiga noma'qul ish qilib qo'yishdan cho'chiydi. Kim biladi, imtihondan oldin kim keldi, kim kelmadi, deb surishtirib ko'radimi! Yuqori kursdagilardan bir-ikki marta shunday qilgan ekan. Yo'qlagan paytida bo'lmagan talabani imtihonga kiritmapti. Shuyam ish bo'ldi-yu... O'rgildim kattaligingdan... O'qituvchilar-u talabalar shunday deb yurishadi. Lekin hech kim hech narsa demaydi. Bu injiq to'ram bilan gaplashib,

unga bir narsani tushuntirguncha odamning qon bosimi oshib, infarkt bo'p qolishi hech gapmas.

Chori yuvinib keldi-da, apil-tapil kiyina boshladi. Sa'dulla shiftga termilib yotardi.

– Ha, yotishingiz bemalol, – dedi Chori kulimsirab. – Nima, Turdiyevning o'zi kelib qo'yib beradimi sizga.

Sa'dulla indamadi. Xayoli hamon qishloqda. Bugun to'y. Salima bilan Xolmatning to'yi! Bir tomondan boshi tegir-montoshiday og'ir. Bir oy uxlamagan odamga o'xshaydi. Nuqul g'uvillaydi. Bu ahvolda imtihon topshirib bo'ladi-mi? Yana kimga, Turdiyevga! Sharmandasi chiqib qaytgandan ko'ra bormay qo'ya qolgani ma'qul emasmi? Boshqa kun yo'llanma olib boradi. Kasal edim, deydi. Ammo Turdiyev uncha-muncha gapga ishonishi qiyin. Bir talaba imtihonga kelmapti-da, besh-olti kundan keyin Turdiyevning oldiga kiribdi. «Nega vaqtida kelmading?» desa, «Otam qazo qilib qoldi. Shunga ketuvdim», deпти boyagi yigit yig'idan o'zini bazo'r tiyib. «Otang qazo qildi? Spravkang bormi otang o'lgani to'g'risida?» Talaba dovdirab qopti. Otamning o'lgani to'g'risida kimdir spravka berarkan, men bilmabman, bilganimda albatta olib kelardim, deb o'ylapti bechora. Bu gap butun universitetga tarqab ketgan. Shundan beri qaysi talaba uyidan xabar olib qaytsa, hazil bilan: «Spravka olib keldingmi?»

Oxiri Sa'dulla imtihonga borishga qaror qildi. «Nima bo'lsa bo'lar, tavakkal. Yaxshilab sovuq suvda yuvinib, achchiq ko'k choy ichsam sal yengil tortarman. Borib ko'ray, o'tsam o'tib ketarman, o'tolmasam, keyin bir gap bo'lar».

Na sovuq dush, na achchiq ko'k choy foyda berdi. Lanjligi tarqamadi, boshining lo'qillab og'rishi bosilmadi, kecha

aroqqa bo'kkan odamnikiga o'xshash karaxtligi arimadi. Eng yomoni, xayolini bir zum ham chalg'itolmadi. Miyasini dars, imtihon emas, qishloq, to'y, Salima, Xolmat band etdi. Imtihonga qanday kirgani, Turdiyev nima degani, nechanchi bilet tushgani — hech narsa yodida yo'q. Savdoyi odamday kirdi, savollarga poyintar-soyintar javob berdi. Turdiyev baho qo'ydimi-yo'qmi — qiziqmadi. Sinov daftarchasini cho'nta-giga solib yotoqxonaga yo'l oldi.

Yotoqqa kelib, yechinmay o'zini karavotga tashladi. Ammo yotolmadi. U o'zini qayerga qo'yishni bilmas, hech yerga sig'masdi. Vaqt o'tgani, kech bo'lavergani sari ko'ngli battar g'ashlanar, yuragi qinidan chiqquday gupillab urardi.

Soat oltalarda Chori keldi. Uning kayfi chog', ko'rinishidan a'lo baho olgani ma'lum edi. Sa'dulla uning odatini biladi: faqat besh olgandagina tirjayib yuradi.

Chori xonaga shaxdam kirdi-yu, cho'ntagidan sinov daftarchasini olib, deraza tokchasiga uloqtirdi.

— Ha, Sa'dulla, nechchi bo'ldi?

Sa'dulla indamaganidan, rasvo, degan ma'noda qo'l siltab qo'rganidan Chori hammasini tushundi. Keyin Sa'dullaga dalda berish payiga tushdi.

— Gapni kalta qiling, — dedi Sa'dulla g'ashlanib. — Sizdan iltimos, mana pul, borib yarimta opkeling. — U kissasidan o'n so'm chiqarib tashladi.

Chori avval tixirlik bilan oyoq tiradi, yarimtaga balo bormi. Undan ko'ra imtihon g'amini yeng, deb o'zicha maslahat bergan bo'ldi. Bemavrid maslahatdan Sa'dulla battar tutaqdi, so'ng yalinch ohangida yana iltimos qildi. Axiyri Chori yon berdi, yarim soatlardan keyin bir shisha aroq, ikkita mineral suv, pishirilgan tuxum, to'rtta qovurilgan kotlet, bir



kilocha bodring ko'tarib keldi. Sa'dulla hamon o'sha alpozda cho'zilib yotardi. Quyosh ro'paradagi yotoqxonona binosi orqasiga berkingan, uning nurlari tobora so'nib borardi.

Sa'dulla Chorining yechinishini ham kutmay shishani apiltapil ochdi-da, ikkita stakanga yarimlatib-yarimlatib quydi.

– Qani. oling, Chori, bu dunyoda bevafoqlarning yo'q bo'lishi uchun ichaylik.

U shartta ko'tardi, stakan tagida ozgina aroq qoldi. Chori yarmini ichdi. Mineral suvdan ho'plarkan, Sa'dulla chekayotgan g'ussa sababini tushuna boshladi. Qaysi kungi xat esiga tushdi.

– Ovqatdan oling, Sa'dulla,– dedi u vazminlik bilan. Endi Chorida boyagi kayfiyat yo'q edi. U hamxonasining dili xuftonligi boisini anglagani sari, unga achinar, ammo nima deb taskin berishni bilmasdi.

Sa'dulla yana quydi. U stakanni qo'liga olarkan, Choriga termildi.

– Chori, jo'rajon, bugun to'y... Hozir boshlanadi. Hade-may uni yor-yor aytib olib ketishadi. Endi u yo'q! Salima yo'q!.. – Uning kipriklari namlandi. – Baxtli bo'l, Salima! Sening baxting uchun ichaman!..

U go'yo Chorini unutgandi. O'zi bilan o'zi gaplashardi. Bir zarb bilan ichib yubordi aroqni. Stakanni tars etkazib stolga urdi, stakan chil-chil sindi.

– Sa'dulla, o'zingizni tuting... Biron narsa yeng. Bunaqada kasal bo'p qolasiz.

Sa'dulla o'zini tiyolmadi, butun irodasini, kuch-quvvatini ishga soldi, ammo eplolmadi – yig'lab yubordi.

– Quying...–dedi.

Chori boshqa stakan olib aroq quydi, Sa'dullaning yoniga o'tdi, yelkasiga qo'lini qo'ydi:

– Jon jo‘ra, o‘zingizni bosing. Tegsategipti-da, namuncha ezilmasangiz. Qizning urug‘iga o‘t tushiptimi?

Sa‘dulla aroqni ichib yubordi.

– Jo‘rajon, axir qani va‘da? Besh yil emas, o‘n yil bo‘lsayam kutaman sizni, degandi. Qani lafz? Yana kelib-kelib kimga – o‘zimni jo‘ramga.

Soat o‘n ikkilarda Sa‘dulla sal tinchidi. Charchadi shekilli, oxiri uxlab qoldi.

Bir mahal og‘zi quruqshab uyg‘ondi. Boshi – qovoq. Tanasi – zildek. Choriga qaradi: uxlab yotipti. Asta o‘rnidan turdi. Vodoprovodda yuzini yuvdi. Ikki hovuch suv ichdi. Sal yengil tortdi. Iziga qaytganda Chori soqol olayotgan edi. U sovunni ko‘pirtirar ekan, Sa‘dullaga qarab iljaydi:

– Qalaysiz? Bosh og‘rimayaptimi?

– Yo‘q, – dedi Sa‘dulla astagina. – O‘zingiz qalaysiz?

– Yaxshi. – U chap qo‘li bilan yuzini taranglashtirib, soqolini qirtishladi. – Ko‘chaga chiqamizmi?

– Hushim yo‘qroq...

– Yotib olib xayol suravergan bilan ish bitmaydi, – dedi Chori. U soqol oladigan idishlarini yig‘ishtirdi. – Ko‘chapo‘chada aylanib xayolni chalg‘itish kerak. Yigit degan sal o‘zini qo‘lga ola bilishi lozim. Bu ahvolda qanday yurist bo‘lasiz?

– Nima, yuristlarning qalbi yo‘qmi?

– Qalbi bor, bo‘lishiyam kerak. Ammo iroda-chi? Irodasiz odamning qalbi ham mayda keladi.

Sa‘dulla indamadi. Chori do‘stining ahvolini tushundi, o‘zi kuyib-pishib aytayotgan gaplar uning qulog‘iga bir kirib, bir kirmayotganini ham bildi. «Men nima deyman-u, qo‘bizim

nima deydi» bo'lyapti-ku bu yog'i, deb o'yladi. Shu bois boshqa tiqilinch qilmadi. Shoshilmay kiyindi-da, qandaydir ishi borligini aytib chiqib ketdi.

Nonushtadan keyin Sa'dulla o'ylanib qoldi. Nima qilsin? Universitetga borsinmi, Turdiyev bilan gaplashib ko'rsinmi? Lekin u ko'narmidi, bir narsaga tushunarmidi. Mayli, nima bo'lsayam bugun bormaydi. Biroz o'qiydi, dam oladi. Ertaga borib ko'rinadi. Olsa olar. olmasa kuzda topshiradi-da. Shu bitta imtihon bilan osmon uzilib tushmas!

Ikki-uch bet o'qidi. ammo miyasiga hech narsa kirmadi. Ko'zi harflarni ko'radi-yu, xayoli boshqa yoqda. U darslikni yopdi. Picha xomushlanib o'tirgandan so'ng Indoneziya yozuvchisi Marax Ruslining «Sevgi fojiasi» romanini beixtiyor qo'lga oldi. Bu asarni ilgari o'qigan, juda yoqtirib qolgandi. Shundan beri uni tez-tez varaqlab turadi. Hozir u qaysidir sahifadagi duch kelgan satrlarni o'qiy boshladi: «— Sizning fikr-u dardingiz shu ekan-da,— dedi Sutan Mahmud o'z g'azabini yashirmay. — Qiz nasl-nasabli, baobro' oiladan bo'lsa bas, uni surishtirmay-netmay uylanaversa bo'ladi, shundaymi? Men bo'lak fikrdaman, o'zim sevsam, u ham meni sevsam, har qanaqa qizga uylanishim mumkin. Uning nasl-nasabi qanaqa, o'zi chiroylimi-yo'qmi, boymi, kambag'almi, menga bari bir...»

Eshik taqilladi. Fikri bo'lindi. «Kiravering, eshik ochiq», deya g'udranarkan, yo tavba, hushimi, tushi, ostonada Feruza paydo bo'ldi.

Sa'dulla gangib qoldi. Ochig'i, hozir hammani kutishi mumkin edi, ammo Feruzani sira kutmagandi.

— Bezovta qildim, uzr, — dedi Feruza. Sa'dulla unga kursi qo'yib berdi.

O'tiring, keling... Nega bezovta bo'laman. — U stol ustini yig'ishtira boshladi. — Kechirasiz, hammayoq to'zigan.

— Hechqisi yo'q,— Feruza kursiga omonatgina o'tirdi. U nimadir demoqchi, biroq chaması gapni nimadan boshlashni bilmay qiynalardi.

Sa'dulla battar gangib turardi.

— Men choy qo'yib kelay, — dedi oxiri o'zini sal bosib olgach.

— Yo'q-yo'q,— dedi Feruza shoshib.— Men hozir ketaman. Sizdan bir xabar olay, deb kiruvdim... Shu yotoqxonada bir o'rtog'im turadi, shuning oldiga keluvdim... Kecha nima bo'ldi sizga? Imtihonga borsam, yo'q ekansiz. Birga kiramizmi, deb o'ylovdim. Surishtirsam... ketib qopsiz. Yiqilganingizga hech kimning ishongisi kelmaydi.

— Shunday bo'p qoldi...

Baravar sukut saqlashdi. Sa'dullaning bilagiga pashsha qo'ndi. Shundagina u maykachan ekanligini angladi. Xijolat tortdi. « Kechirasiz» dedi-da, karavotga osig'liq turgan ko'ylagini olib kiydi.

— Umuman, tinchlikmi, o'zi, Sa'dulla, — dedi Feruza.— Negadir keyingi paytlarda juda parishonxotirsiz.

— Unchamasdir,— kuldi Sa'dulla.— Yaxshi keldingiz, zirikib o'tiruvdim, chiqib bir kino ko'rsak...

Taklif Feruzaga ma'qul tushdi. Biroq hamma qizlar qatori u ham o'z maylini darhol oshkor etishni istamadi. Yigit oldiga tushib jo'nay qolmadi, ichida rozi bo'lsa-da, jo'rttaga gapni boshqa tomonga burdi.

Endi qachon topshirasiz imtihonni?

— Bilmadim,— dedi Sa'dulla.— Ertaga uchrashaman, hali topsa bo'lar Turdiyevni?

– To‘rtinchi kursdayam imtihoni bor shekilli. – Chiqamizmi?

Bu gal Sa‘dullaning gapi ancha dadil edi.

– Siz pastga tushavering, men hozir yetib olaman, – dedi Sa‘dulla.

Feruz chiqishi bilan apil-tapil kiyina boshladi.

## VII

Ilgari Sa‘dulla qishloqqa tez-tez borardi. Bir kun-yarim kun darsdan qolsayam iloji boricha ko‘proq yurishga oshiqardi. Keyingi paytlarda kam keladigan odat chiqardi. Kelganda ham ota-onasini, aka-ukalari-yu opalarini ko‘radi-da, dars ko‘p, tezroq borishim kerak, deb jo‘nab qoladi. Bu gal ham shunaqa bahonalarni ro‘kach qildi, hali qorasini ko‘rsatganiga ikki kun bo‘lmasdan yo‘lga otlana boshladi.

– Muncha shoshmasang, – dedi Zarbuvi. – Borasan-da, shu Toshkeningga. Paxtadan keyin besh-olti kun javob bergandir axir. Bizardikiga bormadingam, ilgari bir kunga kel-sangam kirarding.

– Boraman, opa, hozir ishim zaril-da...

– Ha, ertaga ketaykansan-ku, bugun yur, hali kechgacha qancha gap bor, o‘zim kelmasam ko‘rmay ketaveraykansan-da.

Opasi astoydil ranjiganini Sa‘dulla sezdi. Rost-da, nega endi opasinikidan oyog‘ini tortdi? Salima uning qishlog‘iga, erining jiyaniga tushgani uchunmi? Axir opasida ayb nima? Tag‘in ustiga Zarbuvi bechora doim ukam deb, o‘lib-tiriladi.

Opa-uka suhbatiga quloq solib o‘tirgan onaizor gapga aralashdi. O‘shaxtan<sup>1</sup> bitta-yarimtani topganga o‘xshaydi

---

<sup>1</sup> O‘shaxtan – o‘sha yoqdan (*sheva*).

ukang. Hech ota-enam bor demaydi. Bir hushi tovlaganda kep qoladi. Undayam olovga kegapday...

– Yengdingiz. – dedi Sa’dulla opasiga. – Siz borave-ring. Men birpas turib chiqaman. Yildan-yilga o’qish qiyin-lashib ketyapti-da. Shuning uchun hadeb kelaverishning iloji yo’q. Yaqin yo’l bo’lmasa...

Osmonni qop-qora bulut qoplagan. Sovuq. Izg’irin.

Sa’dulla piyoda yo’lga tushdi. Bu havoda velosipedda yurish oson emas. Qo’lni ham, yuz-ko’zni ham izg’irin yalab ketadi. Ammo yayov holda ham sovuq etini junjiktirdi. «Palto kiymay chakki qipman aslida. Bunchalik sovuqligini kim bilipti...» U plashining yoqasini ko’tarib olgan, ikki qo’li cho’n-tagida, ildam odimlaydi.

Opasining qishlog’iga kirish joyda orqasidan bir mashina g’uvillab keldi. U qayrilib ham qaramadi, yo’lning cheti bo’ylab ketaverdi. «Jiguli» undan uch-to’rt qadam o’tib to’xtadi-da, signal berdi. Keyin eshigi ochilib, Xolmat tushdi.

– Sa’dullamisan? Qani, qani...

Sa’dulla Xolmat bilan noiloj quchoqlashib ko’rishdi. Jo’rasi og’zidan aroq hidi gupilladi.

– Qaysi shamol uchirdi? Biz tomonlargayam kelarkan-san-ku, a? O’ziyam ming yil bo’ldi-yov ko’rishmaganimizga. – Xolmat tinmay gapirar, Sa’dulla esa opasidan ranjir edi. – Uylandim – kelmading. farzand ko’rdim – kelmading.

Uning oxirgi gapi Sa’dullaning yuragiga xanjarday botdi.

– Farzand ko’rding?! – deb yubordi beixtiyor.

Bu hayrat sababi Xolmatga tushunarli edi, albatta. Biroq hech narsa bilmaganga oldi o’zini.

– Ha, farzand. O’g’il. Nimaga ajablanasan?

– Shuncha vaqt o’tib ketdimi deyapman-da, – dedi Sa’dulla bo’shashib.

Xolmat uning yelkasiga bir urdi:

– E, jo‘ra, vaqt o‘taveradi-da, qarab o‘tirarmidi. Shuning uchun vaqtida harakat qilish kerak. Bu dunyoda o‘limdan boshqa hamma narsaning erta bo‘lgani durust, qani, o‘tir mashinaga.

– Rahmat, jo‘ra. Men opamlarni bir ko‘rib ketay, deb kelyapman. Darrov qaytaman, ishim zaril. Ertaga barvaqt yo‘lga chiqishim kerak.

Xolmat uni mashina tomon sudradi.

– Bir piyola choy ichib ketasan. O‘zim eltib qo‘yaman. Sa‘dulla unamadi. Jo‘rasi uyiga qadam bosish, hatto ostonasiga yo‘lash unga cheksiz azob edi. Axir Salimani ko‘rsa ko‘ksidagi yara ko‘zi boshqatdan ochilmaydimi? Qolaversa, Xolmat bu ahvolda hala-hulaga uni qo‘yib yubormaydi. Aroqni oldiga olib ezilib o‘tiradi. Bunga hozir toqati ham yo‘q, imkoni ham.

– Ha, bo‘pti, o‘tir, tog‘amlarnikiga eltib qo‘yaman.

– Yo‘q,— dedi uzib Sa‘dulla,— o‘zi ikki qadam joy-ku, nimasiga moshinga chiqib o‘tiran.

Xolmat mashinaga gaz berdi. Sa‘dulla og‘ir qadamlar bilan yo‘lida davom etdi. «Kelmay desam, opamning dili og‘riydi, kelsam — mana bunaqa... Ko‘nglim sezuvdi o‘zi... Hali pochchamnikiga borib boshni qotirmasaydi. Tezroq turish kerak bo‘ladi».

Pochchasi hali ishdan kelmagan ekan, opasi, jiyarlari bilan biroz gurunglashib o‘tirdi. Opam to‘ydan, Salimadan gap ochib qolarmikan, deb kutdi. Hatto o‘zi so‘rash uchun bir-ikki og‘iz juftladi. U o‘g‘il ko‘rgani haqida o‘ylaganda allanechuk g‘ashlandi. Zarbuvi esa nimalarni gapirmadi, biroq Salima, Xolmat xususida churq etmadi.

– Men turay endi, opa,– dedi Sa’dulla.– Kech bo’p qoldi.

– Shoshma, borasan-da. Pochchang kesin, eshitsa xafa bo’ladi.

– Sizam qiziqsiz-a, opa, – biroz jahli chiqdi.– Bu yerda Aliqul pochchamni kutsam, u yerda Eshmat pochchamni kutsam, tog’amni kutsam... Axir umrim kutish bilan o’tib ketadi-ku.

Zarbuvi ukasidagi tajanglik boisini ozmi-ko’pmi tushundi, bu ketishda butunlay o’zini oldirib qo’yadi-ku, degan o’yga bordi.

– Muncha kuyunmasang, – dedi u tovushini ko’tarib.– Boshqaga tegsa tegipti-da. O’zingni o’tga-suvga urganing bilan ish chiqadimi? Unday qizga uylanmaganingga shukr qilsang-chi! Ana, to’ydan keyin uch oy o’tar-o’tmas... ko’payishdi. Sharmandalik! Uyalmaydियam. Beti qursin-ey.

Sa’dulla o’yga cho’mdi.

– Demak, to’y shu uchun tezlashgan ekan-da,– dedi oxiri.

– Bo’lmasam-chi. Sal kechiksa, ena-bola qilib yetaklab kelaydi-da... Rais bilan opam sho’rlikning ham yuzi shuvit. El ustida yurgan odam. Odamlar gapirmay qo’yadimi. «Ana, raisning kelini javpazak chiqib qoldi. Chillasi chiqib-chiqmay beshik quchoqlab o’tiripti» deganlar qancha... Shuning uchun, bir tomondan, undan qutulganingga shukr qil. Juda xotinsiz qop ketmassan.

«Men sizga xotinsiz qop ketaman, deyaпmanmi? Qayoqdagi gaplarni o’ylab topasiz-a... Shunchalar osonmi turmush qurish? Bugun birovga va’da berib, erta boshqaga turmushga chiqib ketaveradimi? Kinolarda ko’rsak, kitoblarda o’qisak, ishonmaymiz...»

Darvoza tarafdан kimdir tovush berdi. «Birov chaqiryapti, qaray-chi», deb Zarbuvi o’rnidan turdi. Zarbuvi dahlizdagi kalishini kiyib tashqari chiqquncha tovush egasi – Xolmat ayvonga kirib keldi.



Sa'dulla uning ovozini eshitib, kayfiyati battar buzildi. «Obbo, tezroq turay dedim-a. Opam ham ezmalik qilib, tutib qoldi. Endi toza boshni qotiradi...»

Xolmat dahliz eshigidan ichkariga mo'raladi. Sa'dulla baland qilib qo'yilgan yostiqaqqa yonboshlagan edi.

– Qani bo'l, – dedi buyruq ohangida. – Ketskik. Jo'navoringmi, deb xavotirda edim. Xayriyat, shu yerda ekansan.

Endi Xolmatning kayfi taraqq edi. Eshik yondariga suyangancha chayqalib turardi.

– Xolmat, boya hamma gapni tushuntirdim-ku. Boshqa safar...

– Uyga bormasang borma, – dedi Xolmat keskin. – Ilon ko'rgansan-ku biznikida. Na to'yga kelasan, na azaga. Choyxonada besh-olti jo'ralar to'planib o'tirishihti. Seni kelganingni aytuvdim, obke deb meni yuborishdi. Muncha o'zingni laliga solding.

Xolmatning kesatig'i Sa'dullaga botdi: «Ey, borsam boray, ertaga ketmasam, indin ketarman Toshkentga. Buning shunaqa vijirlashiga toqat qilib o'tiramanmi...» Shu fikrlar xayolidan kechdi-yu, o'tirgan joyidan sakrab turdi.

– Buncha aljiraysan?! – Sa'dulla Xolmat tomon bostirib kela boshladi. – Nima uchun sening uyingda ilon ko'rar ekanman. To'g'ri gapni aytsa boshqa tomonga burasan.

Zarbuvi ukasining tahdidli ovozini eshitib, cho'chib ketdi. Urishib qolishmasa go'rga edi. Birovi kayf bilan, birovi alamzada...

– Shu yerda otamlashib o'tira qolinglar, – dedi Zarbuvi yuragini hovuchlab, – hademay tog'angiz ham keladi. Sovuqda yurasizlarmi ko'chada tentirab.

Sa'dulla Xolmatning eshikni quloqlab turgan qo'lini siltab tashlab dahlizga chiqdi. Shatir-shutur tuflisini kiydi-da:

– Qani, bo‘l! Yurmaysanmi, – dedi. Xolmat Zarbuvida yuzlandi:

– Do‘g‘i baland-ku, bu prokurorning. – Keyin Sa‘dulla-ga dedi: – Sal sekinroq-sekinroq, qozi bova.

– Ko‘p kechga qomay kelinglar, men kutib o‘tiraman, – dedi Zarbuvi.

– Men shu yoqdan ketaman, – dedi Sa‘dulla.

Choyxonada ancha o‘tirib qolishdi.

Qish kuni bir tutam emasmi, allaqachon qorong‘ilik quyushib, tamomi borliqni o‘z komiga tortgan edi. Ustiga-ustak, yomg‘ir betinim quymoqda. Hammayoq bilch-bilch loy...

Sa‘dulla soatiga qaradi, o‘n bir. U birdan sergak tortdi.

– Endi turaylik, jo‘ralar, – dedi u. – Yoki sizlar bemalol gurungni davom ettiringlar-u menga ruxsat beringlar.

Kayfi oshgan ulfatlar javob qilamizmi-yo‘qmi, degan masala ustida rosa talashib-tortishishdi. Lekin bir to‘xtamga kelishlari qiyin bo‘ldi. Oxiri maza-matrasiz bahsni Xolmat yakunladi.

– Endi hech qayoqqa bormaysan. Birinchidan, kech. yomg‘ir quyayapti. Ikkinchidan, yangamga va‘da berib keldik. Uchinchidan, bugun biznikiga borasan, gaplashib yotamiz. ertalab o‘zim moshinda tashlab kelaman.

Bu gapni hamma ma‘qulladi. Ammo Sa‘dulla ularnikiga borishni sira istamasdi.

– E-e, rosa hasratlashdik-ku, – dedi Sa‘dulla. – Kech bo‘lganda uydagilarni bezovta qilishning nima keragi bor.

Xolmat uning gapini kesdi:

– Bezovta-mezovtasi yo‘q. Shaharcha sipolikni qo‘y. Xotinning vazifasi erni, uning mehmonini kutish.

Xayolida Salima jonlandi. «Xotinning vazifasi erni kutish. uning mehmonini kutish». Demak, erta-yu kech, xohlagan

paytida u mehmon yetaklab kelaveradi. Xotin, ya'ni Salima uning mehmonlarini kutadi, kutishga majbur. Eh, Salima, Salima...»

Ichilgan araq ta'sir etdimi, shu topda negadir u Salimaga achindi, da'atan uni ko'rishni, loaqal bir bora ko'rgisi keldi.

– Qani, turaylik-chi, bir gap bo'lar, – dedi u keskin.

Hamma gurr etib o'rnidan turdi. Ko'chaga chiqishdi. Yomg'ir hamon sharillatib quyardi.

Ulfatlar choyxona peshayvoni tagida to'xtashdi. Ayvon burchidagi katta lampochka yorug'ida yomg'ir ko'lmakchalari jimirlab ko'rinadi. Buning ustiga tog' tomondan shamol ham esardi.

– Yomg'ir degan shamolsiz yog'sa-da, – dedi yigitlardan biri.

– Senga yoqmasligini bilmagan-da, bilsa-ku, shamolga aytardi-ya, sen jim turgin, deb.

Hazilga hamma kuldi. Faqat Sa'dulla qovoq ochmadi. Chunki u ham shamol bilan yoqqan yomg'irni, umuman shamolni yoqtirmasdi.

– Qani, ketdik, – dedi Xolmat. – O'tiravergan bilan bari bir hali-beri tinmaydi. Yog'sa yog'ipti-da, birpasda yetib olamiz, ustimizni almashtiramiz.

– Sa'dulla-chi? – dedi boya hazil qilgan yigit.

– Bitta Sa'dullaga yarasha kiyim topilar, – dedi Xolmat. – Ertalabgacha qurib qoladi.

– Opam xavotir oladi-ku.

– E, yosh bolamiding, sendan xavotir olsa. Juda yo'q desang, birontasini yuboramiz, borib tinchitib keladi.

Sharillatib quyayotgan yomg'irda jadal yurib ketishdi. Yuz qadam yurar-yurmas ust-boshlari bo'kdi. Sa'dulla hatto badani-

ga nam o'tganini tuydi. Tufllisining sog' joyi qolmadi – loyga botdi. Indamay ketaverdi. Hozir ko'ziga kiyimining ho'lligi ham, tufllisining bulg'angani ham ko'rinmasdi. Xayolidan Salimaning bo'y-basti jilmasdi. «O'zgarib ketgandir. Axir bolasi bor...» Buni o'ylashga o'yladi-yu, ammo o'z o'yiga o'zi uncha ishonmadi. Salimaning bolasi bor? Yo'g'-ey, axir u yoshgina qiz-ku. Nazarida Xolmatning xotini o'sha o'zi bilgan, o'ziga xat yozib, men sizni kutaman, besh yil ekan-ku, o'n yil ham kutaman, degan Salima emas, boshqa, mutlaqo boshqa Salima edi. Koshki shunday bo'lsa. Shunday emasligini Sa'dulla biladi, biladi-yu... E, falak! Bun-chalar beshafqat o'yinlaring bor!

Manzilga yetib kelishganda suvga tushgan mushukday dil-dirab qolishgan edi. Darvozadan o'tib, sayixsona orqali peshayvonga chiqishdi. Qator qilib solingan uylardan birining eshigini ochib, avval Xolmatning o'zi kirdi, chiroqni yoqib, uni ham ichkariga chorladi.

– Qani, kir... Sandalga olov solganmikan. – U sandal ko'rparasini ko'tarib ko'rdi. – Borakan, issiq.

Sa'dulla tufllisini ayvonda qoldirib, ichkariga kirdi-da, shalabbo plashini yechdi.

– Bu yoqqa o't,— dedi Xolmat.— Manavi yostiqaqqa yonboshlab oyog'ingni sandalga tiq. Men Salimaga aytay, choy qo'ysin.

Halidan beri xayolida aylanayotgan nomni eshitishi bilan Sa'dullaning yuragi jizillab ketdi.

– Nima qilasan choyni, qo'y, ovora qilma. Xolmat uning gapiga e'tibor bermadi.

Odam o'tirmagani uchunmi uy birmuncha sovuq ekan. Sa'dulla oyog'ini sandalga tiqdi. «Mehmon keladi, deb aytib qo'ygan chog'i, olov solib qo'yiпти-ku».

Ayvonda ayol kishi shivirladi: «O‘zingiz olib kiravering, men nima qilaman...» Xolmat g‘udrandi: «Qishloqdoshingdanam uyalasanmi? Begonalarning oldiga kirasan-ku. Kirib salomlashmasang odamgarchilikdan emas. To‘ydayam kemagan...»

Sa‘dulla beixtiyor o‘rnidan turib ketdi. «Yo, tavba, tortin-yaptimi? Men-chi, men uning yuziga qanday qarayman? Uyalmaymanmi? Ammo nega men uyalishim kerak?»

Oldin Xolmat, orqasidan Salima kirdi.

– Sendan qochyapti. Qara-ya! Iye, nimaga qoqqan qoziqday qaqqayib turibsan, o‘tir.

Salima, boshida ro‘mol, kelinsalom qilayotgandek qaddini salgina egib olgan edi. Sa‘dulla unga bir qaradi, qaradi-yu, ko‘z o‘ngi jimirladi. Uning salomini ham eshitmadi. Sandal atrofiga qalastirib qo‘yilgan yostiqlarga suyangancha o‘tirib qolganini o‘zi ham sezmedi. Bu harakatini Xolmat o‘z «buyrug‘i» ijrosi deb tushundi. Salima shart o‘girilib chiqib ketdi. Sa‘dullaning yurak torlarini chertib, yo‘q, zirillatib g‘oyib bo‘ldi. Bari bir lahzada, tushda ko‘rganday tez kechdi.

Salima boshqa kirmadi. Non-choyni, ovqatni Xolmatning o‘zi dovdirab-sovdirab keltirdi. Koshki Sa‘dullaning tomog‘idan hozir taom o‘tsa. Bir-ikki piyola choy ichdi, xolos.

Boya Salimani ko‘rishni istagan edi. Endi esa, Salimani ko‘rgandan so‘ng bu ishidan pushaymon chekdi. «Nima keragi bor edi? Bitayotgan yarani tirnaganday, o‘chayotgan olovga kerosin sepganday bo‘ldi-ku. E, bandai ojiz, nahotki o‘zingni o‘zing idora qilolmasang...» Hammasi yaramas aroqning ishi. Agar shu savilni ichmaganida bu xonadonga sira qadam bosmasdi.

Xolmat allanimalarni gapirar, uning bironta ham gapi Sa'dullaning qulog'iga kirmasdi. U ixtiyorsiz ravishda choy ho'plardi.

– Choyga yopishaverma. Manovini olsang-chi.

Xolmat piyolani oxirigacha bo'shatgan. Sa'dulla bir ho'plab qo'ygan edi. Xolmat yana ichdi-da, gazak ham qilmay, boshini sandalga qo'ydi. Birpasdan keyin u pishillab uxlab qoldi.

Sa'dulla Xolmatni sekingina yonboshiga yotqizdi, taxmondan ko'rpa olib uning ustiga yopdi. Dasturxonni o'rab qo'ydi-da, o'zi ham ko'rpa yopinib, oyog'ini sandalga uzatdi.

Charchoq, sovuq va yomg'irdan so'ng issiq uy, sandal, nihoyat, ichkilik – hammasi qo'shilib tan-jonini elitdi. Bir on ichida ko'zi ilindi.

Xo'rozning cho'ziq-cho'ziq qichqirishidan uyg'ondi. Tura solib Xolmat yotgan joyga qaradi. Mezbon ko'rinmadi. Tong otipti. Apil-tapil kiyindi.

Ko'zlari qizarib, qovoqlari shishgan holda Xolmat iljayib kirdi. Aft-angorida allanechuk xijolat akslangan edi.

– Juda sharmandalik bo'пти-ku,— dedi u uzr ohangida... Mehmonga joy ham solib bermapmiz. Tarashaday qotib qopmiz.

– Qiziqmisan,— dedi Sa'dulla.— Mehmoni bor ekanmi. Bu uyda senam, menam mehmon emasmiz.

– Shunday bo'sayam-da.

– Zarari yo'q, tashvishlanma. Men turay endi, kech bo'p ketmasin.

– Shoshilma. Bir piyoladan choy ichaylik, hozir qatiqli kesgan osh obkeladi. Shundan bir kosadan ichsak bosh og'rig'idan nom-nishon qolmaydi.

Dasturxonga fotiha o'qildi. Sa'dulla ayvonga chiqib, tuflisini kiyaman desa, yaltirab turibdi. Kecha tanib bo'lmasdi,

qulog'igachaloy edi.«Demak, Salimayuvib, tozalab qo'yi-  
ti-da...» Xolmat Salimani chaqirdi.

– Sa'dulla ketayapti, xayrlashmaysanmi?

Sa'dulla «qo'yaver, shart emas», demoqchi bo'ldi, biroq  
tili bormadi. Kim biladi, qanday tushunadi.

Salima kechagidek boshini xam qilib keldi-da, salom-  
lashdi, so'ng horg'in bir tovushda xo'shlashdi. Na iloj, Sa'-  
dulla ham ming azob bilan xayrlashdi, xayrlasharkan, chin-  
dan yarasi yangilangandek edi...

## VIII

Qizi bor uy eshigining turumiga to'zim bersin...

Olim Akbarovich uyining eshigi yo'q deganda haftada bir  
begona odam tomonidan ochiladi. U, kim bo'lmasin, bu  
xonadondan tarvuzi qo'ltig'idan tushib qaytadi. Eshikni ta-  
g'in ochishga yuragi betlamaydi. Kimsan, Olim Akbarovich –  
vazir o'rinbosari. Asli uncha-muncha odam botinib kelol-  
maydi ham...

Bu hol Feruza o'ninchini bitirgandan boshlandi. Eh-he,  
kimlardan kelishmadi, magazin mudiridan tortib, olim-u  
yozuvchigacha u kishi bilan quda bo'lishni orzu qildi. Biroq  
hammaning xohishi bir sari, yolg'iz Feruzaning xohishi bir  
sari bo'ldi. «Yo'q, erga tegmayman hali», degan qisqa ja-  
vobni ko'ndalang qilaverdi.

Oyisi bechora qancha yalindi: «Ha, xo'p, birov senga  
hozir erga tegasan, deyayotgani yo'q-ku. Avval yigitning rang-  
ro'yini ko'r, ko'nglini bil, keyin bir gap bo'lar», Feruza oyi-  
sining iltimosini eshitishni ham istamaydi. «Yo'q, dedimmi,  
yo'q. Javobini berib yuboravering».

Ona avvaliga «qizimiz hali yosh, o'qishni bitirsin», deb o'zini ovutdi. Mana, diplomini olishiga ham ozgina qoldi. Lekin ahvol o'sha – hamon sarkashlik qiladi.

Feruzani erka deyish noto'g'ri. Ammo na oyisi, na dadasi uning gapini qaytara oladi. Ayniqsa, bir safar yomon bo'ldi. Feruza to'rtinchi kursda o'qirdi o'shanda. Mahalladosh bir aspirant yigitdan sovchi keldi. Olim Akbarovich ham. Muazzam opa ham yigitning ota-onasini yaxshi taniydi: ko'p bama'ni, oqil odamlar. Er-xotin maslahatlashib rozilik berdilar. «Ha, endi Feruza yo'q deyveradi. Qiz bola qachon, mayli, shunga tegaman degan. Uyaladi-da. O'zining yigiti bo'lganda aytardi». Xullas, unashtirish rasm-rusumi boshlandi. Feruza o'qishdan kelib ko'rsaki, uyda begona ayollar, oyisi, xolasining harakatlari boshqacha. Yuragi shuvillab oyisiga ola qaradi:

– Tinchlikmi?

Tovushi keskin chiqdi. Muazzam opa shoshib qoldi. Xolasi gapni ilib ketdi. Endi, qizim, dunyoning ishi shunaqa. Ertami-kechmi, bari bir...

– Yo'q! – deb Feruza xolasini qayirib tashladi. – Bo'lmaydi, to'xtating!

Onaizor bo'zardi, yuragi uvishib, a'zoyi badani bo'shshadi. Tili kalimaga kelmadi. Xayriyat, singlisi shu yerda ekan. Yana o'sha joniga ora kirdi.

– Feruza! Jon qizim, gapni eshitgin. Endi to'xtatish uyat. Oying bilan dadangni yuzini yerga qaratma...

– Yo to'xtating, yoki bu uydan men chiqib ketaman.

Feruza shunday deb hovliga o'tdi. Beton yo'lakka baland poshnalarini qarsillatib darvoza tomonga yurdi. Mehmonlar o'tirgan uy darvozaning ro'parasida, havo issiq bo'lgani uchun derazalar ochiq, eshikdan kim kirib, kim chiqqani ularga shundoq ko'rinib turardi. Feruza orqasidan bиров



quvayotganday shaxdam yurib bordi-da, darvozani shunday taraqlatib yoptiki. sovchi xotinlar cho'chib tushishdi.

Opa-singil bir-biriga hangu mang bo'lib tikildi. Muazzam opa qizining odatini bilgani uchun xayoli ming tomonga ketdi. Singlisi tasalli berdi.

– Qo'ying, opa, tashvish tortmang. Qayoqqa borardi, keladi-da. Qiz bolaning shunday bo'lgani tuzuk. Sovchilar oldida choy damlab yuradiganlardan asrasin...

Yo'q, Muazzam opaning singlisi yanglishdi: Feruza qaytib kelmadi. O'sha kuni ham, ertasi ham, indin ham... Bunggacha Muazzam opa bilan Olim Akbarovich o'zidan o'tganini o'zi biladi. Birovga aytguligi yo'q – sharmandalik. Borishi mumkin bo'lgan joyining hammasini surishtirib ko'rishdi, lekin Feruzadan darak yo'q. Er-xotin kechasi bilan uxlamay uf tortib chiqadi. Aksiga olganday o'sha kezlari Olim Akbarovichning ishxonasiga yuqoridan komissiya kelgan. Ishda yarim kechagacha qolib ketadi.

Axiri to'rtinchi kun deganda Feruza kirib keldi. Ona bechora quvonganidan o'zini tashlavorishiga sal qoldi. Yotoqxonada turadigan dugonasining oldiga ketgan ekan...

Shu-shu to'y haqida, turmush haqida Muazzam opa ham, Olim Akbarovich ham Feruzaga qo'rqib-qo'rqib gapirishadi.

Bir kuni ona-bola o'zlari gurunglashib o'tirishgan edi. Muazzam opa yarim hazil, yarim chin qilib qizidan so'radi:

– Feruza, manga rostini ayt, o'shanda nega yo'q, deding? Nega qochib ketding? U yigitning nimasi yoqmasi sanga? Ko'rinishi tuppa-tuzuk, esli-hushli, mo'min-qobil, aspirant...

– Rostini aytaymi, – dedi Feruza ham onasiga tik qarab, – uning ana shu mo'min-qobilligi yoqmaydi. Aslida bu mo'min-qobillik emas, landavurlik. Aspirant deysiz, lekin go'dakdan farqi yo'q, onasining chizig'idan chiqmaydi. Doim

onasiga ergashib yuradi... Axir u qanday qilib oila boshlig'i bo'ladi?

Muazzam opa qizining mulohazasini ichida ma'qulladi. Faqat unga sir boy bermadi. Birozdan keyin ta'naomuz dedi:

– Xo'p, san istaganday yigitni qayerdan, qachon topamiz?

– Sizga og'irligim tushyaptimi, oyi! Shu uydan chiqib ketsam qutulamanmi? – dedi Feruza jahl bilan.

Muazzam opa qo'rqib ketdi. Qizi yana yo'qolib qoladiganday unga yopishdi.

– Jon qizim, jahling chiqmasin, man bilan adangni qiynama. Sandan boshqa suyanganimiz yo'q. Yoshing o'tyapti, nevara ko'rsak, degan orzumiz bor, axir.

Feruza oyisiga achindi, rahmi keldi. Ammo o'z fikridan qaytmadi.

– Xafa bo'lmang, oyijon, vaqt-soati keladi o'zi.

Undan keyin ham ancha-muncha sovchilar kelishdi. Qani endi xo'p deya qolsa.

Oxiri Feruza talabgorlari siyraklashdi. Muazzam opa ichidan zil ketdi, lekin hech kinga bildirmaydi. Hatto eriga ham aytolmaydi. Feruzaning esa parvoyi palak. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin-da...

Bugun yakshanba, nonushtadan keyin Olim Akbarovich kiyina boshladi.

– Ha,– dedi Muazzam opa.– Yo'l bo'lsin?

– Bir-ikkita ko'riladigan obyektlar bor. Peshingacha shularni bir aylanib kelay.

Olim Akbarovich chiqib ketdi, Feruza xonasiga o'tdi. Anchadan beri diplom ishi yozish bilan mashg'ul edi. Ertadan kechgacha kitoblarga ko'milib o'tiradi.

Muazzam opa u yoq-bu yoqni yig'ishtirdi. Televizor qo'ydi-da, divanga yonboshlab biroz tomosha qildi. Yolg'iz

o'zi zerikdi. Bir bozorga tushib chiqsammikan, degan xayol bilan o'rnidan turdi, televizorni o'chirdi.

Qo'ng'iroq jiringladi. Muazzam opa darvozani ochdi. Ikki erkak, ikki ayol – hammasi begona. Ayollar qo'lida tugun.

– Assalomu alaykum, – dedi ayollardan biri. – Feruzalarning uyi shumi?

Muazzam opa shoshib qoldi. «Kim bo'ldi ekan bular?»

– Shu, shu... Kiringlar, marhamat.

Notanish mehmonlar ichkariga kirishdi. Muazzam opa ularni o'tqizdi-yu, Feruzaning oldiga shoshildi.

– Kim bular?

Feruz kuldi, kulib, yelka qisdi.

– Bilmasam...

Necha marta sovchi kelgan bo'lsa Feruz biron marta kulish u yoqda tursin, hatto qovog'ini ochmagan. Buni oyisi yaxshi biladi. Demak, bir sir-u sinoat bor.

– Xo'p, deyinmi?

Feruz javobni qisqa qildi.

– O'zingiz bilasiz...

Tur o'rningdan, choy qo'y, xolangga telefon qil, darrov pochchang bilan yetib kelishsin. Aksiga olib adang ishga ketgan-a.

Muazzam opa mehmonlar oldiga qaytdi. Feruz kitobni shartta yopdi-da, duch kelgan tomonga otdi, sakrab turdi. Qo'shiq aytgisi kelar, dili hayajonda edi...

Xolasi bilan pochchasi keldi, oradan ko'p o'tmay Olim Akbarovich ham yetib kela qoldi. Hammalari qo'shni xonaga to'planishdi. Muazzam opa vaziyatni tushuntirdi.

– Bular o'zi kim, qayerdan ekan? So'rab bildingizmi? – dedi Olim Akbarovich xotiniga.

– So‘radim, o‘g‘li Feruza bilan birga o‘qirkan. O‘zlari Samarqandning qaysidir tumanidan ekan.

– Obbo,— dedi xolasi burnini jiyirib,— endi kunimiz qishloqma-qishloq, chang bosib o‘tarkan-da. Qancha odamlardan, qanday yaxshi joylardan sovchi keluvdi, hammasiga yo‘q deb, endi... Tanlab-tanlab tozisiga uchrapti, degani shu-da.

Zildek sukunat cho‘kdi.

– Siz nima deysiz, boja? – dedi Olim Akbarovich.— Har holda vrachsiz, turli odamlar bilan uchrashgansiz...

– Manimcha, shoshilmaslik kerak,— dedi boja mulohazakorlik bilan. – Biz ularni yaxshi tanimasak, bilmasak, surishtirib ko‘raylik. Toshkanlik bo‘lsa boshqa gap edi.

Bu gap Olim Akbarovichning hamiyatiga tegdi. Lekin sir boy bermadi.

– Surishtirishning ziyoni yo‘q, albatta, – dedi Olim Akbarovich, – umr savdosi-da. Lekin gap boshqa yoqda, boja. Odamning yaxshi-yomonligi uning qayerdan ekanligiga bog‘liq emas. Yaxshi-yomon odamlar hamma joyda ham bor.

Olim Akbarovich ota-onasini ko‘rmagan, eslayolmaydi, bolalar uyida tarbiyalangan. Avlod-ajdodi asli qayerlik ekanini u o‘ylab ham ko‘rmagan. Shu bois u ba‘zilarga o‘xshab guzar talashmaydi. Unga bironing qayerdan ekanligi ahamiyatsiz. Shundanmi, ayrim o‘rtoqlari «Sen kosmopolitsan», deb unga hazillashadilar. Buni bojasi ham biladi. Hozirgi gapini ham o‘sha ohangda tushundi-da, biroz jahli chiqdi.

– U holda bu yerda to‘planib, tortishib o‘tirishimizning nima keragi bor? Feruzaning o‘zi javobini berib yuboraversin-da.

Bojasi ranjiganini Olim Akbarovich sezdi. O‘ziga qolsa-ku uni sira chaqirmasdi. Biron-bir masalada ochiq-oydin

maslahat yoki yordam berganini bilmaydi. Xotini esa doim «kuyovni ham chaqiraylik», deb ming'irlashini qo'ymaydi.

– Har holda maslahatlashganimiz tuzuk-da, boja,– dedi Olim Akbarovich sal past tushib.

– Shuning uchun shoshilmaylik, deyaptilar-da, – Feruzaning xolasi erining yonini oldi.

– Yana bir kelarsizlar, ungacha biz qarindosh-urug'lar bilan maslahatlashib qo'yamiz. Keyin aniq bir gap aytarmiz, deymiz-da, bo'lmasa, – dedi Muazzam opa, keyin singlisiga buyurdi: – Feruzani chaqir.

Feruzani kirdi. Xulosani uzuq-yuluq qilib aytishdi.

– Xo'sh, nima deysan shu gappa, qizim? – dedi Olim Akbarovich. Rangi o'chinqiragan Feruza hammani zimdan kuzatdi. Dadasi, oyisi, xolasi uning og'ziga termilib turar, faqat pochchasi yerga qarab o'tirardi. Xulosa shuniki ekanligini Feruza sezdi. Pochchasi uni bir jiyaniga mo'ljallab yurardi. Ilgariroq xolasi shunga shama ham qiluvdi. Ammo Feruza eshitmaganga olgan edi.

– Oyi,– dedi Feruza onasiga qisib-qimtingan holda, – bular narigi ko'chada yoki qo'shni mahallada turishmaydi. Hadeb kelaverishga ilojlari yo'q.

Pochchasi boshini ko'tarib g'uldiradi:

– Demak...

– Ha,– dedi Feruza keskin. – Shunday! Xo'sh, nimani surishtirib ko'rasizlar? Ada, sizga avlod-ajdodida sudlangan odam yo'qligi. pochcha, sizga sog'ligi haqida spravka keltirib bersa bo'ladimi? Sizga-chi, xola, qanaqa spravka kerak?

Davra ahli dovdirdi, endi hech biri miq etolmay qoldi. «Demak, hammasi tushunarli», deb o'yladi Olim Akbarovich. Muazzam opa esa qizining yana yo'qolib qolishini o'ylab jovdirar edi.

Mehmonlarni kechga tomon Olim Akbarovichning mashinasida kuzatib qo'yishdi...

\* \* \*

Feruzalarnikida bo'lgan ana shu majlisdan bir necha kun oldin Sa'dulla qishlog'iga borgan, niyati xolis sovchilarni o'zi shaharga boshlab kelgan, o'zi ularga yo'l ko'rsatib yuborgan edi. Chindan qishloqqa bu galgi tashrifi xosiyatli bo'ldi. Kelganini eshitib, kechqurun opalari, pochchalari, amaki-yu tog'alari yig'ilishdi. Miriqib gurunglashdilar. Har biri Sa'dulla bilan dardlashishga orzumand, ammo hammasi anchagacha o'z hasratini supra qilib yoyish-u bir-biridan o'pka-gina qilishdan bo'shamadi. Hatto Sa'dullaning bor-yo'qligi eslaridan chiqib qolganday edi.

Bir mahal. Sa'dullaga ko'zi tushib qoldi chog'i, tog'asi dedi:

– Ey, jiyan, bulardiki har doim bir xil qo'shiq. Sen gapir. Toshkenlarda nima gaplar bor. Obodmi?

Sa'dulla kulib qo'ydi.

– Rost, boyadan beri eski maqolimizni aytib yotippiz-a, – dedi brigadir amakisi. – Senam indamay o'tiribsan, Sa'dulla. Zerikib ketding-ov!

– Yo'q, zerikkanim yo'q, – dedi Sa'dulla. Aslida zerikish u yoqda tursin ichi tors yorilguday bo'lib ketgan, ammo tishini tishiga bosib o'tirardi. Bois – bularning gapi, garchi umuman olganda bu mashmashalar Sa'dulla uchun begona bo'lmasa-da, har qalay hozir unga unchalik qizig'i ham yo'q edi.

Deraza tagida yonboshlagan mo'ylovdor pochchasi suhbatga aralashdi:

– O'qishingizam tugay deb qoldi shekilli. Endi, nasib etsa, ish qayerda bo'ladi?

Sa'dulla chordona qurib o'tirardi. Oyoqlari uvishib qolgan, uzatib yuborgisi kelar, lekin iloji yo'q edi.

– Hozircha aniq emas, – dedi u. – Lekin aspiranturada qolish niyatim bor.

– Aspiranturasi nima? – deb so‘radi keksaroq pochchasi.

– O‘qish-da, – dedi tog‘asi bilimdonlik qilib. – Olim bo‘lish uchun o‘qiydi.

– Shuncha o‘qiganing bas-da, biz hali kerilib yuribmiz. Sa‘dulla tumanga sudmi, prokurormi bo‘p keladi, deb.

Amakisi mo‘ljalini mo‘ylovdor pochchasi ham ma‘qulladi.

– Bu kishi to‘g‘ri aytadilar, iloji bo‘lsa shunday qilish kerak. Tumanga sudmi, prokurormi bo‘p kesangiz, bizargayam yaxshi-da.

Shu ko‘yi suhbat rovi-ravishi sudu prokuror va ularning to‘g‘ri-noto‘g‘ri ishlari xususida ketdi. Biri aytgan fikrni ikkinchisi rad etadi, unisi o‘zinikini isbotlashga tirishadi, bunisi yo‘q yerdan g‘alva chiqarmoqchi bo‘ladi. Xullas, o‘zlari uchun qilcha ahamiyatsiz masalalar ustida tortishib o‘tirishdi. Yana, avvalgidek, Sa‘dulla bir chekkada qolib ketdi.

Soat o‘n ikkidan oshganda tog‘asi «Ha-a, endi turaylik-ey, vaqt ham ancha bo‘p qopti», dedi. Bemalolliги, ichining kengligi bilan butun qishloqqa nom chiqargan keksa pochchasi «Nimasi kech? Birpas gurunglashaylik, boramiz-da, tun uzoq», dedi. Biroq uning taklifi o‘tmadi. Hamma baravar o‘rnidan turdi. Sa‘dullaning akasi «O‘tiringizlar, ha, borasizlar-da», desa ham hech kim quloq solmadi. «Ey, bularda sabr-toqat bormi, birpas bir joyda bemalol gaplashib o‘tirolmaydi», dedi pochchasi. Hamma kulib yubordi. «Sizga qolsa ertalabgacha o‘tirasiz ezilib», dedi tog‘asi...

Davra tarqab, xonaga sukunat cho‘kdi.

Otasi to‘rda yostiqqa suyanganча, oq oralagan soqolini silab, xayol surib o‘tiribdi. Ko‘rinishidan nimadir demoqchi,

ammo gapni nimadan boshlashni bilmay mulohaza yuritayotganga o'xshardi.

– Joy solib beray bo'lmasa, – dedi onasi jimlikni buzib. Otasi bu gapni go'yo eshitmadi, o'zining muddaosiga ko'chdi.

– Xo'sh, ulim, – dedi salmoq bilan. – O'qishing ham tugay, deb qopti. Bu, endi boshni ikki qilsak.

Sa'dulla avval indamadi, birozdan so'ng astagina:

– O'qish tamom bo'lsin-chi, keyin ko'rarmiz, – dedi.

– O'qisham bo'laveradi, – gapga aralashdi akasi. – Ozgina qopti buyog'i.

– Yigitning boshi ikki bo'lmaguncha moli ikki bo'lmas, deydilar. Sen tengilarning oldi bola ko'rdi. Qishlog'imizda yaxshi-yaxshi qizlar birin-ketin chiqib ketishyapti.

Otasi hamon o'sha alpozda o'tirar, savoliga o'g'lidan javob kutardi.

– Bu yoqda ukalaringni bo'yi yetib kelyapti, – dedi otasi tag'in salmoqlab. – Birini uylash, birini turmushga uzatish kerak. Ularning yo'lini qachongacha to'sasan?

Sa'dulla o'yga toldi. Nazarida vaziyat keskin, ayni chog'da o'zi istagan holda edi. Rostdan ham qadrdonlariga aytmasa dardini kimga aytadi? Hozir ayni mavridi, qolaversa, otanasini ham tushunishi kerak. O'g'li bor odamning ko'zi qizlarda bo'ladi-da. Bas hammasini ochiq-oydin aytadi. Bular ham shunga yarasha ish qilishadi... Lekin otasi ko'narmikan? Enasi-ku indamas-ov, ammo otasi... Shaharlik oytovoqni boshingga urasanmi, desa-chi? Lekin boshqa iloj yo'q.

U o'ylab-o'ylab bir qarorga keldi – ko'nglini yordi.

Shu asno har kim o'z xayoli bilan qoldi. U zimdan avval otasini, keyin onasi bilan akasini kuzatdi. Chehralaridan ular ko'nglini, fikrini bilmoqni mo'ljalladi. Akasi beparvoroq edi,



onasi yuzida qanday bo'larkin, degan shubha zuhurlandi, ammo otasining ko'nglini anglash – qorong'i uyga bosh suqishday gap edi.

Sukunatni onasi buzdi:

– Ota-enasi bormi, nima ish qiladi?

Otasining xayolida ham shu savol charx urayotgan ekan chog'i, yalt etib Sa'dullaga qaradi.

– Bor ota-enasi... Enasi bog'chada ishlaydi... – Otasi-chi?

– Otasi bir xizmatchi-da...

Akasi indamadi, biroq otasi unga o'tkir tikildi. – Nima ish qilishini bilasanmi o'zi? Bu savolga aniq javob bermaslikning iloji yo'q edi.

– Ha,– dedi Sa'dulla,– zamministr.

– Zamministr?

Akasining hayrati sababi quvonchmi yoki hadikmi – Sa'dulla bilolmadi.

– Zamministr degani ministr muovini? – dedi otasi.

– Ha-a...

– Juda katta odamagan-ku,– dedi onasi astagina. Otasi luqma tashladi.

– Osilsang baland dorga osil-da.

Sa'dulla bir qadar injildi. Yer ostida ilon qimirlasa biladigan otasi buni sezdi, miyig'ida kuldi. Har holda u past-u balandni osongina ilg'ardi. Mana shu fazilatidan yaxshi voqif odamlar uni «Uyda o'tirib osmondan o'tgan turnaning yoshini, huv lalmiga qo'ngan qush rangini aytib beradi», deb hazillashardi.

– Ota-enasi ko'namakan? – dedi akasi o'ychan, – bizar oddiy kolxozchi odamlar bo'lsak.

Onaizor ichiga g'ulu tushdi. Axir, azaldan uning bitta-yu bitta tilagi shuki, suyumli o'g'li yoniga kelsa!..

– Unga uylansang qishloqqa kemaysan-da. Oltiboy bova-ning uliyam shahardan uylanib qop ketgan-ku.

Sa'dulla bir narsa deyishga o'zini o'ylab ko'rmagan ekan. U kimga uylanishidan qat'i nazar, aspiranturaga kirish, ilmiy ish qilish niyatida edi. Biron joyda sudmi, prokurormi bo'lib ishlashga negadir yuragi chopmaydi. Ayni chog'da onasining savolidan keyin tashvishlandi. Tushunarli, mabodo shaharda qolsa, baxti chopib Feruzaga uylansa, buni albatta shu voqeaga bog'lashadi. Ajab emaski, qaynotasi tufayli shaharga o'rnatildi, deguvchilar ham topilsa!

– Ko'ramiz-da, ena, non-nasiba, taqdir biladi,— dedi o'ychan holda.— Bordi-yu aspiranturaga kirsam, unda... bir-ikki yil...

Otasi soqolini silagan ko'yi yer ostidan Sa'dullaga tundra boqdi. Bu qarashdan Sa'dulla ko'p ma'no uqdi: «Kelib bo'psan, bu yoqqa. Xotin degani ko'p shirin-da, uning izmidan chiqish oson emas...»

– Qayerda bo'lsang ham ishqilib omon bo'l,— dedi oxiri otasi bafurja.— Ollodan so'raydiganimiz faqat shu — tanijonlaring sog' bo'lsa bas. Bizar och qolayotganimiz yo'q, ustiboshimiz but. Xudoga shukr, akang, opalaring bor. Amakilaring, tog'alaring yonimizda. Bu yog'idan ko'nglingni alag'da qilma. Faqat o'zlaring yaxshi tursalaring, biz borganimizda bir og'iz shirin so'zlaringni ayamasalaring bas. Lekin o'zingga ehtiyot bo'l, ishingga pishiq bo'l, ko'ringan odamning gapiga kirib, lallayib yurma. Yigit degani sal keskir bo'lishi kerak, qadamidan o't chaqnamagan yigitning yigitligi bir pul... Qani, endi yotinglar. Ertaga bu yo'lga chiqadi, dam osin...

## IX

Iliq may kunlari. Dov-daraxtlar, yo'lkalar, xiyobonlar ko'm-ko'k. Tungi yomg'irdan so'ng havo buloq suviday toza. Simirib to'ymaydi kishi. Daraxt barglariga, jonli to'siqlarga, xiyobondagi turfa gullarga ilinib qolgan tomchi quyoshning zarrin nurlarida olmosdek yaltiraydi.

Afsonalardagi qasrni eslatuvchi bekatga kirib kelgan elektrichka chuqur nafas olib to'xtadi. Qator eshiklar baravariga shig'illab ochildi. Sa'dulla «qasr»ning chap tarafiga – eskalator tomon yurdi. Shovillab otilayotgan favvoralar oldiga chiqdi. Sa'dulla ro'parada to'xtab, bir zum yengil nafas oldi. Beto'xtov sachrayotgan kumush tomchilar yuziga urilib kayfiyatini ko'tardi.

U maydon sari yurdi. Tevarakka fayz bergan turfa gullarini tomosha qilib zavqi toshdi. Beixtiyor xirgoyi qilib yubordi: «Mana, bugun navro'zi olam, yo'llaringga gullar to'kaman. Qaylardasan, sevikli erkam, qo'limda gul, seni kutaman...» Yaqinida kimlardir qiqirlab kuldi. Yalt etib o'ngga qaradi. Yo'lak chetidagi skameykada o'tirgan yigit-qiz peshonasini peshonasiga qo'yib piqirlashardi.

Xiyobon etakrog'ida nari-beri ohista yurayotgan Feruzaga ko'zi tushdi. Sergak tortib soatiga qaradi: o'n ikkidan o'n minut o'tibdi.

– Endi o'zimniki bo'ldi, kechikib borsam ham kutaveradi, dedingizmi,– dedi Feruza salom-alikdan keyin kulib.

– Hali qayoqda? Dadangiz bilan oyingiz ko'nishmapti-ku.

– Hech-da,– Feruzaning chiroyli ko'zlari suzildi.– Ko'nishmasa, patir sindirisharmidi.

Anhor sohili bo'ylab «Paxtakor» stadioni tomon yurishdi. Ular oldinlari har uchrashganda albatta kinoga kirishardi. Bu

safar na unisining, na bunisining xayoliga kino keldi. Ikkovi ham sovcilik hangomasi to'g'risida gaplashishni istardi. Ckameykaga o'tirishdi. Unga qariroq daraxt soya tashlagan edi. To'yni buncha kechga belgilashibdi, — dedi Sa'dulla. — O'rtada iyun-iyul bor hali. Avgust-a.

— Bir oy oldin-keyinidamas gap. Boshqa masala chiqib turibdi. Sa'dulla qizga ajablanib qaradi.

— Xo'sh?

— To'ydan keyin qayerda yashashimiz adamlani qattiq tashvishga solyapti. Qayerda turamiz o'zi? Yotoqxonadami? — deb kuldi Feruza.

— Nega endi yotoqxonada bo'lar ekan, ijaraga bironta hovli-povli topamiz. Keyin men ishga kiraman, siz ishlaysiz. Yo mening, yo sizning ishxonamizdan kvartira berib qolar. Ijarada turuvchilar ozmi?!

Feruza anhor sathiga termildi. Sa'dullaning gapini tinglar-kan, dadasi qanchalar kuyib-pishganini esladi. «Bir jihati adamlar haq. Dang'illama hovli huvillab yotsa-yu, biz birovning qosh-qovog'iga qarab ijarada tursak... Adamlar aytganlariday, birga yashayversak nima qiladi?» Ko'nglidan kechgan bu fikrlarni Sa'dullaga qay yo'sinda aytishni bilmay g'ashlandi.

— Ijarada qiynalib qolaman, deyapsizmi? — dedi Sa'dulla.

— Gap qiynalish-qiynalmaslikda emas, — Feruza oqimdan ko'z uzgisi kelmasdi, — u yoqda katta hovlida adam bilan oyim yolg'iz o'tirishsa-yu, biz kimlarningdir eshigida ko'rpa-to'shak ko'tarib yursak... Eshitgan quloqqayam erish tuyiladi-da.

Ajabo, Feruza ne muddaoda? Buncha ehtiyotkorlik bilan nimaga shama qilyapti? Nahotki, uni... Yo'q, unga yo'l qo'ymaydi. Aslo!

— Fikringizga yaxshi tushunmadim, Feruza?

Feruza Sa'dullaning jahli chiqqanini sezdi. Ilgaridan uning odatini yaxshi biladi: birovga qaramlikni, kimningdir oldida tili qisiq bo'lib qolishni istamaydi... Shu bois Feruza gap ohangini sal yumshatishga urindi.

– Man hammasini tushunaman. Faqat adamlani gaplarini aytyapman, xolos... Chindan ham yo sizning, yo mening ishxonamdan kvartira berar, shungacha...

Sa'dulla bari bir sal dag'allik qildi.

– Kechirasiz, Feruza, shu haqda boshqa gaplashmaylik. Bilasiz, ichim tangroq, u yerda turolmayman. Ichkuyov – kuchuk kuyov, deydilar.

Shu bilan bahs nihoya topdi.

Shomgacha aylanishdi, turli mavzuda suhbatlashishdi, shirin orzular, o'ylar... qanday yoqimli! Biroq tip-tiniq osmonda ahyon-ahyonda bir burda qora bulut ko'rinib qolganidek, goh yigitning, goh qizniig esiga boyagi masala – ijarada yashash tashvishi tushar, shunda birdan tablari xira tortar edi.

Uchrashuvdan so'ng ular doim bir joyda – qo'sh qavatli g'ishtin maktab orqasida xayr-xo'sh qilishar edi. O'sha manzilga yetib kelishganda vaqt shomdan oqqan, sharq tomondan yap-yangi laganday yarqirab oy chiqmoqda edi. «Oy shom yebdi-da», deb xayolidan kechirdi Sa'dulla.

– Xayr,– dedi Feruza astagina.

Sa'dulla xayrlashmoq uchun qo'lini uzatdi. Feruza ham. Sa'dulla qiz kaftini kaftiga bosib, chaqnayotgan ko'zlariga termildi. Momiqday yumshoq qo'lni qo'yib yubormadi. So'ng uni asta o'ziga tortdi. Ilgari Sa'dulla salgina shunday harakat qilsa, albatta keskin rad javobi olar edi. Bugun Sa'dulla hech bir qarshilik sezmedi. Qizni yana yaqinroq tortdi. Ko'zlar hamon bir-biriga qadalgan, lablar unsiz, yuraklar gup-gup urardi. Axiri

ko'zlari bir-birini ko'rmay qoldi. Beun, lekin intizor lablar bir-biriga chippa yopishdi...

Olam bir nuqtaga jo bo'ldi. Ular ham shu sirli nuqtaga singidi. Tanlarini ilohiy bir sarxushlik chulg'agan mahalda shundoqqina yonginalaridan sayoq bir mushuk miyovlagan-cha jonholatda chopib o'tdi. Yigit ham, qiz ham beixtiyor o'zini orqaga oldi. Hatto Feruza yoqasini ko'tarib tufladi.

Mushuk ko'zdan yo'qolib, atrofga jimlik cho'kkandan so'ng ikkalovi ham baravariga qah-qah urib kulib yuborishdi...

\* \* \*

To'y «Zarafshon» restoranida o'tdi. Kimlar kelmadi-yu, kimlar nutq so'zlamadi. Nutqlar, hamdu-sanolarning asosiy qismi Olim Akborovichga qaratildi. U kishining odamshavandaligi, ishbilarmonligi, uddaburonligi, ko'ngli ochiqligi, mehribonligi – xullas, o'zida bor-yo'q barcha xislatlari qayta-qayta tilga olindi. Notiqning deyarli hammasi o'z so'zini «Mana shunday olijanob odamgina mana shunday ajoyib to'y qilishi mumkin, xolos», deb tugatdi. Olim Akbarovich muhtasham zalning bir chekkasida, o'n-o'n besh kishi quroshvida savlat to'kib o'tirardi, ko'rinishidan bu maqtovlardan huzur qilardi.

Sa'dulla barini sezdi, har kalomga e'tibor berdi, Biroq nima deya olardi. Ba'zi qitmir o'rtoqlari erta «Sening to'ying bo'ldimi yoki Olim Akbaroviching yubileyimi?» deb kesatishini o'ylab ichidan zil edi. Asta Feruzaga qaradi. U oppoq harir liboslarga burkanib o'tirar, boshini quyi egib, ko'zini bir nuqtadan olmasdi.

To'y boshqaruvchi mikrofon orqali jarangdor ovozda e'lon qildi: «Endi so'z kuyovimizning qadrdon do'sti, kursdoshi

Chori Egamovga». Tabriklovchilar uchun mo'ljallangan ikkinchi mikrofon Choriga tutqazildi.

– Men Olim Akbarovichning yaxshi odamligiga shubha qilmayman. Lekin bu yerda asosiy gap kelin-kuyov, ya'ni mening kursdoshlarim – Sa'dulla bilan Feruzaxon haqida borishi kerak, deb o'ylayman.

Chori bir zum to'xtab qoldi. Goh u stoldan, goh bu stoldan «Kayfi oshib qopti», «Yiqilib tushmasa edi», «Bunaqalarni sayratib qo'yishning nima keragi bor edi», degan luqmalar yangradi. Pichinglarni Sa'dulla bilan Feruza ham eshitdi. Sa'dulla butun vujudini ko'zga aylantirib Choriga tikildi. Kayfi oshganligini sezmad, u bilan besh yil bir xonada yashadi-ku. Uncha-munchaga mast bo'ladiganlardan emas, keyin u me'yorini, o'zini qayerda qanday tutishni biladi.

– Men Sa'dullaniyam, Feruzaniyam besh yildan beri bilanman,— deb so'zini davom ettirdi Chori.— Ikkovi bir-biriga juda munosib. O'ylaymanki, bular hamma havas qilsa, o'mak olsa arzigulik oila quradilar. Oilada baxtli odam hamma joyda, hamisha baxtli degan ekan buyuk yozuvchilardan biri. Men Sa'dulla bilan Feruzaga faxrlanishga arzigulik oilaviy baxt istayman.

U o'tirmasdan qadah ko'tardi...

Soat o'n ikkidan oshganda to'y oxirladi...

Sal avval Olim Akbarovich bilan Muazzam opa qattiq turib olishdi: «Hech qursa biron hafta shu yerda turinglar. Restorandan chiqib birovning hovlisiga borish eshitgan qulog'-u ko'rgan ko'zga xunuk. Keyin bir gap bo'lar, chiqib ketarsizlar kvartiraga...» Feruza yo'q deya olmadi. Ota-onasi istagini yotig'i bilan Sa'dullaga ham tushuntirdi. «Bir haftagina... Keyin bizni hech kim tutib turolmaydi». Sa'dulla ko'p andishalarga borib, ko'ndi.

Mana, endi oson tob tashlaganiga pushaymon...

Restoran eshigidan sal nariroqda qantarirli mashinaga o'tirishayotganda kimningdir «Iye, ichkuyovmi?» degan o'tkir savoli qulog'iga chalindi va yuragini xanjarday teshib o'tdi. Lekin hozir unga dodini ayolmaydi, ahvolini tushuntirmaydi. To'y chog'ida kelin-kuyov na yaxshi gapga, na yomon gapga qo'shiladi, to'g'rimi yoki noto'g'rimi, indamay eshitib o'tiraveradi. Nega ular to'y davomida og'ziga tolqon solganday jim o'tirishi kerak! Unga-bunga qarayverish ham odobdan emasmish. E, o'rgildim bunday odobdan? Nomi odob-u asli o'zi qolip-ku! Hamma o'ynab-kulsa, qahqahlashib o'tirsa, yeb-ichsa mayli. lekin shu tantanalarga sababchilar hatto ortiqcha kulishi ham mumkin emas emish. Kim o'ylab topgan bu qonunni? Qaysi dononing kigiz kitobidan chiqqan?

Agar istihola qilishga majbur bo'lmasa hozir Sa'dulla haligi kishiga boplab javob berardi: «Iye, aka, nima deyapsiz? Ichkuyovlikka da'voyim yo'q aslo. Feruzaning ota-onasi ko'ngliga qarab uch-to'rt kungina turmoq uchun boryapman. Aslida eski shahardan ijaraga uy topib qo'yanman. Uch yuz so'm berib remont ham qildirganman», der edi. Bu gaplar ichida qat-qat taxlangan ko'yi mashinaga o'tirdi. Shovqin-suron, qiy-chuv, baqiriq-chaqiriqlar ostida mashinalar karvoni yo'lga tushdi...

Olim Akbarovichning mo'ljali bo'lakcha edi. U avvaliga bir hafta deb, keyin yana muhlatni uzaytirmoqchi, shunday qilib asta-sekin qizi bilan kuyovini batamom o'z hovlisida olib qolmoqchi edi. Bu fikri qisman Muazzam opaga ayon, ammo boshqalarga qorong'i, tanish-bilish, qarindosh-urug'lar hafta-o'n kunda ko'chib ketisharmish, deb yurardi.

Sa'dulla uchun esa o'sha bir hafta ham ming azobda kechdi. Buning ustiga hali ishga tushmagandi. Ertadan kechga-



cha bekor. Qaynotasi-ku o'z yumushi bilan mashg'ul, biroq qaynonasi ta'tilda, kunbo'yi uning yuziga termilib o'tiraverish – kuyov uchun bundan ortiq jazo bormi? Qafasdagi bedana ham Sa'dulladan erkinroq sezsa kerak o'zini.

U ikki kun uyda o'tirdi. Uchinchi kun nonushtadan keyin kiyina boshladi.

– Ha, – dedi Feruza. – Yo'l bo'lsin?

– Bir aylanib kelay, yuragim siqilib ketdi.

– Man bilan zerikyapsizmi? Sa'dulla Feruzaning ko'zlaridan o'pdi;

– Siz bilan hech qachon zerikmayman, jonim. Lekin bu yerda qandaydir noqulay. Tezroq ko'chib keta qolaylik.

Sa'dulla ko'chaga chiqdi. Boradigan joyi notayin. Yotoqxonaga boray desa, hozir kim bor u yerda. Hamma ta'tilda.

O'ylab-o'ylab Eski shaharga – kvartirasiga bordi. Hovli to'zib yotibdi. «Kampir ham anchadan beri yo'qmi, deymanda. Egasizday bo'p qopti». O'ng tomondagi ikki xonali uy derazalarini ochib, havosini almashtirdi, o'tirib sigaret chekdi. Keyin yechinib u yoq-bu yoqni tartibga soldi, rezina ichakni vodoprovodga ulab shilqillatib suv sepdi. Axlatlarni bir chekkaga uyib qo'ydi. Muzday suvda yuvindi-da. ichkari kirib karavotga cho'zildi.

Keyingi uch-to'rt kun ichida birinchi marta miriqib uxladi.

Ammo bir payt bosriqdi. Va hadeb kulimsirayotgan Salimaga ro'para bo'ldi. Salimani ko'rmaganiga ikki yildan oshdiyov. Hech xayoliga kelmagan, fikr-yodi boshqa narsalar bilan band bir kunda tushida bezovta qilsa... Yana qanaqa holda deng – ikkovi oqshom chog'i qayrag'och ostidagi suvi qurib qolgan hovuz ichiga kirib, butalar panasiga bekinib uning

sochlarini silab, yuz-ko'zlaridan o'parmish. Salima hech qarshilik ko'rsatmas, Sa'dullaning quchog'iga battar singib borar emish. Yolg'izoyoq yo'ldan oyoq tovushi eshitilibdi. Feruza emish. Sa'dulla qotib qopti. Salima: «Ha, tortib olganing yetmaganday, shu yerdayam hozir bo'ldingmi?» Feruza yig'lab chopib ketibdi. Sa'dulla: «Feruza! To'xtang, Feruza!» ortidan yuguribdi.

O'z ovozidan cho'chib uyg'ondi. O'rnidan turib, xomushlangancha oyog'ini karavotga osiltirib o'tirdi. G'alati tushni o'yladi. Biron-bir ma'no topolmadi. «Ey, tush-da, shungayam bosh qotirib o'tiribmanmi. Nimalar kirmaydi tushga...» Hovliga chiqib yuvindi. «Endi borish kerak. Feruzayam zerikib o'tirgandir».

Sa'dulla istar-istamas qaytib kelganda Olim Akbarovich hovlidagi kresloda yastanib o'tirgancha jurnal varaqlar, Muazzam opa esa televizor tomosha qilardi.

– Keling, o'g'lim,— dedi Olim Akbarovich bosiqlik bilan. Sa'dulla rahmat aytib kursiga o'tirdi. Allanarsalar haqida ezmalangan ko'yi Muazzam opa dasturxon yozdi. Feruza chinni kosalarda sho'rva suzib keldi. Gangur-gungur suhbat ustida bafurja ovqatlanishdi. Dasturxonga fotiha o'qilgandan so'ng qaynotasi nechundir to'ydan gap ochdi.

Xo'sh, to'ydan xursandmisizlar? — deb so'radi salmoqlab, tabassum bilan.— Yo kamchilik bo'ldimi?

– Yo'q,— dedi Feruza astagina.

«Siz qanday fikrda?» deganday Olim Akbarovich Sa'dullaga qaradi. Sal xijolat chekkan Sa'dulla hammasi joyida ekanligiga ishora qilib bosh irg'adi.

– Qarindosh-urug'laringiz, o'rtoqlaringiz molodes ekan, juda yaxshi xizmat qilishdi, azamatlar.

Olim Akbarovich chertib-chertib, dona-dona qilib gapirardi. U ellik beshda, lekin yoshiga qaraganda qariroq ko'rinadi. Sababki, to'ng'ich o'g'li vafot etgandan keyin birdan o'zini oldirib qo'ygan. Sho'rlik yigitchani o'n yasharligida ko'chaga o'ynab chiqqanda mashina urib ketgan ekan. Bu fojia Olim Akbarovichdan ham ko'ra Muazzam opani ko'proq qaritib yuborgan. Garchi sochlari oqargan, ko'rgan odam oltmishdan oshgan xayol qilsa-da, Olim Akbarovichning gaplari o'ktam, harakatlari chaqqon, yuzlaridan doim qon tomib turardi. Basavlat gavdasiga kulrang kostum shunday yarashadi, shunday ko'rk va salobat bag'ishlaydiki, unchamuncha odam uning oldida so'zidan adashib, dovdirab qoladi.

– Ha, aytganday, – dedi Olim Akbarovich, bir narsa esiga tushganday sergak tortib. – To'y kuni so'zga chiqqan o'rtog'ingiz qayerdan, o'g'lim? Otini nima deyishdi?

Chori, – dedi Sa'dulla ajablanib. – Egamov, Surxondaryodan.

– Sal mahmadonaroq yigitmi, deyman-da.

Sa'dulla yelka qisdi. Uning o'rniga Feruza javob berdi.

– Yo'q, unaqamas. Juda yaxshi bola.

Olim Akbarovich qiziga qarab kinoyali kuldi.

– He, qizim. sen odamlarni qayoqdan bilasan. Odam olasi ichida, deydilar.

Qadrdon jo'rasi shaniga aytilgan bu gap Sa'dullaning izzatiga tegdi. Ammo betga chopgani jur'at etmadi. Bir tomoni yangi kuyov...

– Yo'q, – dedi sekin, – Chori unaqalardan emas, Feruza to'g'ri aytadi, u juda yaxshi yigit. Og'ir-vazmin, mulohazali.

Sa'dulla tovushini ko'tarmadi, biroq hayajonlangani, qaysidir darajada qizishgani so'zlash ohangidan sezildi. Buni Olim Akbarovich fahmladi, lekin bilmaganga oldi.

– Unday bo'lsa tuzuk, – dedi salmoqlab.

Olim Akbarovich Chorini nega surishtirayotgani xususida hozir Sa'dulla o'ylab ham o'tirmadi. Betizgin xayolida boshqa mulohaza charx urar, shuni qaynotasiga qanday aytish yo'lini qidirardi.

Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Televizorda paxtakorlarga bag'ishlangan ko'rsatuv tugab, «Anna Karenina» kinosi boshlandi. Qachonlardir romanni o'qigan edi, da'atan uning ilk jumlasini esladi: «Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, baxtsiz oilalarning esa har biri o'zicha baxtsizdir».

– Siz ko'rasizmi kinoni?

Sa'dulla qaynotasi savoliga mujmalroq javob berdi. Olim Akbarovich «Bo'pti, men dam olaman, sizlar tomosha qilinglar», deb o'rnidan turmoqchi edi, Sa'dulla so'z qotdi.

– Olim Akbarovich, – u bir necha marta dada deyishni mo'ljalladi, ammo sira tili bormadi. – Siz bilan... maslahat qilmoqchi edim.

Faqat Olim Akbarovich emas, Muazzam opa bilan Feruza ham Sa'dullaga yuzlandi.

– Xo'sh, o'g'lim, eshitaman.

– Agar ruxsat bersangiz, biz ertami-indinmi...

Sa'dulla fikrini oxiriga yetkazmasdan Olim Akbarovich barini tushundi. Va kuyovini shartta siltab tashladiki, o'tkir oybolta tol xivichni kesib tushganday bo'ldi.

– Nima, bu yer sizga yoqmayaptimi?

– Gap unda emas... Sizlarni hadeb bezovta qilishning nima keragi bor. Siz ko'chadan charchab kelasiz. Uning ustiga hademay men ham, Feruza ham ishga tushamiz. Shuning uchun vaqt borida ko'chib, joylashib olsak, deb o'ylagandim.

Olim Akbarovich kresloga yastangan ko'yi sukutga toldi. Sa'dulla sabrsizlik bilan javob kutardi.

– Umuman men qarshi emasman,— endi Olim Akbarovich boya dag'allik qilgan odamga sira o'xshamas, tovushi muloyimlashib qolgan edi.

– Lekin, menga qolsa, hozircha shoshilmaganlaring tuzuk. Qani avval ishni boshlanglar, og'ir-yengilga ko'nikinglar. Keyin men o'zim o'rtoqlarga aytib kvartira to'g'rilatib beraman. Birovning eshigida sig'indiday bo'lib yurish... Mening qizim bilan kuyovim shunaqa holda yursa uyat-ku... Ungacha shu yerda bemalol turaveringlar. Bu hovlini, bu uylarni biz nima qilamiz. – U turfa gullar bo'yiga ko'milgan keng hovliga, qator uylarga ishora qildi. – Kim sizlarga xalaqit beradi?

– Hammasi to'g'ri, Olim Akbarovich, biroq o'zingizdan qolar gap yo'q...

Olim Akbarovich og'ir qo'zg'aldi.

– Yaxshi, o'ylab ko'raylik. Hali vaqt bor shekilli. Qovog'idan qor yog'ilganicha u xobgohga yo'naldi. Hamma gapdan voqif bo'lgan Muazzam opa bilan Feruza miq etmay o'tirishar, ataylab televizorga termilib olishgan edi.

O'sha kechasi Sa'dulla Feruzaning og'zini poyladi. Dadasini bilan bo'lgan suhbat haqida o'z fikrini bildirar, deb o'yladi. Lekin Feruza lab yormadi...

Olim Akbarovichning biroz tundlashgan qiyofasi ham, Muazzam opaning goh yalinib-yolvorishlari, goho achchiqtiziq gaplari ham Sa'dullaning ko'nglini yumshatmadi, uni fikridan qaytarolmadi. O'sha suhbatdan so'ng oradan besh kun o'tgach, ular ijaraga chiqib ketishdi.

\* \* \*

Ijarada yashash — osonmas. Taqdirning bu azobi nimeligini boshidan o'tkazgan biladi. Uy egasi sal insofliroq bo'lsaku, bir navi-ya, ammo shallaqisiga yo'liqsang rasvo-da!

Qarangki, ular xuddi shunaqasiga – yetmishdan oshgan ezma kampirga duchor bo‘lishdi.

Ana-mana deguncha oradan to‘rt oy o‘tdi. Lekin to‘rt oy to‘rt yildan ham ko‘proq tuyildi. Kampirning g‘alati odati bor: Sa‘dulla bilan Feruza chiqib ketishi bilan u ham darvozani qulflab qizirikiga jo‘naydi. Ular uyga kirishi hamono xuddi bir joyda kuzatib turganday orqalaridan yetib keladi. «Ana, oyingiz hozir-u nozir», deydi Feruza Sa‘dullaga. Kampiri tushgur dahlizdagi stulga bermalol o‘tiradi-da, sumkasidan sigaret chiqaradi:

– Voy, jonim-ey, charchab ketdim-ey, otam, gugurtin-gizni bering, bitta chekib olay, keyin uyimga ketaman.

Sa‘dulla gugurt uzatadi. Kampir qutichasiga shunday qo‘lini tiqadi-da, nechta dona chiqsa hammasini birdan povv etkizib yoqadi. Sigaretni burqsitib tutatadi, so‘ng bafurja o‘chiradi.

– Dadangiz, ayang‘iz yaxshi yurishiptimi, onam? – deb Feruzadan hol-ahvol so‘raydi. Feruza qisqa qilmoq niyatida «Rahmat, rahmat. Salom aytib yuborishdi», deb qo‘ya qoladi. Ammo kampir shu bilan tugatmaydi. – Bir piyola suvingizdan bering, otam. Yuragim o‘lgur o‘ynab ketyapti. Charchadimmi yo‘lda, nima balo. – Sa‘dulla piyola tutadi. U suvni g‘ult-g‘ult etkizib ichadi-da, miriqib sigaret tortadi. Kampir suvni yutoqqanday shimirib ichishi Feruzaning ko‘nglini aynitadi. Shu bois qo‘liga piyolani olishi bilan Feruza ichkari xonaga, bir narsani bahonalab, kirib ketadi. Chanqovini bosib olgan kampir esa to‘xtagan joyidan diydiyosini davom ettiradi. – Hozir kelayapman deng, otam, bir qo‘shnimiz bor, oti Tolmas, shuni ko‘rib qoldim. Ha, oyi, qalaysiz, sog‘ligingiz joyidami, deydi. Yuragim shuvillab ketdi,

deng, bu baloga yo'liqqur bekorga so'ramaydi, bir baloni biladi.

Sa'dulla unga taskin bermoq niyatida:

– Shunchaki so'ragandir-da, sizni hurmat qilib,—deydi.

– Yo'q, siz bilmaysiz-da, uni, otam, u bekorga so'ramaydi. Bir baloni biladi.

Sa'dulla bilan Feruza ko'chib kelibdiki, kampirning og'zidan hovlisi tushmaydi. Erta-yu kech hovlimni birov olib qo'yadi, degan xavotirda yuradi. Qizlarining unisi qo'yib bunisi, bunisi qo'yib unisi yolvoradi: «Oyi, yuring, yolg'iz bu yerda nima qilasiz? Hovlini sotaylik, o'zi hamma yog'i to'kilib yotipti, uning ustiga hademay buzadi». Yo'q, qayoqda, kampirning ko'ziga bu chordevor Bog'i Eram bo'lib ko'rinadi. Bundan bir necha yil ilgari qo'shnilardan biri hazillashib: «Oyi, endi qizingiznikiga ko'chib ketavering. Hovlingizni mahalla komiteti falonchiga sotgan», deb bola-chaqasi ko'p Hojiahmad degan bir kishi nomini aytgan ekan. Shu-shu kampirning nazarida hozir o'sha odam kelib: «Chiq hovlidan, endi sening haqing yo'q!» deydiganday tuyilaveradi. O'shandan beri ko'cha-ko'yda birov hol-ahvol so'rasa ham ko'ngliga shubha tushadi. «Bu bekorga so'ramayapti, bir baloni biladi», deb turib oladi. Qizlarinikiga ham ko'p bormaydi, borsa ham bir kecha yo yotadi, yo yotmaydi, darhol qaytib keladi.

Gumonini Sa'dulla bilan Feruzaga to'rt oy davomida necha marta aytganini hisoblash uchun ancha-muncha qiy-nalishga to'g'ri keladi. Ezma kampirning hovlisi ham, uning shu joy-jalolni deb kuymanishi ham ko'ngillariga zig'ir yog'day urib ketgan.

Sa'dulla-ku tishini tishiga bosib chidaydi, boshqa iloji yo'q, ammo Feruzadan xavotirlanadi. «Turmayman bu yerda!

Anov jodugarning hasrati jonimga tegib ketdi!» desa, u nima qiladi? Yana qayerdan joy qidiradi, kimning eshigiga sargʻa-yib boradi? Lekin hozircha Feruza indagani yoʻq – dardi ichida!..

Hammadan shanba yomon. Feruza ilgari bu kunni juda yaxshi koʻrar, orziqib kutardi. Ertasiga dars yoʻq, istagancha televizor koʻrish, radio yoki magnitofon eshitish mumkin edi-da. Bu yerga koʻchib keldi-yu, shanbaning turgan-bitgani azobga aylandi. Sababi – u shanbada ishga bormaydi. (Feruza shahardagi korxonalaridan biriga yurist boʻlib ishga kirdi, Saʼdulla esa fakultetda oʻqituvchi boʻlib qoldi. Birinchi yil ishlayotgani, ham yaqinda uylanganini hisobga olib, bu yil uni paxtaga yuborishmadi, fakultet tashvishlari ham yetib-ortardi.) Kampir ertadan-kechgacha oldiga kirib olib gap sotadi. Sigaretni esa birini ikkinchisiga ulab chekadi. Feruza uning javrashlariga koʻpda eʼtibor bermaydi, biroq kampir shu qadar sezgirki, suhbatdoshi ne koʻydaligini darrov bilib oladi. Eʼtibor berib tinglamay koʻrsinchi, qoladi baloga.

Kampir, ogʻzidan sigaret tushmagani ustiga, (oʻzining aytishicha, oʻn uch yoshida chilim chekishdan boshlagan ekan) qishin-yozin vodoprovoddan sovuq suv ichadi. Uncha-muncha ovqatni nazari ilmaydi: osh, doʻlma, manti-yu qazidan gapiradi. Tagʻin muttasil ishtahasi yoʻqligidan noliydi: «Bir lagan oshlarni koʻrdim demasdim. Bir oʻtirishda ikki kilo asal yeganman. Qani endi u vaqtlar?»

Bir kuni – oʻshanda ham shanba edi, Feruzaning oldiga kirdi-da, yana hovli mojarosini boshladi.

– Endi hovlimni hech kim ololmaydi, onam, – dedi irshayib. Bu gap Feruzani ham qiziqtirdi.

– Nega? Nima qildingiz?



– Hovlimni olmoqchi bo‘lgan Hojiahmad bor-ku, o‘shani bopladim. Kecha bir hovuch tuproqda lo‘li dam solib berdi, o‘shani hovlisiga sohib yubordim.

– Endi nima bo‘ladi? Kampir beo‘xshov iljaydi.

– U lo‘lini bilasizmi, o‘zi, juda dami o‘tkir-da, xohlagan odamini xohlagan hayvonga aylantirib qo‘yadi.

Feruza yayrab kuldi. Kampir joni chiqqudek bo‘lib bo‘zar-di. Dunyoda eng yomon ko‘rgani – gapiga kulgan odam. Hozir Feruza ham ko‘ziga baloday ko‘rindi. Bu odatini Feruza bilardi. Shu bois darrov o‘zini qo‘lga oldi, kulgidan tiyildi. Jiddiy turib so‘radi:

– Hojiahmad akani nima qilmoqchisiz. oyi?

– Eshshak! – dedi kampir astoydil.

– Boplabsiz, – dedi o‘zini zo‘rg‘a bosib.

Kechqurun Sa‘dullaga kampirning muddaosini kula-kula so‘zladi.

– Hali ertaga Hojiahmad akani odamlar eshak holida ko‘rishsa-ya. – dedi Sa‘dulla tizzasiga shapatilab, qah-qah otib.

Ertasi ertalab – yakshanba emasmi, bemalol uxlab yotishgandi, eshik qattiq-qattiq taqilladi. Baravar cho‘chib uyg‘onishdi. «Kim ekan?» Sa‘dulla apil-tapil kiyindi-da, eshikni ochdi. Ostonada kampir turardi. Vajohati qo‘rqinch-li, ko‘zlari ola-kula. Tinchlikmi, oyi? – dedi Sa‘dulla.

– E, baloga Hojiahmad yo‘liqsin! – dedi u taklifni kutmay o‘zini ichkariga urarkan.

Rang-quti uchgan kampir odatdagidek stulga bemalol o‘tirdi-da, sigaret tutatdi. Hojiahmadni o‘g‘irchaga solishi bilan eslariga haligi hangoma tushdi. Kampir sigaret tutunini puflay-puflay javradi:

– Ertalabdan beri ko'chada o'tiribman, baloga yo'liqqur Hojiahmadni poylab. Hozir ko'rdim, o'tib ketdi, odam, otam. odam. eshshak bo'lmapti.

Sa'dulla bilan Feruza o'zini tiya olmadi, kulib yuborishdi. Kampir ularga o'qrayib qaradi-da, jahl bilan tashqari yurdi. Eshikni qars yopdi. Tashqaridan qarg'ishi eshitildi: «Sanlaram baloga yo'liqlaring!..»

Ko'pincha Sa'dulla kechasi allamahalgacha kitob titkilab, nimalarnidir yozib-chizadi. Ba'zan Feruza ham ishxonasining tugatolmagan ishlarini olib keladi. Tovuq qo'ndog'iga kirmay yotib oladigan kampir bir uxlab turib hovliga chiqadi. Qarasa, bularning chirog'i yoniq, ostonada qaqqayganча ovozining boricha baqiradi: «Hoy, olim, chiroqni o'chir! Yarim tungacha katta lampochkani yoqib o'tiradi-ya. Qorong'ida bir-birini ko'rmaydimi, nima balo. Bu qurib ketkurning shig'illab aylanib pul ishlashini o'ylamaydi, bu palakatlar».

Izza yegan Sa'dulla bilan Feruza bir-biriga qarab jilmayishdan nari o'tolmaydi. Dag'dag'a qilayotgan kampirga indashmaydi.

Ammo sabr-toqatning ham cheki-chegarasi bor-da. Goho chidayolmay ketgan Sa'dulla hovliga otiladi: «Muncha chinqirasiz! Pulini o'zim to'layman. Bo'ldimi?!» Shunda baqirish uchun kampirga yana bahona topiladi: «Yuragimni yoray deding-a! E, kekirdagingni cho'zmay baloga giriftor bo'! Pulini to'larmish! Isqotni to'laysan... Voy, yuragim-ey...» U vaysab-vaysab uyi tomon lo'killaydi.

Yaxshiki, iddao, po'pisa-kesatishlarni Feruzaning ota-onasi eshitmaydi, bilmaydi. Agar bu oldi-qochdidan xabar topishsa, erka qizlarini bir soat ham bu chordevor ichidagi yalmog'iz changaliga tashlab qo'yishmasdi.

Bir kuni ota-onasi Feruzani astoydil o'rtaga oldi. Yumshoq, katta kresloga cho'kib o'tirgan Olim Akbarovich xotiniga qarab tomoq qirdi. Xiyol xomushlanib o'tirgan Muazzam opa:

– Feruza, qizim, – deb murojaat qildi asta. – Rang-ro'yingga qara.

Televizor ko'rayotgan Feruza yalt etib oyisiga o'girildi:

– Rang-ro'yimga nima qipti?

– Doim balanddan kelasan. Yeyish-ichishingni tayini yo'q. Ahvoling – it yotish-u mirza turish. Odamlarning og'zida mish-mish gap.

– Odamlarning biz bilan nima dardi bor? Biz hech kimning ishiga aralashayotganimiz yo'q-ku.

Olim Akbarovich hamon jim, go'yo bu suhbat o'ziga dahlisiz. Nigohi ekranda, biroq hech narsa ko'rmas. eshitmas, xushfikri xotini bilan qizi suhbatida edi. Aslida u so'zsiz harakatlari, ma'nodor yo'talishlari bilan gurgung ravishini boshqarib borardi. Buni Feruza ham sezib turibdi, lekin tutilmagan – o'g'ri emas, degandek, dadasiga qarshi biron nima deya olmas, nima e'tirozi bo'lsa, hammasini oyisiga otardi. Erining rolini ijro etayotgan Muazzam opa esa o'z vazifasini goh qoyillatib bajarar, goh Feruzaning kutilmagan, asosli mulohazalariga javob topolmay dovdirab qolardi.

– Nega odamlarning ishi bo'lmas ekan? – dedi ovozini bir parda baland ko'tarib. – Sen aytaverasan-da. Odamlar bilan hisoblashmay ko'r-chi. Hozir hamma og'zi bilan yuradi. Uning ustiga kimning qizi ekaningni bilasanmi? Adang saning qaynatangga o'xshagan qishlog'idagi to'rtta choldan bo'lak hech kim tanimaydigan faqir odam emaski, hech kimning ishi bo'lmasa. Bilasanmi o'zi adang kim? Olim Akbarovich! Butun respublika taniydi. Yuzlab odamlar bir imosiga mah-

tal.— Olim Akbarovich og‘irligini kresloning u yonboshidan bu yonboshiga tashladi-da, yo‘talib qo‘ydi.— San shularni hech o‘ylaysanmi o‘zi?

— Hammasini bilaman,— dedi Feruza.— Adamlani kim ekanliklariniyam bilaman, yosh bola emasman, axir. Lekin sizlarni nima buncha tashvishga solyapti? Shunga aqlim yetmayapti. Kuyovingiz ishlasa, man ishlasam... Ijarada tursak nima qipti? Bizga o‘xshab ijarada turganlar ozmi? Hammasi vaqtincha-ku! Asta-sekin uy ham bo‘lar, boshqa narsalar ham. Axir sizlar ham mana shu uy-joyga, mana shu narsalarga birdan erishmagandirsizlar.

Olim Akbarovich televizordan ko‘z uzmagah holda luqma tashladi:

— Rayispolkomda uyning kalitini tayyorlab kutib o‘tirishgan emish. Sa’dullavoy bilan Feruzaxon kelib olib ketishsin deb.

Feruza dadasiga ginali qaradi. Kinoya yuragini achitib ketgan edi. Nogoh miyasidagi alamli gaplarni aytib tashlab xumordan chiqqisi keldi. Ota betiga chopishi yaxshi emasligini o‘ylab o‘zini tiydi.

— Ijarada turganlar ko‘p, to‘g‘ri, ammo ular noilojdir. Hammaniyam sanga o‘xshagan mehribon adasi yo‘qdir axir. Sho‘tga kelib, bizzi bag‘rimizni to‘ldirib o‘tirsalaring adang hammasini o‘zlari qilib beradilar. Moshinayam olib beradilar, eringni dissertatsiyasigayam yordamlashadilar. Yurfakdagiylarning qanchasi adangni shogirdlari, bir og‘iz aytsalar, hatto o‘zlari yozib berishadi. Qanaqa o‘zining nafini bilmagan o‘jar bola ekan-a. Qayoqdan topa qolding bu boshi kal, ko‘ngli nozik qishloqini.

— E, osilib kegan poyezdidan o‘rgildim,— ming‘irladi Olim Akbarovich.

Haligi kesatiqdan ham oshib tushgan bu luqmadan keyin Feruza o'zini tutolmadi.

– Ada! Bu nima deganingiz? Axir kuyovingiz-a. Shunaqa gaplar yarashadimi sizga. Oyim aytganlariday, siz Olim Akbarovichsiz-ku! Mani qaynotamga o'xshagan to'rtta choldan boshqa hech kim tanimaydigan faqir odam emassiz-ku.

Darvoza qo'ng'irog'i jiringladi-yu munozara to'xtadi. Muazzam opa, orqasidan Feruza hovliga chiqdi. Ko'chada g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari eshitildi. Muazzam opa darchaga o'xshash eshikchani ochdi. Bashang kiyingan xushbichim yigit salom berdi. Nariroqda turgan sutrang «Volga»da shofyordan boshqa yana bir kishi o'tirardi. Ular ham mashinadan tushib, Muazzam opa bilan eski qadrdonlarday quyuq so'rashishdi.

– Kelinglar, kelinglar, marhamat...

Xushbichim yigit Muazzam opa taklifini kutmasdanoq darvoza ilgaklarini tushurib, chaqqonlik bilan tabaqalarni burgut qanotlariday qilib ochdi. «Volga» ichkariga kirdi.

Chaqirilmagan mehmonlarni Feruza tanidi. Bir necha yildan beri shu uch odam uylarida tez-tez paydo bo'ladi. Bular kim, qayerdan, nima uchun kelishadi? Bu jihati Feruzaga qorong'i. Ammo shuni biladiki, dadasi ularni doim xushchaqchaqlik bilan kutib oladi, sal uzoqlashib ketisha, juda kamnamosizlar, deb o'pka-gina qiladi. Har gal ular kelishi hamono Feruza bilan onasi oshxonaga chopadi – kuymana-kuymana lazzatli taomlar tayyorlashadi. O'rganib qolgan bu odatini Feruza hozir ham tark etolmadi. Indamay oshxona tomonga yurdi. Shofyor bilan xushbichim yigit oshxona yonidagi kichik uychaga – dadasining tili bilan aytganda, oziq-ovqat omboriga bir qancha qutilarni keltirib taxlashdi.

Muazzam opa mehmonlarni ichkariga boshladi. Yap-yangi dasturxon soldi, qand-qurs, pista-bodom, asal-u qaymoq

qo'ydi. Keyin Feruzaning yoniga bordi. Paxta gulli choynaklarning biriga seylon choyidan, biriga «to'qson besh»dan damladi.

– Man ketdim endi, oyi,— dedi Feruza.

– Shoshilma, borasan-da, shu «uying»ga. Ovqat-povqat yeb ketgin.

– Ovqat yedim-ku. Kuyovingiz kutib o'tirgandir.

– Hech qursa go'sht-po'sht to'g'rashib yubor menga. Keyin ketarsan.

Onasining asosiy muddaosi shu aslida. Buni Feruza biladi. Qiziq, u aqlini tanib. qo'ldan ish keladigan bo'lgandan buyon ko'p vaqtini ovqat pishirish bilan o'tkazipti. Qo'ni-qo'shnilar esa uning pazandaligiga shubha bilan qarashadi. Ko'pchilik nazarida Feruza ham hozirgi aksariyat zamonaviy qizlarga o'xshagan — ovqat pishirish u yoqda tursin, choy damlashni ham tuzuk-quruq eplolmaydi, yurfakda o'qish qayoqda, ertadan-kechgacha yapon magnitofonida chet el estradasini qo'yib, har xil o'yinga tushib o'tiradi. Axir kimsan, Olim Akbarovichning qizi, o'qish shunchaki ermak, dadasi to'g'rilab qo'ygan, xohlasa boradi, xohlamasa — yo'q. Baholar qo'yilaveradi...

Aslida bunday emasdi. Bu fakultetni Feruzaning o'zi tanladi. Hatto dadasi boshqa yengilroq o'qishga kiritib qo'ymoqchi bo'lganda unamadi. Shu sohaga qiziqdi. U yuristlarni eng adolatli, eng rostgo'y odamlar, deb o'ylardi. Keyinchalik bu o'ylari puch ekanligini bildi, amaliyotga borganlarida qalloblar, munofiqlar, poraxo'rlar shu kasb egalari ichida ham tiqilib yotganini ko'rdi. Ammo endi kech edi. Bir tomoni — endi xayoliga boshqa fikr keldi. Hamonki, yuristlar orasida shunaqalari ko'p ekan, ularga qarshi kurashmoq kerak! U bilib qoldi: anovi oyoq-qo'li yengil odamlar ham uylariga

bekor kelmas ekan. Dadasi bilan ular o'rtasida nimadir bor, ammo nima ekanligini Feruza aniq bilmaydi. Hatto bu haqda dadasi bilan oyisiga bir-ikki gap ham ochgan. Biroq dadasi jerkib tashlagan: «Bunday ishlarga aralashma. Ovqatingni pishir, darsingni qil, tamom».

Bu mavzuda u Sa'dulla bilan ham ko'p tortishdi. Ajab emaski, uzundan-uzoq bahslashuvlar chog'ida fikrlari, qarashlari bir joydan chiqqanligi uchun yulduzlari yulduzlariga to'g'ri kelib qolgan bo'lsa! Asli o'ylashganiyam yo'q, rosti, yigitga qizning qad-u qomati, husn-u chiroyi ko'proq yoqdi. Ayniqsa ko'zlari Sa'dullani asir etdi-qo'ydi. Feruza esa Sa'dullaning og'ir-vazminligini, ba'zi yigitlarga o'xshab ko'ringan qizga shilqimlik qilavermasligini xushladi.

Dastlab tanishgan kezlari dayoq Sa'dulla Feruzaning ismi jismiga mosligini, xususan, aql-xushi va farosati husn-u malohatiga monand ekanligini samimiyat bilan e'tirof etgandi. Mana, turmush qurishgandan buyon necha oy o'tdi, Sa'dulla o'sha e'tirofda adashmaganligiga necha bor imon o'girdi. Negaki, Feruza har qadamda farosatli va oqila ekanligini namoyon etmoqda, u hali biron marta turmush qiyinchiliklaridan og'ringanini, yetishmovchiliklardan noliganini bilmaydi. Biroq goho-goho xayoliga turli noxush fikrlar yopiriladi: «Feruza bir umr men bilan chidarmikan? Hali qachon boshimizga boshpana bitadi, qachon odamlarga o'xshab u yoq-bu yoqni tuzatib olamiz. Yo'qchilik nima ekanini bilmagan qiz mening bu darveshona turmushimga oxirigacha bardosh berarmikan? Buning ustiga u yoqda ota-onasi gij-gijlab tursa...» Shunday kezlarda Feruza uni tashlab ketadiganday yuragi shuvillab, ko'ngli xufton bo'ladi, ammo yana o'ziga o'zi taskin beradi, bema'ni o'ylardan o'zini chalg'itadi...

Feruz qozonga masalliq soldi, qirq besh minutdan keyin suzasiz, deb onasiga tayinladi. O'zi esa yo'l taraddudini ko'rdi. Muazzam opa garchi ichida ranjisa-da, hech narsa demadi. Uning sumkasiga u-bu narsa solib berdi. Feruza «qo'ying, kerak emas, hamma narsa bor», deganiga quloq osmadi. «Olib ketaver. muncha otdan tushsang ham egardan tushmaysan», deya jerkidi.

Dadasi bilan oyisining shunaqa tagdor qochirimlari Feruzaning joniga tegib ketdi. Kelmay desa – iloji yo'q. ota-ona. Kelsa – achchiq kinoyalar. Hali u yoqda Sa'dulla ham ming'irlamasaydi. Oyisnikidan narsa olib borsa, Sa'dullaning qovog'i tushib ketadi...

Feruz og'ir sumkani ko'tarib kirib kelganda Sa'dulla sigaret tutuniga ko'milib kitob o'qib o'tirar edi. U bir Feruzaga, bir qappaygan sumkaga xo'mrayib qaradi, lekin indamadi. Feruz yechinib chiqdi-da, sumkadan narsalarni oldi. Ikki kilocha go'sht. dudlangan kolbasa, dumba yog'i, yana allanimalar bor edi.

– Dadangizning oshnalari kepti-da,– dedi Sa'dulla kesatib. Feruz qo'rqqan avval musht ko'tarar qabilida darrov oldini oldi.

– Shuncha kerakmas desam ham, oyim qo'ymay tiqish-tirdilar. Sa'dulla uh tortdi.

– Ularning maqsadi nima, bilmayman... Meni kechiringku, Feruz, dadangiz harom ishlariga bizni ham sherik qilmoqchimi?

Feruz bo'shashib stulga o'tirdi. Nima desin, nima qilsin u? Bu barmog'ini tishlasa ham og'riydi, unisini tishlasa ham. Bunaqa ahvol qachongacha davom etadi? Dadasi bilan oyisi bularni tushunarmikan yoki Sa'dulla ularga yon bergani ma'qulmi? Feruzaning o'zi-chi? O'zi nimani istaydi? Bir ko'ngli bor-e, deb dadasi bilan oyisining so'ziga kirib, maza qilib



yashagisi keladi. Rost-da, bu dunyoga asabbuzarliklar uchun kelganmi? Boshqa dugonalari qatori o'ynab-kulib, istagan kiyimini kiyib, xohlagan ishini qilib, besh kunlik dunyoda davru davron sursa nima qipti? Birovdan kam joyi bormi? Dadasiga bir og'iz aytsa bas, istagan narsasini muhayyo qiladi. Lekin Sa'dulla ko'narmikan? O'zi-chi? Shuni astoydil istaydimi? Boringki, Sa'dulla ham uning gaplariga kirdi deylik. Xo'sh, bu safo qachongacha davom etadi? Dadasi qachongacha mansab kursisida o'tiradi. Axir yoshi qirq-ellikka borganida ham dadasining mo'may pullari hisobiga yashab yuradimi...

Har holda Feruza hayot past-balanddan iboratligini biladi. Bilib shu yo'lga qadam bosgan. Endi chidaydi, hammasiga chidaydi. Bundan og'ir sinovlarga ham bardosh beradi. Sa'dullaga suyanadi, ishonadi. Yuragi sezadi: u hech qachon aldamaydi, chap berib ketmaydi...

Feruza asta eri yoniga o'tirdi. Chaqnayotgan ko'zlariga mehr bilan termildi, sekin bo'yniga qo'l solib erkalandi.

– Jonim, ko'p asabiylashmang,– dedi mayin ovozda. – sog'ligingiz kerak menga. Bu narsalarga parvo qilmang. Siz meni biling, menga ishonang.

Feruza erining dag'al yuzlarini siladi. Kaftlari shu qadar silliq, mayin ediki, Sa'dullaning butun badaniga bir iliqlik yugurdi. Ko'nglidagi g'azab o'rnini mehr egalladi. U ham Feruzaning sochlarini kaftlari orasiga oldi...

## X

Ayni yozning chillasi – iyul oyida Feruza homiladorlik ta'tiliga chiqdi.

Kun issiq – harorat qirq besh darajaga ko'tariladi. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovillab

qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi. Kunduzi-ku kunduzi, kechasi ham allamahalgacha nafas olish qiyin...

Feruza toza qiynaldi. Biroq kampirning diydiyolari oldida bu issiqlar chikora. Bir dam bemalol cho'zilib rohatlangani qo'ymaydi, oldiga kirib olib, bir tog'dan, bir bog'dan kelib allanarsalarni hikoya qiladi. Bu ham yetmaganday qo'ni-qo'shnilarini yomonlaydi, birovi o'g'ri, boshqasi savdogar, yana birining qizi buzilib ketgan — xullas, mahallada shu kampirdan bo'lak insofli, halol odam yo'qdek...

Homiladorlik borasida ham kampirdan ko'ra ko'proq narsa biladigan odam topilmaydi. Har so'zini misollar bilan «isbotlab» gapiradi. Qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari orasida nechtasi birinchi bolasini tug'olmay o'lib qolganini ertakday so'ylaydi. Hatto o'zining oyisi ham uni (to'ng'ich ekan) tug'ib olamdan o'tgan emish.

Kampir vahimalarini istasa-istamasa eshitib goho Feruzaning yuragi uvishadi. Juda jonidan o'tgan kunlari eshikni ichidan bekitib o'tiradi. Ammo bu bilan ish hal bo'la qolsa koshki. Kampir dam-badam deraza tagida g'ivirlab u yoqdan-bu yoqqa o'taveradi. Jag'i tinmaydi: «Shu issiqda uyda ko'milib yotadi. Homilador xotin sal-pal harakat qilib tursada. Bu ahvolda bolasi ichida o'lib qoladi. Menga nima, bat-tar bo'lmaydimi...»

Endi Feruza tamom tahlikaga tushadi. Butun vujudini quloqqa aylantirib qorniga quloq soladi. Keyin yengil nafas olib, sal o'ziga keladi. «Qayerdanam topgan ekan bu hovlini Sa'dulla. Toza noyob nusxa ekan-ku... Hali kelsa boshqa bironta joy toping desammikan? Yoki dadam bilan oyimning gapiga kirsakmikan? Sa'dulla ko'narmikan?»

Sa'dullani qabul komissiyasida olib qolishdi. U har kuni ertalab chiqib ketadi, kechqurun burnidan tortsa yiqilgudek shalvirab kirib keladi. Uning ahvolini ko'rib, Feruza kunduzi o'ylab qo'ygan fikridan qaytadi: «Qani, sabr qilib turaylik-chi. Bir gap bo'lar axir...» Sa'dulla choy ichar ekan, zimdan Feruzani kuzatadi: ichi to'la dard ekanligini, ruhan charchab ketganligini sezadi. Sezadi-yu, indamaydi. Nima ham desin? Quruq gapdan ne foyda. Ahvolni yaxshilashga ko'zi yetmasa...

Ular bir-biriga hamma gapni boricha yashirmay, ochiq-oydin aytib o'rganishgan. Shirin-u, ammo yolg'on so'zlar, maza-bemaza va'dalarning nima keragi bor?! Er-xotin bir-birini aldasa, bir-biri qo'ynini puch yong'oq bilan to'ldirib yursa — u qanday oila-yu qanaqa turmush bo'ldi? Ro'zg'orda kamchilik ham, yetishmovchilik ham, mayda-chuyda g'idi-bidilar ham bo'ladi. Bulardan mustasno oila yo'q. Aql-farosatli er-xotin shularga bamaslahat chek qo'yadi, ko'chaga olib chiqib jar solmaydi. Birovga aytganing bilan yordam berarmidi, tuzatib qo'yarmidi. Qayoqda, aksincha, battar bo'l, deb ichida kuladi. Bundan kimga foyda-yu kimga zarar?

Oila, ro'zg'or haqida ularning fikrlari shunaqa. Shukrki, hozircha bu yo'riqda unisi ham, bunisi ham qat'iy, og'ir-yengilga birdek chidab, ya'ni, suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib yashashyapti. Asli shu bir yil orasida, eh-he, ne-ne yaxshiyomon o'tmadi. Sa'dulla o'jarlik qilgani uchun qaynota-qaynonasi toza to'nini teskari kiyib oldi. Ular o'lganlari kundan salom-alik qilishadi, til uchida hol-ahvol so'rashishadi. Nomi ulug' — suprasi quruq kuyov, uning «izmiga» tushgan befahm qiz bilan muomala qilish osonmas. Lekin har nechuk Olim Akbarovich bilan Muazzam opa hamma vaqt shularga yaxshi bo'lsin, qizim bilan kuyovim qiynalmasin, deb jon kuydirishdi.

Bular esa qayoqda, bo'yin bergisi kelmaydi. Mayli, bir-ikki yil o'zlaricha yashab ko'rsin. Keyin biladi ota-ona qadrini. Dissertatsiya yozarmish... Yozsin, yoqlasin. Ko'ramiz. Bu gaplar aytishga oson. Yoqlab bo'пти! Olim Akbarovichning qo'li qayoqlarga yetishini bu qishloqi hali bilmaydi. Fakultetdagilar. xususan uning kafedrasidagilar Olim Akbarovichning bir gapini ikki qilib ko'rishsin-chi! Yetimni urma-so'kma, yoqasini yirt. Olim Akbarovich imosi bilan kimlarning yoqasi yirtilmagan. Uncha-munchaga gap bermaydigan dasti daroz boyvachchalardan qanchasi unga tan berib, oyog'ini o'pish uchun izn so'rab keldi-ku oldiga. Ammo u tuflagan tufugini qayta yalaydiganlardan emas.

Olim Akbarovich fil-u Sa'dulla misoli pashsha... Lekin bu Sa'dullada, ya'ni...

G'ayirlik qaynota ichida pinhon. Bari bir uni Sa'dulla ham. Feruza ham sezadi, yuraklari sezadi. Bir narsadan Feruzaning ko'ngli to'q, dadasi uni yaxshi ko'radi. Shunday ekan, ularga, xususan Sa'dullaga yomonlik qilmaydi. Faqat Sa'dullaning dissertatsiyasi muhokamasi yoki himoyasini orqaga surdirishi mumkin. Maqsad — kuyovi kimligini bilib, oldiga yalinib kelsin. Shunda u daryoni to'sgan to'g'onni ochib yuboradi. Bu bilan o'zining qudratini ko'rsatib qo'yadi...

Sa'dulla biladiki, Feruza kunbo'yi kampirning ezmalani-shidan zerikib ketadi. Shuning uchui biror ma'nili, dilni ravshan qiladigan gap aytishni istaydi. Savil qolgur shunday gap hadeganda topilavermaydi. Oxiri topganday bo'ladi.

— Feruza,— deydi uning sepkil toshgan yuzlarini silab,— otini nima qo'yamiz?

Negadir bu gapi o'ziga tomdan tarasha tushganday tuyiladi. Allanechuk iygan Feruza ichida kuladi, lekin sir boy

bermaydi. Aslida u ham Sa'dullaning ko'ngliga yoqadigan biron narsa deyishni o'ylab o'tirgan bo'ladi.

Sa'dulla jaziramada ertadan kechgacha betinim ishlaydi. Bir-birining ustiga chiqib ketguday bo'lib tiqilib yotgan abituriyentlarning hujjatlarini bir-bir ko'rib chiqish, ayrimlariga nimalarnidir tushuntirish — osonmas. Tag'in ustiga ba'zi boyvachchalar bor, o'g'lini yetaklab keladi. Qani ularga gap uqtirib ko'r-chi. U desang bu deydi, bu desang u. «Bizam shu sohaning nonini yeymiz, qonun-qoidani bilamiz», deb turib oladi. «Xo'p, ana, siz suddirsiz, prokurordirsiz — bu yaxshi, lekin o'g'lingizning hujjatlari chatoq. Bu holda qabul qilolmayman». E, qayoqda, bu e'tirozdan haligi battar jizillaydi. «To'g'ri bo'lmaydigan ish bormi, uka?! Istak bo'lsa bas». «E, aka, o'zingiz yurist ekansiz, gapingiz qiziq-ku. Chala hujjat bilan ish bitmasligini mendan yaxshiroq bilarsiz. Bu yerda mening istagimning nima ahamiyati bor?» «Juda ahamiyati bor-da. Xohlasangiz bitta attestat bilan ham qabul qilaverasiz. Bilamiz-ku. O'zimizning boshimizdan bunaqasi har kuni necha bor o'tadi». Sa'dulla endi o'zini tutolmaydi, asabiylashadi. «Sizni bilmadim, lekin men bunday qilolmayman. Boring, gap tamom! Boshqalarga yo'l bering!»

Bir kuni yomon bo'ldi.

Hujjatlarga ko'milib o'tirardi. Bir semiz kishi yaqinlashdi. Orqasida o'ziga o'xshagan g'o'ndagina bola — ko'zlari hadikli yiltiraydi.

— Hormang, uka,— dedi u Sa'dullaga,— charchamayapsizmi? Juda isib ketipti-ku.

— Rahmat-rahmat,— dedi Sa'dulla maqsadga o'ting degan mazmunda.

— O'g'ilchani olib keluvdik, ot o'rnini toy bosar, deb. Sizga o'xshab prokuror bo'laman deydi zang'ar. He, bo'sang bo', dedim.

U g'oldiragancha yupqagina qog'oz papka uzatdi. Sa'dulla hujjatlarni sinchiklab ko'zdan kechirdi. Eng tagidan bir konvert chiqdi. Bu nimaykin, degan o'y bilan asta ochdi. Ochdi-yu, dong qotdi: ajabo, bir nechta ellik so'mlik! Xona benihoya dim, terlab-pishib o'tirgan bo'lsa-da, birdan a'zoyi badani muzlab ketdi. Semiz kishiga o'qrayib qaradi:

– Bu qanaqa hujjat?

Semiz kishi ro'molchasi bilan har biri sopol laganday keladigan beti, go'dak qulochi yetmaydigan darajada yo'g'on bo'yini hafsala bilan artarkan, iljaydi:

– Ko'rib turibsiz-ku, uka, qanaqa hujjatligini, mushuk-sichqon o'ynab nima qilasiz, siz bilan bizning sohamizda bu «hujjat»siz biron ish bitmaydi, bilasiz-ku.

Sa'dulla papka bog'ichini bog'ladimi-yo'qmi – bilmaydi, ammo uni olib haligi semiz kishining bulg'or qalampiri-dek katta, qip-qizil burniga qarab otganini biladi. Papka bir chetga borib tushdi, ichidan hujjatlar sochilib ketdi. Beli sinmagan pullar har yoqqa pirillab uchdi. Bir lahzada kechgan voqeadan hammaning og'zi ochilib qoldi. Issiqda lohas tortib, mudrab o'tirgan abituriyentlar-u haybarakallachilar, boshqa fakultetlarga hujjat qabul qilayotgan yigit-qizlar alang-jalang qilishdi.

– Yo'qol ko'zimdan, iflos! Semiz kishi ham past tushmadi.

– Nimaga meni haqorat qilasan? Hali ko'rsatib qo'yaman senga, – keyin o'g'liga o'shqirdi:– Yig'ishtir...

O'sha kuni kechgacha Sa'dulla o'ziga kelolmadi...

Hangomadan Feruza ham xabardor. Sa'dulla kechqurun ichiga sig'dirolmay xotiniga yorilgan edi. Shundan biladiki, qabul komissiyasida ishlash og'ir. Shu sabab har oqshom Sa'dullani biron lazzatli taom, xush kayfiyat bilan kutib olishni

o'ylaydi. Hozir ham erining savoliga hazil bilan javob bergisi keldi.

– Tug'ilmagan buzoqqa qoziq, yo'nayapsizmi?

– Yaxshi niyat – yarim davlat.

– Kim biladi, o'g'il bo'ladimi, qiz. Bilsak ekan, shunga qarab ism tanlab qo'ysak.

– Bitta o'g'il bolaning, bitta qiz bolaning otini tanlab qo'yamiz,– dedi Sa'dulla. – Shoshib qolmaylik tag'in, siz tug'uruqxonada bo'lasiz, men kim bilan maslahatlashaman?

Feruz Sa'dullaga yaqinroq surilib o'tirdi.

– Rostini ayting-chi, siz o'g'il bo'lishini istaysizmi yo qiz?

– O'g'il ham, qiz ham – farzand. Avvalo eson-omon qutulib oling.

– Rostini aytmadingiz,– dedi Feruza. – Bilaman, siz o'g'il bo'lishini xohlaysiz.

– Qayoqdan bilasiz?

– Bilaman-da.

Feruzaning bunday qat'iy hukmida jon bor edi. Sa'dulla o'g'il ko'rishni ich-ichidan istaydi. Faqat orzusini Feruzaga aytmagan. Axir bu na Feruzaga, na o'ziga bog'liq. Lekin, qiziq, ko'nglidagini Feruza qanday sezdiykin?

– Xo'sh, ayting-chi, qayerdan bilasiz?

– Aytaymi,– dedi Feruza suzilib.

– Ayting!

– Huv Samarqandga borganimizda... Aslida avvaldan bilardim-u, o'shanda aniq sezganman.

– Qachon?

– Birinchi marta borganimiz-chi. Salima degan juvon bilan bir moshinda ketuvdik-ku qishloqqa.

Sa'dulla esladi...

O'shanda oktabr oyining oxirlari edi. Samarqandga ertalab yetib kelishdi, samolyotdan tushib, shahar aylanishdi.

Kechga tomon bekatga yo'l olishdi. Odam ko'p, avtobus bedarak. Kuzning ilimiliq oftobi ko'p qavatli binolar orqasiga botib borar, uning o'rnini achchiq izg'irin egallamoqda edi.

Odamlar betoqat: goh unisi, goh bunisi borib kassirni tiqilinch qiladi. Issiqqinada huzur qilib o'tirgan xotin juda ters, qo'pol chog'i, to'rt burchak tuynukdan mo'ralaganlarga qarsillatib javob beradi. Nachora, ular tarvuzlari qo'ltig'idan tushib imi-jimi orqasiga qaytishadi. Ba'zi asabi bo'shroqlari xitlanib so'kinadi: «Avtobus kelar-kelmasini bilmasang nima noma'qulni yeb o'tiribsan bu yerda? Paxtaga ketgan emish. noma'lum emish. Paxta yaxshi bahona bularga. Aslida boshqa vaqtlar ham go'r emas... Juda jonga tegdi-da. Hech son kirmaydi-ya».

Sa'dulla ham tajanglashdi, ahvolni o'zicha chamaladi-da, taksi topishdan o'zga iloj yo'q, degan qarorga keldi. Bir tomoni vaqt ketyapti, bir tomoni sovuq. Biroq qani o'sha taksi. Bir-ikkitasi to'xtadi, ammo, Ko'ktoshga olib borib qo'ying, deyishi bilan haydovchisi javob ham bermay gazni bosadi. Ba'zilari, u yoqdan odam bo'lmaydi endi, borish-kelish pulini to'lasangiz eltib qo'yaman, deb o'zini taroziga soldi. Sa'dulla avval bu takliflarga ko'nmadi, sal insof qiling, aka, deb ko'rди. Yo'q, insof qiladigan taksichi uchramadi.

Asta-sekin, borish-kelish haqini to'lasang boraman, deydigani ham siyraklashdi. Sa'dullaning xunobi oshdi. Ilgariroq ketavermaganidan afsus chekdi.

Oxiri eskiroq ko'kish «Volga» to'xtadi. Sa'dulla yugurib borib old eshikni ochdi, shofyorga o'tindi, ahvolini tushuntirdi. Shofyor, necha pul berasan, deb so'ramadi ham,



indamay «o'tir» ishorasini qildi. Oldin Feruzani chiqarib, yoniga o'zi cho'kdi. Mashina ichi did bilan bezatilgan. o'tirg'ichlariga duxoba jild qoplangan edi.

Mashina yuz-yuz ellik metr chamasi yuruvdiki, bir bolali ayol qo'l ko'tardi. Sa'dulla uni tanidi: Salima.

– To'xtating! – deb yubordi beixtiyor. Mashina qattiq tormoz berib to'xtadi.

– Nima gap? Tinchlikmi? – dedi shofyor orqasiga o'giri-lib Sa'dullaga qararkan.

– Shu xotinni ham olib ketaylik. Biz boradigan joyga boradi. U shofyorning javobini ham kutmay Salimani chaqirdi. Salima yetib kelgach, oldingi eshikni ochdi. Shofyor qoidani suv qilib ichgan ekan: yosh bola bilan oldinda o'tirish mumkin emasligini uqtirdi. Salima orqaga – Feruzaning yoniga, Sa'dulla esa ilgariga – shofyorning qavatiga o'tirdi.

– Rahmat,– dedi astagina Salima. U bu gapni kimga aytdi – shofyorgami, Sa'dullagami – o'zidan boshqa hech kim bilolmadi.

Mashina yelib boradi. Chaqaloq yig'laydi, Salima uni erkalab ovutadi. So'ng dam-badam Feruzaga zimdan qaraydi. Buni Feruza ham sezadi, sezadi-yu, indamaydi. Hozir Salima Feruzaga qay ma'noda boqayotir – buni yolg'iz Sa'dulla tushunadi.

– Kech bo'lganda bu yerda yolg'iz yuribsiz?– dedi Sa'dulla. Ilgari u Salimani senlardi, endi sizladi. Negadir «sen» deb murojaat qilishga tili bormadi, bunday muomala tasavvuriga sig'madi. Bari bir begona ayol-da.

– Ha,– dedi nihoyat Salima dovdirab,– bir ish bilan keluvdim, kechga qoldim. Avtobus yo'q, paxtaga ketgan deydi. Bitta-yarimta tanish-panish uchrab qolar, deb shu yerga chiqib turuvdim.

– Xolmat yaxshi yuriptimi? Mashinasida olib kela qo-mapti-da.

– Jo‘rangiz yo‘q. Novosibirga ketgan.

U shunday deb chuqur uh tortdi. Bu uh zamirida juda ko‘p dard-alam bor ediki, uni Salimaning o‘zidan boshqa bilmaydi.

– U yoqda nima qiladi? – qiziqib so‘radi Sa‘dulla.

– Nima qilaydi, bilasiz-ku jo‘rangizdi odatini. Har yili kuzda bir-ikki o‘sha yoqlarga borib kemas, ko‘ngli o‘rniga tushmaydn. Qo‘ying shu ishingizni, yana bir palakat bosmasin, desam, quloq somaydi. «Seni nima ishing bor! Bolangga qarab, ovqatingni pishirib o‘tiraver» deydi.

Xolmatning bu hunaridan Sa‘dulla bexabar edi. Hozir Salimadan eshitib hayron qoldi. «Unga bu ishning nima zarurati bor ekan. Hamma narsasi yetarli, otasi rais – aytgani aytgan, degani degan. Otasi indamasmikan? Yoki shu ish bilan shug‘ullanuvchi bitta-ikkita sherik topgan bo‘lsa, ular bilan birga ko‘ngil ochish uchun borib kelarmikan?»

– Ancha bo‘ldimi ketganiga?

– Bir oyga yaqinlashdi. Na xat, na xabar bor. Har kun ko‘zim yo‘lda.

– Otasining xabari bormi?

– Bor. So‘rasam, kep qoladi, erkak odam ro‘zg‘or uchun temtinishi<sup>1</sup> kerak-da, deydi.

Sa‘dulla shuvillab mashina tagiga kirib ketayotgan asfalt yo‘ldan ko‘zini uzmas, xayoli esa Salimada, uning eri – sinfdosh do‘sti Xolmatda edi. U Salima ahvolini his qiloldi. Biroq Xolmatning qilig‘ini qanday tushunsa bo‘ladi? Kim boshladi ekan uni bu yo‘lga? Axir bu uyat-ku. Kimsam, fa-

---

<sup>1</sup> Temtinish (*sheva*) – qimirlash, harakat ma‘nosida.

lonchi raisning o'g'li Sibirda savdogarchilik qilib yursa-ya! Nahotki, buni Xolmatning o'zi, otasi o'ylab ko'rmagan bo'lsa?

– Bolalar nechta, Salima?– dedi gap o'rovini boshqa tomonga burmoq maqsadida.

– Ikkita. Ikki o'g'il.

– O'-ho', juda zo'r-ku,– dedi Sa'dulla hayajonini bolsolmay. – Xolmat baxtli ekan.

Bu suhbatdan so'ng Sa'dulla o'zini biroz erkinroq tutdi. To'g'risi, boya mashinani to'xtattirgandan keyin sal pushaymon qilgandi. Hozir esa qilgan ishidan ancha xursand bo'ldi, kayfiyati ko'tarildi.

– Ha, darvoqe,– deb gap boshladi u va chap tirsagini mashina suyanchig'iga qo'yib orqaga o'girildi. – Men sizlarni tanishtirmapman. Feruzaxon, bu kishi bizning qishloqdan, otlari Salima. Mening sinfdosh jo'ramga turmushga chiqqan. Bir-birini sevib, har qanaqa to'siqlarni yengib oila qurishgan. – U kuldi, ammo kulgisi unchalik samimiy emasligi anglashildi. – Men Xolmatni juda hurmat qilaman, yaxshi yigit. Bu kishi Feruza...

– Sizning xotiningiz,– dedi Salima uning gapini bo'lib.

– Qayoqdan bilasiz?

– Nimaga bilmas ekanman. Qishloqda to'y qilganlaringizda kelganman. Kelin salomda, betocharda bor edim. Yaxshilab ko'rib olganman.

U Feruzaga yuzlanib kuldi. Feruza ham jilmayib, unga termildi, biroq eslay olmadi. O'shanda kimlar kelib ko'rishmadi Feruza bilan. Toshkentlik kelinni ko'raylik, deb tanish ham, notanish ham keldi. Feruza qaysi birini eslasin.

– Unday bo'lsa tuzuk, – dedi Sa'dulla jimlikni buzib. – Toshkentga yo'lingiz tushsa, to'g'ri biznikiga boraverasiz endi. Feruzaxon o'zi kutib oladi sizni.

– Albatta,– deb kuldi Feruza.

Xolmatlarning qishlog‘i yo‘lda — Ko‘ktoshdan ancha berida. Shu bois Salima oldin tushishi lozim.

— Ichkariga obkirib qo‘yaylik, — dedi Sa‘dulla.

— Yo‘q, rahmat, bu yog‘i yaqin-ku, o‘zim yetib olaman.

U shofyorga pul uzatdi. Sa‘dulla uning qo‘lini surib qo‘ydi. Tushib ketavering, uyat bo‘ladi.

Shunda beixtiyor badani varillab ketdi. Salimaning qo‘liga qo‘li tegar-tegmas butun vujudiga tok o‘rmalab ketganday bo‘ldi. Yo qudratingdan! Bu qanday kuch, qanday sehr?

Chamasi, Salimada ham shunday hol kechdi, boshqa indamadi. Hatto rahmat aytishni ham unutib eshikni yopdi. Yumshoq suyanchiqda yastanib o‘tirgan Feruza esa bu sir-u sinoatdan bexabar, ikki o‘g‘ilning onasi — yoshgina juvonga havaslanib termilib qoldi.

Mashina yurgandan keyin Sa‘dulla darhol Feruzaga o‘girildi.

— Maktabni bizdan bir yil keyin bitirgan. Ikki o‘g‘li bor, yaxshi-a, — dedi.

Indallosi: Sa‘dulla o‘g‘ilga havasmandligini Feruza yo‘ldagi ana shu kutilmagan uchrashuv asnosi anglagan edi. Hatto o‘zi ham pinhona shunday istak bilan yashardiki, bu azbaroyi eriga cheksiz mehrining nishonasi edi.

— Bilar ekanmanmi?— dedi Feruza.

— Siz bilmaydigan narsa bormi!

Suhbat uzildi. Ko‘ngliga yoqmaydigan allanarsani eslagan kabi Sa‘dulla xomushlandi, o‘yga cho‘mdi. Avzoyi bunday tez o‘zgarganidan Feruza xavotirlandi, indamay zimdan qaradi, oxiri chidayolmadi.

— Ha, nima bo‘ldi, xayol surib qoldingiz,— dedi.

— Feruza,— dedi u o‘ychan holda,— oyingiz indamayaptimi?

– Nimaga indashlari kerak?

– Yo‘q, men boshqa ma‘noda... ya‘ni kel-qo‘y dema-yaptimi?

– So‘rab nima qilasiz. Qachon borsam gapning avvali shundan boshlanadi. Ta‘tilga chiqqanimdan beri-ku, toza zug‘um qilishmoqda.

Sa‘dulla xotiniining ko‘zlariga termildi:

– Feruza, balki rostdanam borarsiz-a. Axir bu issiq kunda to‘g‘risiyam sizga qiyin-ku.

– Siz-chi?

Meni o‘ylamang. Kunimni ko‘raman. Tez-tez oldingizga borib turaman.

– Borsak birga boramiz, bo‘lmasa – yo‘q.

– Feruza, axir bu noilojlikdan, uning ustiga vaqtinchaku. Bola tug‘ilsin, siz o‘zingizga kelib oling, keyin... Men borardim, siz uchun hamma narsa qilishim mumkin, ammo dadangizning o‘sha gapidan keyin sira oyog‘im tortmaydi.

O‘shanda qaynota-kuyov munosabati ancha keskinlashdi.

Birinchi may bayrami arafasi edi. Ne-ne o‘ylovni qilgan Sa‘dulla Feruzani ergashtirganicha qaynota-qaynonasini tabriklagani bordi.

Hovliga joy qilishdi. Olim Akbarovich qamishdan to‘qilgan kresloga yastanib o‘tiribdi. Dasturxon noz-ne‘matga to‘la. Yangi chiqqan pomidordan tortib qora ikragacha muhayyo. Ichkilikni ayting: yer yuziga dong‘i ketgan turfa konyak, balzam, pivo, vinolarning bir necha xili... Sa‘dulla avvaliga, mehmonlar kelsa kerak, deb o‘yladi. Bir soat o‘tdi, ikki soat o‘tdi, hech kimdan darak bo‘lmadi. Charviga o‘ralgan do‘lma suzildi. Har kimning oldiga likopchada qazi-qarta qo‘yildi. «Bor-yo‘g‘i to‘rt

kishi-yu, buncha dahmazaning nima keragi bor ekan», deb hayron bo'ldi Sa'dulla.

– Xo'sh, o'g'lim, qaysinisidan ko'nglingiz tortadi? – dedi salmoqlab Olim Akbarovich.

– Shart emas edi...

– Sipolikni qo'ying,– dedi Olim Akbarovich arman konyagiga qo'l cho'zarkan.– Ichmaydigan yigit bormi hozir. Yoshimiz bir joyga borib biz ichamiz-ku. Uning ustiga ko'nglingizga olmang-u, tanishuvga chaqirganimda konyak ichganingiz esimda. Ochig'i, o'shanda menga yoqib qolgansiz. O'zimga o'xshagan dangal yigit ekan, deb o'ylaganman. Ba'zi oliftalar bor, biron joyga borib qolsa ichmayman deb, noz qiladi. Aslida tomog'i taqillab turadi.

Tanishuv kunini eslab ham kulgisi qistadi, ham xijolat chekdi. O'shanda Sa'dulla avval rad qilmoqchi bo'ldi, keyin birdan dadillashdi, «E, nima qipti, bugun bo'lmasa ertaga ko'radi bari bir. Onda-sonda bir-ikki qadah ichiladi-da»,– deb shartta konyakni ichib yuborgandi.

Demak, o'shanda Olim Akbarovich e'tibor bergan ekan-da, Ha, qari tulki...

Olim Akbarovich billur qadahlarga konyak quydi.

– Yigitning guli konyak ichib orqasidan qazi bilan ikra zakuska qiladi. Nima dedingiz, o'g'lim. – Sa'dulla indamay, kulib qo'ygach, xotini bilan qiziga shampanli qadah uzatdi. – Qani, olinglar, tinchlik-omonlik bo'lsin, bayramlar yaxshi o'tsin.

U qadahni bir ko'tarishda oqladi. Sa'dulla ham oldi. Muazzam opa bilan Feruza bir ho'plash bilan kifoyalanishdi.

– Xo'sh, ishlar qalay?– dedi Olim Akbarovich Sa'dullaga mehribonlik ohangida.– Dissertatsiya bitay deb qoldimi?

– Rahmat, yaxshi. Asta-sekin ishlayapman.

– Menga qarang, rahbaringiz anavi qari professor emishmi? – dedi Olim Akbarovich tahqiriromuz ohangda.

Shubhasiz, Sa'dulla og'rindi, lekin sir boy bermay, vazminlik bilan javob qildi:

– Ha, o'sha...

– Shu kapasassiq choldan boshqa odam qurib ketganmi-di sizga rahbarlik qiladigan? Bironta yoshroq, dangalroq odamga uchrashmapsiz-da. U choldan yorug'lik chiqmaydi. O'zidan boshqani tan olmaydigan o'taketgan nigilist odam. Birovning yutug'ini ko'rolmaydi, eng yomoni ana shunda... Qo'ng'iroq qilaymi, rahbaringizni o'zgartirishsinmi?

– Yo'g'-e. – dedi Sa'dulla birdan, go'yo hozir u kimgadir telefon qiladiganday.

– O'zingiz bilasiz, – dedi Olim Akbarovich salmoqlab. – Man aytdim-qo'ydim-da. Shu cholga kuningiz qolsa, bilmadim, necha yilda yoqlar ekansiz.

Sa'dulla indamadi. To'g'risi shuki, u keksa professorga o'rganib qolgan, uning samimiy maslahatlaridan qoniqar, doim bu oqil odamga munosib bo'lishga tirishar edi.

Bu mavzuda boshqa gap ochildi.

Suhbat ancha davom etdi. Kayf qila boshlagan Olim Akbarovich o'tgan-ketgandan va boshidan kechirgan voqealardan goh kulib, goh hazin tortib so'zladi. Bu orada shisha tagi ko'rinib qoldi. Qaynota yuzlari xo'rozning tojisiday qip-qizil rangga bo'yaldi. U kresloga yastanib sigaret tutatdi.

– Menga qarang, o'g'lim, – dedi u sigaret tutunini osmonga puflarkan. – Ayollar yo'qligida aytay sizga, bir gapingizdan biz biroz ranjidik.

– Qaysi gap ekan? – dedi Sa'dulla sergak tortib.

– Nima gapingiz, tanqidiy fikringiz bo'lsa to'g'ri o'zimizga aytavering. Ayollarni o'rta qo'shib nima qilasis.

Sa'dulla hang-mang bo'ldi.

– Hech narsaga tushunolmayapman-ku.

– Ko'pam o'zingizni go'llikka solavermang. Ko'rib-bilib turibman, sizam juda anoyilardan emassiz.

– Ochiqroq gapiring, Olim Akbarovich.

Sarxush qaynota kresloni orqaga-oldinga tebratib chayqalib o'tirar, sigaretni huzur qilib tortar edi.

– Biz qachon, kimdan pora olibmiz?

– Men qayoqdan bilay,— dedi hovliqib Sa'dulla.— Bu gaplarning menga nima dahli bor?

– Bilmasangiz... Feruzaga aytibsiz-ku, dadang poraxo'r, onang o'g'ri, bog'cha bolalari haqidan yuladi, shuning uchun ular bilan birga turmaymiz, deb... Obqoching-e!

Sa'dullaning boshiga og'ir narsa urilganday bo'ldi. Tili kalimaga kelmay, kalovlanib qoldi.

– Shunaqa,— dedi Olim Akbarovich,— to'g'ri gapning tig'i o'tkir keladi.

Bazo'r o'zini qo'lga olgan Sa'dulla:

– Axir bu... bu menga tuhmat-ku, Olim Akbarovich! — dedi bo'g'ilib. — Men bunday deganim yo'q! Hozir Feruzani chaqiraman.

– Guvohning hojati yo'q.

– Bizning ishimizda guvohsiz hukm chiqarish mumkin emas, — dedi Sa'dulla keskin. Keyin Feruzani chaqirdi. Feruzaning rang-ro'yini ko'rib qo'rqib ketdi. — Feruza, qachon men senga dadang poraxo'r, onang yulg'ich dedim? Ayt, qachon aytdim, mana bu odamning oldida isbotlab ber!

Tomdan tarasha tushganday berilgan savol Feruzani gangitdi.



– Nima gap o‘zi?

– Ayt deyapman senga! – Sa’dullaning ovozi balandlab ketdi. U hozir xotinini sensirayotganini ham sezmasdi.

– Bunday deganingiz yo‘q.

– Menga aytma, mana bu odamga, muhtaram dadangga ayt bu gaplarni. – U boshini kaftlari bilan changalladi. – E tavba, bu qanday savdo-ya!

Shovqinni eshitib, oshxonadan Muazzam opa ham yugurib keldi.

– Ha, ha, dadasi tinchlikmi? – dedi Muazzam opa jovdirab. Lekin uning savoliga eri emas, kuyovi javob berdi:

– Tinchlikmas. Tuhmat ham evi bilan-da!

Rangi quv uchgan Olim Akbarovich o‘ljasi ustiga bostirib borayotgan sherday o‘kirdi.

– Ko‘p artistlik qilmang, kuyovto‘ra! Guvoh o‘zingiz tarafda bo‘lgandan keyin albatta yoningizni oladi-da.

Achchiq pichingni eshitib Feruza o‘zini tutolmadi.

– Ada!

– Shu birgina xitob hammani hushyor torttirdi. Turing, Sa’dulla aka, ketdik!

Ular xayr-ma’zurni ham nasiya qilib jo‘nashdi...

Bu voqeani eslab og‘ir xo‘rsinishdi.

– Shunday ekan, nega mani qistaysiz?– dedi Feruza.

– Faqat sizni o‘ylaganimdan...

– Yo‘q,– dedi Feruza keskin.– Agar mani o‘ylasangiz o‘z ixtiyoringa qo‘ying. Man sizsiz hech qachon hech qayerga bormayman. Hammasi yaxshi bo‘lib ketishiga ishonaman. Boshqalar ham hamma narsaga birdan erishmagan. Asta-sekin turmushimiz izga tushib ketadi. Faqat ikkovimiz chidasak, bardosh bersak bas.

Sa’dulla Feruzani bag‘riga tortdi...

## XII

Sentabr oxirlab qoldi. Daraxtlarning bargi sargʻaygan. Oʻrik barglari esa qip-qizil – qonga boʻyalgan kabi. Oftobda toblanib yotgisi keladi odamning. Bahor oftobiga kelingni sol, kuznikiga qizingni, deb bekorga aytishmagan-da.

Zarbuvi oʻrik, tut barglarini supurib bir joyga uydi. Ikki-uch kun oldin qora sovuq qilichini bir serpib oʻtgan edi, shundan beri yaproqlar duv-duv toʻkiladi.

Aliqul ishdan ertaroq kelib hovlidagi toklarni koʻmdi. Zarbuvi har kungi tashvishi bilan oshxonaga kirib ketdi.

– Hormang, togʻa!

Aliqul yalt etib darvoza tomonga oʻgirildi: Xolmat.

– Bor boʻl,– dedi Aliqul jiyaniga,– Ke, qalaysan?

– Yordamlashib yuboraymi?

– E-e, yoʻq, oʻzim har kun ishdan keyin besh-olti tupdan koʻmib ermak qilyapman. Qani, uyga yur.

– Koʻmaylik tokni avval.

– E, qoʻysang-chi, koʻmiladi-da, nima, bir gektar bogʻim bormidi-ki...

Ayvondagi chorpoyaga chiqishdi. Togʻa-jiyanning gʻoʻn-gʻir-gʻoʻngʻir ovozini eshitgan Zarbuvi yugurib kelib, koʻrpacha soldi, dasturxon yozdi. Qand-qurs, meva-cheva keltirdi. Aliqul choyni qaytardi.

Xolmat oʻzini har qancha xotirjam, xushnud tutishga urinmasin, nimadandir bezovtaligi, koʻnglida turli fikrlar gʻujgʻon oʻynayotgani sezilib turardi. Bu uning parishonligi, togʻasi bir gapni soʻrasa u chalgʻib boshqa narsani soʻzlashida bilindi. Aliqul jiyanini bunday holatda koʻrganini eslayolmaydi, ammo indamay oʻtirdi, sabr qildi. «Balki oʻzi bir narsa der. Dardini yorar, jinday kutay-chi...»

Aliqulning o'yi to'g'ri chiqdi. Bir-ikki piyola choy ichish-gandan so'ng Xolmat yorildi.

Tog'a, maslahatga keluvdim,— dedi ko'zini bir nuqtaga qadab. Aliqul unga tagdor qaradi.— Toshkentga, qayningiz-ning oldiga borsammikan, deyman.

Xolmat maktabni bitirgandan beri qo'nim bilmaydi. Otasi mashhur kolxozning rasi — goh u yerga, goh bu yerga joylab qo'yadi, lekin erka o'g'il besh-olti oydan ortiq ishlayol-maydi. Otasi mashina olib bergandan keyin esa umuman ish haqida o'ylamay qo'ydi. Kuni Samarqandda o'tadi, ki-rakashlik qiladi, har xil qizlarni mindirib kayf-safo suradi. Oxirgi ikki-uch yilda esa yangi odat chiqardi — Sibirga qatnaydi. Aliqul mavridi bilan bir-ikki gapirdi: «Senga sayoqlik nima kerak, jiyan? Qorning och qolyaptimi, usting yupunmi? Palakat bosib qo'l-po'lga tushib qolsang, hammasi rasvo bo'ladi-ku!..»

Yo'q, quloq solmadi. «Men pul uchun boramanmi, tog'a. Tomosha-da, o'ynab kelaman. Qolaversa, besh-olti tanga ziyon qiladimi». Ko'za kunda emas, kunida sinishi rost ekan. Shu yil erta bahorda pomidor, bodring, rediska olib bora-yotganda qo'lga tushibdi. Otasining bormagan joyi, iltimos qilmagan odami qolmadi. Oxiri bir amallab ishini to'g'riladi. Bu orada raykom sekretari o'zgardi. Hammasi jamlanib mash-hur raisga ta'sir etdi. U o'g'lini qattiq koyidi. Yarashmagan odatni bas qilishini aytdi. Yaxshiyam, eski raykom davrida sodir bo'ldi, aks holda, onangni uchqo'rg'ondan ko'rard-ing, deb dag'dag'a qildi. Bordi-yu mana bu raykomining zamonida shunaqa xoming chiqib qolsa bormi, dodingni xudoga ayt. Hali o'zim u bilan til topisholmayapman. Bir-

ikki o'tkazgan majlisidan ma'lum, odamga el bo'ladigan siyog'i yo'q...

Rais bekorga javramagandi. Raykomning yangi sekretari hamma bilan birday muomala qilar, bu ilg'or rais, bunisi mashhur, unisi qoloq degan gapni bilmas, byuroda ho'l-u quruq baravar savalanardi. Yillar davomida mashhur, demakki, erka rais bo'lib kelgan xo'jalik rahbarlari buni ko'tarishi, tezda hazm qilishi oson emasdi, albatta.

Po'pisadan keyin Xolmat «tomosha»ga borishni yig'ishtirgan, lekin hamon biron joyda ishlamas edi.

Orada kechgan noxushliklar Aliqulga besh barmog'iday ayon, pochchasining ba'zi qiliqlarini ham singdirolmas, o'rni kelib qolganda opasiga «eringiz osmonda yuradi-ya, aytsangiz-chi, axir, sal pastga tushsin, bunaqa yurish-turishning oqibati yaxshilikka olib bormaydi», degan edi. Xom sut emgan bandai ojiz o'z aybini o'zi ko'rishi u yoqda tursin, birov do'stona, samimiy aytsa ham to'g'ri qabul qilavermas ekan. Aksincha, bu meni ko'rolmayapti, menga hasad qilyapti, deb battar avjiga chiqarkan. Bu "fazilat"lardan Aliqulning pochchasi ham xoli emasdi. Shu bois Aliqulning dashnomlari unga chivin chaqqanchalik ta'sir etmadi, u o'z bilganidan qolmadi. Aliqul esa unga umuman e'tibor bermay qo'ydi. Rost-da, qadrini yerga urib nima qiladi.

Ikki-uch aytdi — quloq solmadi, bu yog'iga bilgan namozini o'qisin, o'pka-ginasi ham o'zidan qolsin.

Ammo... etdan tirnoq ajrarmidi. Ming menga nima degani bilan, beparvo bo'lolmadi. Pochchasi tashlagan qadamlarni kuzatib yurdi, o'zicha achindi, kuyindi. Raykom byurolarida tik turg'izib qo'yib savalashganini, u yerdan suvga tushgan mushukday shalvirab chiqqanlarini goh undan, goh bundan

eshitib ichidan qirindi o‘tdi. Lekin masala shu darajaga yetganini bilmagan edi. Xolmat Toshkentga – Sa’dullaning oldiga boraman, deb keptimi, demak ahvol jiddiy. U Sa’dullaning oldiga bekorga bormaydi. Biladi, uning yuristlardan oshnasi ko‘p, qolaversa, qaynotasi ministr o‘rinbosari, qayga uzatsa qo‘li yetadi.

– Nima gap, tinchlikmi? – dedi Aliqul uzoq sukutdan so‘ng.

– Xabaringiz bor, hozir paxtakor tumanlarda tekshir-tekshir ketyapti. Qo‘shib yozganlar, pora olganlar fosh etilyapti. Otam, bu to‘lqin bizning tumanga ham albatta keladi, deydi. Raykomning uchiriqlaridanam bu ma‘lum emish. Shuning uchun g‘alva boshlanib qolmasdan oldini olish kerak, deydi otam.

– Nima, otangning ham qallobligi borakanmi? – deb o‘smoqchiladi Aliqul.

– E, tog‘a, – dedi Xolmat qizishib, – buni hamma biladi-ku. Kim halol bajaryapti plandi. Yuz bosh sovliqdan yuz ellik, yuz oltmish qo‘zi olib bo‘ladimi, o‘zingiz o‘ylang. Go‘sht, sut, jun planiyam nechchi yildan beri qog‘ozda bajariladi-ku.

– Nimaga shunday qiladi? Qilmasin edi!

– Obbo! – Xolmatning jahli chiqib ketdi. – Bitta mening otam qilyaptimi? Hamma joyda ahvol shu. Paxtakor xo‘jaliklarda bo‘lgan ishlarni eshitsangiz og‘zingiz ochilib qoladi. Haliyam, bizning tumanlarda insof bor ekan, deysiz... Eng yomoni otam geroylikdan qoldi-da, eski raykom tayyorlayotgan edi.

Aliqulning ensasi qotdi. Indamay choy ho‘pladi.

– O‘zingni ishing nima bo‘ldi? Tinchidimi? – dedi bir-ozdan so‘ng.

– Hali qayoqda tinchiydi. Shuniyam gaplashaman-da, Sa’dulla bilan.

Bir hafta burun Xolmat mast holda mashina haydab ketlayotib hamsoya qishloqdan bir bolani urib yuborgan. Sho’rlik bola kasalxonada: ota-onasi boshida ezilib, yurak yutib o’tiribdi. Bola tuzalib ketsa-ku, xo’p-xo’p, ishi sal yengillashar, ammo falokat bosib bir gap bo’lsa bormi – Xolmatga bu yerlarda yurish ortiqchalik qiladi.

Aliqul og’ir o’yga tolib, jim qoldi. U nigohini bir nuqtadan uzmay choy ho’plardi. «Otasini aytyapti-yu, asli maqsadi – o’zining dardi. Bo’lmasa Toshkentga borib ham o’tirmasdi. Birov uchun jon kuydiradiganlardan emas bu. Otasiyam bir pul bu uchun... O’zining ishini tinchitish...»

Zarbuvi ovqat keltirdi, o’zi ham bir chekkada o’tirdi.

– Suhbatga xalaqit bermaymanmi? – dedi u eriga yuzlanib.

– O’tiraver, nimasiga xalaqit berasan. Qani, Xolmat, ovqatdan ol-chi.

Xolmat kosani oldiga yaqinroq surdi-da, qoshiq bilan bir qo’zg’ab qo’ydi: sho’rva ekan.

– Sa’dulla bilan bir maslahatlashib kelsam, deyman-da. Qani, nima deydi. Har holda uning sud-pudlardan tanishi ko’p, qolaversa, qaynatasi katta odam.

Ukasi nomini eshitib Zarbuvining qulog’i dikkaydi. Ammo odob yuzasidan oraga suqulmadi.

– Suv kelmasdan quloqni bog’lab qo’yaylik. Ehtiyot shart yaxshi-da,— dedi Xolmat ovqatdan ho’plab.

– Ixtiyoring. Lekin shartmikan? Hali bolaning ota-onasi nima deydi.

– E, ularni bilmaysiz, tog’a. Arzimagan narsa uchun olamga jar soladi.

Aliqulning jahli chiqdi.

– Bu arzimagan narsami?! Bolasini bosib ketsang, u shoʻrlik ana ketdi-mana ketdi boʻlib yotsa... Seningcha bu arzimagan narsami? Pichoqni avval oʻzingga ur, ogʻrimasa boshqaga... Bolaning otasi oʻrniga oʻzingni qoʻyib koʻr-chi. Seni oʻgʻlingni birov mashinasida urib ketsin-chi... Haliyam ular indamayapti. Fikri-yodi bolasining omon qolishida... Arzimagan narsa deydi-ya...

– Meni qamab qoʻyishsa xursand boʻlasizmi? – dedi Xolmat jahl bilan.

– Birovning yomon kunidan kuladigan ablahlardan emasman! Sen-ku hali jigarimsan...

Zarbuvi chidayolmadi:

– Nima gap oʻzi?

Xolmat voqeani qisqacha bayon qilib berdi. Zarbuvi uning soʻzlarini tinglar ekan, Saʼdulla bilan bundan bir necha yil oldingi suhbatni esladi. Salima bergan roʻmolchani Saʼdulla olovga tashlayman deganida, oʻzi olib qoʻygani yodiga tushdi. Oʻsha roʻmolcha hozir ham turibdi. Bundan Xolmat bexabar. Xoʻsh, bordi-yu, u Salima bilan Saʼdulla oʻrtasidagi munosabatdan voqif boʻlganida nima oʻzgarardi? Zarbuvi bu savolga aniq, javob topolmadi.

– Shunga sizlar bilan bir maslahatlashay, deb keluvdim, yanga, – dedi Xolmat jimlikni buzib.

– Men nima deyman, – Zarbuvi yer chizdi. – Borsangiz borarsiz, lekin uning qoʻlidan nima keladi, bilmayman.

«Qoʻying, qallob ishlaringizga ukamni aralashtirib, boshini qotirmang. Oʻzi dissertatsiyasi choʻzilib xunob boʻlib yuribdi», demoqni oʻyladi Zarbuvi, biroq yuz mehri issiq – aytoilmadi. Aksincha indamay turib ketdi. Aliqul sezdi,

Xolmatning muddaosi Zarbuviqa yoqmadi. Uning odati shunaqa: suhbatdoshi arzi-holini xushlamasa adi-badi aytishib o'tirmaydi-yu, jimgina jo'nab qoladi.

– Bir borib ko'ray-chi,— dedi Xolmat,— ilojini topsa yordam berar, bo'lmasa yo'q-da. Manzilini bilasizmi, tog'a.

– Men yaxshi bilmayman, hozir yangangdan so'raymiz.

Aliqul xotinini chaqirib, manzil so'radi. Zarbuvi manzilni bilmayman ham demadi, bormanglar ham deya olmadi.

– Keliningizni ham olib borsammi deyapman, yanga. Bahonada bir tomosha qilib kelsin. Hech qayoqqa olib bormaysiz deb, quloq-miyani yegani yegan.

«O'zi birovning hovlisida sig'indiga o'xshab o'tirsa... Bular to'zishib borsa, qayerga joylashtiradi. Tag'in ustiga yosh bola...»

– Kelinni boshqa safar olib borsangiz tuzukmi?— dedi Zarbuvi oxiri. – Hozir bunaqa tashvishlar bilan tomosha yurakka sig'adimi.

– Tashvish bo'lib nima qipti, qamalib ketayapmanmi. yuragimga hech narsa sig'masa. Ham dam olganing, ham beda o'rganing deganday, bahonada aylanib kelamiz-da. Yana kim olib boradi deysiz uni Toshkentga...

\* \* \*

Ana-mana deguncha Ulug'bek bir yoshga to'ldi. Feruza shundan beri kecha-yu kunduz o'g'li atrofida parvona. Sa'dulla ham go'dakkinaga bog'lanib qolgan: ishdan yuragi siqilib kelgan kunlari shu bilan ovunadi, uning beozor kulgilarini eshitib, barcha tashvishlarini unutadi.

Farzand tug'ilsa ota-onam bilan munosabatimiz izga tushib ketar, deb o'ylagandi Feruza. Yo'q, aksincha, munosabatlar tori battar taranglashsa taranglashdiki, ammo sira



bo'shamadi. Feruza ana shu torning uzilib ketishidan juda cho'chiydi, hatto bu hodisa kechalari tushiga kirib chiqadi. Axir ota-onadan kechib bo'ladimi? Aslida na Feruza, na Sa'dulla unday fikrni xayoliga keltiradi. Ikkovi ham iloji boricha munosabatlarni yaxshilashga, farzandlik burchlarini bekam-u ko'st ado etishga intiladi. Lekin qars ikki qo'ldan chiqarkan-da!

Bir kuni kutilmaganda Muazzam opa kirib keldi. Ochig'i, bu tashrifdan Sa'dulla u yoqda tursin, Feruzaning o'zi ham taajjubga tushdi. Chunki Feruza ko'z yordi, o'g'li mana ikki-uch oylik bo'ldi, Muazzam opa yolchitib kelgani, holing qalay, deb astoydil so'rab-yo'qlagani yo'q. Hammasi yuzaki. Yolg'on bo'lmasin, Sa'dullaning onasi shu yerdalik paytlarida bir-ikki keldi (Feruza tug'uruqxonaga ketishi bilan Sa'dulla qishloqdan onasini olib keldi, chaqaloqning chillasi chiqquncha kampir ular bilan birga turdi, chaqaloqni qanday yo'rgaklash, qanaqa qilib belash lozim, cho'miltirganda qanday ushlar kerak – hammasini Feruzaga o'rgatdi). Shundayam qabulida odam to'planib qoladiganday bir soat-yarim soat o'tirib ketardi. Bu ham yetmaganday, Feruza hovliga chiqishi bilan qudasiga uni yomonlardi. (Qaysi ona o'z qizini qaynonasiga yomonlaydi!) Qudasi esa «Qo'ying, quda, xafa bo'lmang, ishqilib ikkovi qo'sha qarisin. Siz bilan menga shunisi kifoya», deb qo'yadi. Buning sabablari bor. Oldingi mashmashalar ustiga yana mashmasha qo'shildi. «Tug'uruqxonadan chiqib to'g'ri uyga kel», dedi Muazzam opa. Feruza oldiniga ko'ndi ham. Lekin yana o'yladi: «Har narsani o'rgataverib, tanbeh beraverib odamning yuragini qon qilib yuboradi». Shu fikrdan keyin u oyisining uyiga borishni rad etdi-yu tug'uruqxonadan to'g'ri kampirning hovlisiga keldi. Bu Muazzam opaga ham, Olim

Akbarovichga ham alam qildi. «Odam degan ham shunaqa o'jar, bir so'zli bo'ladimi?»

Bugungi tashrifning ma'nosi ne?

Muazzam opa qizidan, kuyovidan hol-ahvol so'radi, nevarasini olib suydi. Ochilib-sochilib o'tirdi, choy ichdi, qand-qursdan ermak qildi.

Yoz kuni charaqlab turgan quyosh yuzini qora bulut qoplab yomg'ir quyib bersa qanday hayratga tushasiz. Hozir daf'atan shunday hol ro'y berdi. Bir qop yong'oqday shaldirab o'tirgan Muazzam opa bir zumda o'zgardi-qoldi. Qovoqlari osilib, lablari burishdi. Sa'dulla bilan Feruza garang: nima bo'ldi?

– Uy deganga sal qarash ham kerak-da, – dedi Muazzam opa dab-durustdan, – o'zi moxovning kaftiday hovli-yu shuniyam supurib-sidirib o'tirolmaysanmi? Manavi piyolangni qara, odam choy ichishga hazar qiladi.

– Nima qipti piyolaga? – deya oldi Feruza.

– Nima qipti emish?!

Nihoyat, Feruza angladi, u oyisiga labi uchgan piyolada choy quyib bergan ekan. Qizarinqirab uzr so'radi, boshqa miq etolmadi.

– Yosh bola bilan o'ralashib vaqtida supurib-sidirolmayapti-da, opa. Asta-sekin hammasi yaxshi bo'p ketadi, – dedi Sa'dulla.

– Qachon?! Qachon yaxshi bo'ladi?

Labi uchgan piyola haqidagi gap aslida Sa'dullaga qaratilgan edi. Nishonga ustakorlik bilan otilgan kesatliq zamirida juda ko'p ma'no yashiringanini Sa'dulla biladi. Lekin uyiga kelganni it qopmas degandek, indayolmadi, tishini-tishiga bosdi. Muazzam opa esa ovozini yanada balandlatdi.

– Qanaqa erkaksiz, o'zi, kuyov? Er degan xotini sal qo'lga olishi kerak-da. Ammamning buzog'iga o'xshab

lalaymang. Ha, ayting, manavi oyimchaga, sal-pal odamlik siyog'i bordir axir, u yoq-bu yoqni yig'ishtirib o'tirsin. Qachon qarasang qo'lidan kitob tushmaydi. Shuncha o'qiganiyam yetar. Ja o'qib shahar olib berarmidi sizga!

Ajabo, bu ta'na-dashnom oqavasi qayoqqa ketyapti? Maqsad nima o'zi? Nega endi qizini kuyoviga yomonlab qoldi? Bu kalavanning uchi qayerda?

Har qalay Sa'dulla pisanda savilni ko'tarolmaydi. Bunga odatlanmagan. Axir haq-nohaq qoshingda bidirlayverishsa, u eng yaqin kishing bo'lgan taqdirda ham, yoqmaydi-da! Qolaversa, odamni to'g'ri izga soladigan pand-u dashnomning yo'rig'i bo'lak...

– Oyi! – dedi Feruza keskin. – Nima demoqchisiz o'zi?! Kuyovingizga chaqib meni urishtirmoqchimisiz? Kelgan bo'lsangiz – xush kelibsiz, oldingizga qo'yganimni yeb-ichib ketavering-da. Nima qilasz tirnoq ostidan kir qidirib. Bizni tinch turmushimiz sizga yoqmaydimi? Ba'zilarga o'xshab hafta-o'n kunda oldingizga yig'lab borsam, ko'nglingiz joyiga tushadimi? Muddaongiz nima o'zi? Qo'ying axir bizni o'z holimizga! Shukur, endi o'g'limiz bor.

– Senga xudo bas kelmasa, bandasi bas kelolmaydi. Muazzam opa jahl bilan o'rnidan turdi.

– Ko'rdingizmi, kuyov, – dedi Sa'dullaga. – Siz buning sovuniga kir yuvganingiz yo'q, bilmaysiz buni. Hali ko'rasiz, sizniyam rosa oborib-opkeladi.

Yo, alhazar! Ona o'z qizini kuyoviga yomonlab tursa – bu qanday savdo? Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqea. Yoki bu bir yo'limikan? Qizini chiqarib olish maqsadida qilinnayotgan hiylamikan?

Ichi tiralayotgan bo'lsa ham Sa'dulla o'zini bosdi, iloji boricha vazmin muomala qilishga intildi.

– Qo‘ying, opa, siz ko‘p kuyinavermang. Hammasi izga tushib ketadi. Rosti, sizday aqlli xotinning qizi ahmoq bo‘lishiga ishonmayman. Asta-sekin aqli kirib qolar, hali yosh-da.

Sa‘dulla mo‘ljalni aniq olgan edi. Toshib ketayotgan qaynona picha hovridan tushdi. Xususan, «Sizday aqlli xotinning qizi ahmoq bo‘lishiga ishonmayman», degan iliq e‘tirof og‘ziga qulf kabi tushdiki, tag‘in jazava qilgani botinmadi.

U nima maqsadda keldi, nega bunday qilib ketdi – bunga na Feruzaning, na Sa‘dullaning aqli yetdi.

Shu-shu Muazzam opa qizinikiga boshqa yo‘lamadi...

Ertaga Ulug‘bek tug‘ilgan kun, Feruza tayyorgarlik ko‘rmoqda. To‘rxalta ko‘tarib Sa‘dulla keldi. Darvoza oldidagi stulchada sigaret tutatib o‘tirgan kampir gap tashladi:

– Keldingizmi, otam, kelinim bechora ertalabdan beritingani yo‘q, kechqurun mehmon keladimi deyman, a, otam?

Sa‘dulla indamay uyga kirib ketdi. U nimadandir bezovta ekanligini Feruza sezdi.

Tinchlikmi?– dedi xavotir olib Feruza. – Yana kafedrada janjalmi? Shu dissertatsiyadan voz kechib qo‘ya qolsangiz nima qiladi? Nima zaril sizga shuncha asab buzarlilik? Kandidat bo‘lmasangiz kunimiz o‘tmay qoladimi?

Qariyb bir yildirki, Sa‘dullaning dissertatsiyasi ustida munozara boradi. Kafedradagilar o‘z-o‘zidan ikki guruhga bo‘linib qolgan. Sa‘dullaning ilmiy rahbari ko‘pni ko‘rgan, o‘z sohasining bilimdon olimlaridan. Ayni vaqtda prinsipial, har qanday sharoitda ham adolat tarafida turadigan odam. Ko‘pchilik uni, men to‘g‘ri – tayoq to‘g‘ri, deydiganlardan, deb orqasidan masxara qilib yuradi. Shu fe‘li tufayli doktorlik dissertatsiyasi ham ikki marta qaytgan. Lekin ushlagan joyini kesib oladiganlardan ekanligini chindan isbotladi, boshlagan

ishini oxiriga yetkazmay qo‘ymadi. Uch yil oldin dissertatsiyasini uchinchi marta himoyaga qo‘ydi va bu safar niyatiga yetdi. Shunda ko‘pchilik uning irodasiga, matonatiga tan berdi. Hatto uni ko‘rolmay yurgan, oldingi himoyalarda oyog‘idan chalganlar ham bu gal mum tishlab qolishdi.

Kafedra o‘qituvchilarining bir guruhi shu odam tarafida, boshqa guruhi esa kafedra mudiri — doim kulib turadigan, hech kimga hech narsada yo‘q demaydigan, lekin biron-bir ishni bajarmaydigan, natijada «va‘daboz» deb nom olgan professor tomonida. Qurgur professor shunday ustamonki, har qanaqa odamning u yengidan kirib bunisidan chiqib ketadi. Rahbarman deganning ko‘ngliga yo‘l topishda hech kim uning oldiga tusholmaydi. Shu xislati tufayli u universitet kazo-kazolari bilan, ministrlkdagi katta-kichiklar bilan, hatto, garchi boshqa sohada ishlasa-da, Olim Akbarovich bilan ham og‘iz-burun o‘pishib yuradi.

Sa‘dullaning dissertatsiyasi bir necha bor muhokama qilindi. Har gal o‘sha kafedra mudiri hali xom, pishitish kerak, degan fikrni aytaverdi. Dastlab uning yonini ikki-uch kishi olgandi, asta-sekin ularning safi kengaydi. Sa‘dullani himoya qiladiganlar ozchilikni tashkil etib qoldi. Bundan Sa‘dullaning yuragi siqilar, demak himoya qilolmas ekanman-da, deb ezilardi. Domlasi taskin berar, parvo qilma, o‘g‘lim, yaxshi ish bari bir qadrini topadi, faqat ruhan tushma, o‘zimdan qiyos, deb uni ovutardi. Shogirdini ovutardi-yu, o‘zi ichidan zil ketar, kafedra mudiriniig baxilligidan jahli chiqar edi.

Mojarodan Feruzaning ham xabari bor. Hozir o‘shanga ishora qilgan edi.

— Yo‘q,— dedi Sa‘dulla, — kafedrada tinchlik. Lekin oyin-giz sizni bir kelib ketsin, depti. Kafedraga telefon qipti.

– Nima gap ekan? – Feruzaning ko‘ngliga xavotir tushdi. Chaqirish u yoqda tursin o‘zi borsa ham unchalik ro‘yxushlik bermaydigan oyisi nega yo‘qladi ekan? Hoynahoy bekorga emasdir. – Oyimning o‘zlari qo‘ng‘iroq qiptilarmi? Kim gaplashipti?

Ha, oyingizni o‘zi telefon qipti. Zavkafedra aytdi menga.

– Bo‘lmasa... ish o‘lgur ham... yaxshisi qo‘ng‘iroq qilaman. Ulug‘bek uyg‘onsa, ovutib turarsiz.

Feruz a qil-tapil kiyindi-da, chiqib ketdi. Hamon sigaret chekib o‘tirgan kampir «Ha, onam, kech tushganda yo‘l bo‘lsin», deganicha qoldi.

Sa‘dulla kiyimini almashtirdi, hovliga chiqib, vodoprovodda yuvindi. «Xotiningiz qayerga ketdi, otam?» dedi kampir. Nima ishi bor ekan qayerga ketgani bilan. «Hozir keladi», deb qo‘ya qoldi. Keyin ovqat quyib kelib ichdi. Kosani oshxonaga eltib qo‘yib endi choy damlayotgan edi, darvoza taqilladi. Kampir o‘tirgan joyidan baqirdi.

– Sa‘dullaxon, otam, darvoza taqillayapti, qarang-chi, kim keldi.

Sa‘dulla darvozani ochdi-yu hang-mang bo‘lib qoldi. Ostonada Xolmat, uning yonida bola ko‘targan Salima turar edi.

– Kutmovdingmi?

Rost, kutmagan edi. Lekin bu gapni qaysi o‘zbek mehmonga aytadi?!

– Nega, endi, marhamat, – dedi Sa‘dulla. – Seni atay kutishim shartmi, qachon xohlasang kelaver, eshigimiz ochiq.

Xolmat quchog‘ini ochdi, Sa‘dulla ham uni noqulay ahvolda qoldirmaslik uchun qulochini yozdi. Salima bilan qo‘l olib ko‘rishishdi.

– Qani, kiringlar ichkariga.

Mehmonlarga divandan joy ko'rsatdi-da, o'zi stulga o'tirdi. Hol-ahvol so'rashigach:

– Aybga buyurmaysizlar, hammayoq to'zib yotipti,– dedi Sa'dulla.

– Kelin qayoqda, ko'rinmaydi?

– Hozir kep qoladi, bir zarur ish bilan chiquvdi.

Shu mahal Ulug'bek uyg'ondi. Sa'dulla aravachani tebratdi, lekin qani endi u tinchisa, battar yig'laydi, Salima bolasini divanga yotqizdi-da, borib Ulug'bekni ko'tarib oldi. «Tagi ho'l bo'пти», dedi uyalib-tortinib. Sa'dulla unga shkafning bir tokchasini ko'rsatdi.

– Mana shu yerni qarang, kiyimlari bo'lishi kerak. O'ziam yaxshi bilmayman.

Ulug'bekning kiyimlarini Salima almashtirdi – u jimib qoldi. Salima Ulug'bekni o'ynatar ekan, uning qosh-ko'zlariga termildi: xuddi otasining o'zi, peshonasining kengligiyam, og'zining kattaligiyam – hamma-hammasi otasining o'zginasini, shunday uzib olib yopishtirib qo'yganday. «Demak, xotini Sa'dulla akani judayam yaxshi ko'rar ekan-da».

Sa'dulla dasturxon yozdi, choy qo'ydi. «Hozir Feruza kelib qoladi», deb ovqatga tegmadi. O'zi bir yo'lini qilmasa, uning qo'lidan nima kelardi.

Endi bir piyoladan choy quyuvdi Feruza keldi. Yuzida tashvish alomati zohir. Mehmonlarni ko'rgandan so'ng sal chiroyi tetiklashdi.

– Nimaga hech narsa qo'ymay, quruq choy bilan aldab o'tiribsiz mehmonlarni,– dedi Sa'dullaga ginaomuz. O'zi darrov ishga tushib ketdi, kolbasa, pishloq kesib keldi, sariyog' qo'ydi, turli konfetlardan oldi. Keyin biroz o'tirib hol-ahvol so'rashdi. «Sizlar gaplashib turinglar, men hozir», dedi-yu

oshxonaga chiqib ketdi. Birozdan so'ng uning orqasidan Sa'dulla keldi.

Tinchlikmikan? – dedi Sa'dulla.

– Bilmadim, ochiq aytmadi. Telefonda bo'lmasmish. Feruza chuqur uh tortdi.

– Mehmonlar qachon kelishdi? Xolmat degan o'rtog'ingizmi? Xotini qayerdadir ko'rgandayman.

– Ko'rgansiz, – dedi Sa'dulla, – huv bultur Samarqanddan qishloqqacha yo'lovchi mashinada biz bilan birga ketuvdi.

– Ha, esimga tushdi, oti Salimamidi?

– Ha... Ovqatni tezlashtiring, men mehmonlarning oldiga boray. Zerikib qolishmasin.

Yo'q, mehmonlar zerikmapti. Kampir kirib hangomalashib o'tiribdi. U sigaretini burqsitib tutatgancha, qayoqdagi oldi-qochdilarni xuddi o'zi ko'rganday qilib kelishtirib so'zlardi. Sa'dullani ko'rib o'rnidan turdi.

– Keldingizmi, otam, mehmonlar bilan hasratlashib o'tiribmiz-da. Mayli, endi man borib biroz cho'zilay, charchab ketaman, deng, otam.

– Qarichilik-da, – dedi Xolmat.

– Kim biladi deysiz, otam. Aslida hali uncha qariganim ham yo'q. Endi yetmishga bordim. Yoshligimda morojniyxonada ishlaganman-da, katta-katta muzlarni yelkamda tashirdim. Shularning ta'siri endi bilinyapti, deng, otam.

Kampirning armonini Sa'dulla minginchi marta eshitayotgan bo'lsa ajab emas. Kim kelsa shuni aytib beradi, birov undan yoshligingizda nima ish qilgansiz, deb so'raydimi-yo'qmi – bari bir salom-alikdan so'ng diydiyosini boshlaydi.

Kampir chiqib ketgandan so'ng Sa'dulla bilan Xolmat u yoq-bu yoqdan maromida gurunglashdi. Bolaligini eslab, goh



zavqlanib, goh ma'yuslanib o'tirishganda Feruza ovqat keltirdi. Mehmon hurmati uchun Sa'dulla bir shisha araq qo'ydi. Hazil-hazil bilan shishani bo'shatishdi.

– Qachon uy olasan endi?

Tomdan tarasha tushganday berilgan savol Sa'dullani gangitib qo'ydi. Negaki, u do'stidan har qanaqa hazil, kesa-tiq yoki ta'nani kutgan, aynan shu dilo'rtar so'roqni esa kutmagan edi.

– Berib qolar, mendan oldin ishga kelganlar bor hali, – dedi u nihoyat, allanechuk bo'zarib.

Xolmat sigaret tutatdi:

– Kwartirami? – dedi u nopisandlik ohangida. Sa'dulla bosh irg'adi. – Kwartirani nima qilasan? Uchastka olib qo'ya qolmaysanmi?

Dangal, lekin ichida toshi bo'lgan bu gapdan Sa'dulla bilan Feruza zo'r-bazo'r kuldi. Hali nochorlik changalidan tamom qutulib olishgani yo'g'-u, uchastka haqida o'ylashlari kulgilida, yaxshi ham ertaga Ulug'bekning tug'ilgan kuni bo'lgani uchun bitta-yarimta yo'qlab kelib qolishi mumkin, deb u-bu narsa keltirib qo'yishgan edi. Yo'qsa, mana bu kolbasa-yu pishloq, anavi qimmatbaho konfetlar, hatto hozir Xolmatni sayratib turgan mana shu shisha bo'lish-bo'lmasligi xudoga ma'lum edi.

– Uchastkaga pul qayoqda deysan, jo'ra, – iljaydi Sa'dulla. – Eson-omon bitta kvartira ololsak ham katta gap.

Xolmat kuldi.

– Yo'lini topgan unisiniyam oladi, bunisiniyam. Nima, o'zing domla, qaynotang amaldor. Agar menda shunday imkoniyatlar bo'lsa bormi, o'zim bilardim nima qilishni.

«Noshudsan, deb ustimdan kulyaptimi? Shu maqsadda kelganmi oldimga? Men uning ishlariga aralashmayman-ku, u nima qiladi mening turmushimga burnini tiqib».

– Har kimning o‘z yo‘li, o‘z qarashi bor, Xolmat,— dedi xayoldan chalg‘ib Sa‘dulla.— Shuning uchun institutda domla borki, hammasi poraxo‘r degan fikr noto‘g‘ri. Qaynotam esa o‘z yo‘liga.

Hamma og‘ziga tolqon solganday jim qoldi.

– Choy ichib o‘tiringlar,— oradan o‘ng‘aysizlikni ko‘tarishga urindi Feruza.— Oling, siz bulardi gapiga e‘tibor bermang, choy iching, manavilardan olib o‘tiring. – Salima kulib qo‘ydi. Feruza Sa‘dullaga yuzlandi: – Qo‘ying shunaqa mashmashani, mehmonga leksiya o‘qimang, undan ko‘ra...

– Ha, nima urishgan odamlarday xo‘mrayib o‘tiraylikmi, – dedi kulib Sa‘dulla. – Suhbat-da... Ha, bo‘pti, qani, Xolmat, ol, u-bu narsalardan ermak qilib o‘tir.

Sa‘dulla choy ho‘plab konfet tishladi-da, zimdan Salimaga razm soldi. U na choy ichar, na gapirar, kim so‘zlasa shuning og‘ziga termilib o‘tirardi. Ahyon-ahyonda zimdan Sa‘dullani, ko‘proq esa Feruzani kuzatardi. «U nimani o‘ylayapti ekan? Ehtimol menga tegmaganiga shukr qilayotgandir. To‘g‘ri-da, nomi ulug‘ – suprasi quruq erni boshiga uradimi. Xolmatlarning hovlisi qayoqda-yu, mana bu kulba qayoqda, tagida mashina. Menga o‘xshab avtobusga osilib yurmaydi». Sa‘dulla shularni xayolidan o‘tkazar ekan, bir lahza Salimadan ko‘zini ololmay qoldi. «Shunday esa nimaga chehrasida mahzunlik bor? Oldingiday sho‘x-shaddod emas, bir gapirib o‘n kulmaydi. Yuzlari so‘lg‘in, boqishlari g‘amgin. Nega? Sababi nima ekan? O‘ziyam qarimsiq, bo‘p qopti. Yoki bolachaqa tashvishi, uy-ro‘zg‘or yumushlari shu ko‘yga solib qo‘ydimi?! Bu yoqda Xolmatning injiqliklari, bir tomonda qaynona-qaynota deganday... Sho‘rlik halovatni bilmasa. Qishloq sharoiti shu-da. U raisning kelinimi, kolxozchinikimi – bari

bir. So‘fi azon aytmay o‘rnidan turishga majbur, bu yog‘i yarim tungacha g‘imir-g‘imir. Hovli supur, sigir sog‘, choy damla, ovqat pishir, kir yuv... Bu ham yetmaganday kolxozning ishi. Sho‘rlik ayollar! Yana biz ularni go‘zallik ramzi deb, jar solamiz. Qani ularning asl go‘zalligi?! Har kun – yil-o‘n ikki oy shu ahvol. Na dam olishni, na biror joyga borib aylanib kelishni bilishadi: kurort, sanatoriya degan gaplar-ku tushiga ham kirmaydi. Albatta qarimsiq bo‘lib qoladi-da. Loaqal o‘ziga qarashga vaqt topolmasa. Yana, erkaklar bilan huquqimiz teng, deb og‘zi qulog‘ida...»

Ancha uzoq cho‘zilgan o‘ng‘aysizlikdan so‘ng jo‘ralar yana suhbatga berilishdi: bozor-u do‘kondagi narx-navo osmonga sapchigani, meva bilan sabzavotning tori tortilib qolgani, qishloqda mol boqish imkoni qolmayotgani, xullas, shunaqa ikir-chikirlarni qoldirmay ezg‘ilashdi. Bahsga ayniqsa Xolmat dadilroq sho‘ng‘idi. Ichida dardi ko‘p ekan. Hatto ancha qizishdi ham, lekin olis yo‘ldan ichida olib kelgan muddaosini sirtiga chiqarishga shoshilmadi.

Ertasi kuni Sa‘dulla ishga bormadi. Nonushtadan keyin bozorga tushib chiqishi zarurligini oraga qistirdi. Xolmat ham birga bormoqchi bo‘luvdi Sa‘dulla bilan Feruza rad etdi. «Sen Salimani tomosha qildir, Toshkentga birinchi kelishi axir, u yoq-bu yoqni ko‘rsin-da. Feruza olib yurardi-yu, bugun Ulug‘bekning tug‘ilgan kuni, bitta-yarimta kep qolishi mumkin», dedi Sa‘dulla.

– E, shundaymi, tabriklaymiz, umri uzoq bo‘lsin! – dedi Xolmat. Kechga tomon ular horib-charchab kirib kelishdi.

– Qalay. Toshkent yoqdimi? – deb so‘radi Feruza Salimadan.

– Ha, – dedi Salima, – odam charchab ketdi-ey.

U sumkasini ochib chiroyli ko‘ylakcha, jimper oldi-da. Feruzaga uzatdi:

– Manavi Ulug‘bekjonga, tug‘ilgan kuniga bizdan esdalik.

– Nima qilardingiz ovora bo‘lib,— dedi Feruza xijolatomuz. Stol yasatilgan, noz-ne‘matlarga to‘la edi.

– Mehmonlar qani?

Xolmat zimdan kesatdi, shu mahalgacha qaynotang kelmadimi, demoqchi edi aslida. Ertalab u yorilmoqchi edi. Ulug‘bek tug‘ilgan kuni haqidagi xabarni eshitgandan keyin rejasini darhol o‘zgartirdi. Xursandchilikka buvasi bilan buvisi albatta keladi, bahonada ular bilan yaqinroqdan tanishib olaman, keyin dardimni aytishim ham osonroq kechadi, deb o‘yladi.

– Feruzaning bir-ikkita o‘rtoqlari kelib ketishdi,— dedi Sa‘dulla.— Boshqa kim ham kelardi. Hech kim bilmaydiyam buning tug‘ilgan kuni qachonligini. Qani, o‘tiringlar bu yoqqa, mehmon mana sizlar-da. Feruza, ovqatingizni olib keling, bular shahar aylanib ochqab ketgandır.

Feruza bilan Sa‘dullaning ikkita kursdoshi keldi. Uzoq o‘tirishmadi ular ham. Xolmatning xayoli Olim Akbarovich-da edi, rosti, bu alomat mehmonni uy egalaridan ham ko‘ra u ko‘proq kutdi. Nahotki, nevarasining tug‘ilgan kunida kelmasa?

Xolmat bo‘g‘ildi, ichi sidirildi. Nachora, soat to‘qqizdan oshdi hamki, Olim Akbarovichdan darak bo‘lmadi. Bundan Feruza ham hayron. Balki esida yo‘qdir. Kecha aytmapmanam...»

Soat o‘n birlarda Xolmat bilan Sa‘dulla chekish bahonasida hovliga chiqishdi. To‘g‘rirog‘i, bu taklifni Xolmat kiritdi. Axiri u Sa‘dulla bilan yolg‘iz va ochiqchasiga suhbatla-

shishga qasd qilgan edi. Vodoprovod oldida tik turgan cha sigaret tutatishdi.

– Qaynata-qaynanang kelmaydimi? – dedi Xolmat gapni uzoqdan boshlab. – Nima balo, urishib qolganmisizlar yo’?

– Nega urishar ekanmiz. Kelsa ana, kelmasa ixtiyori. Ishi ko’p, vaqti yo’qdir-da.

Allanechuk toqatsizlangan Xolmat sigaret oxirini bosib-bosib tortdi-da, irg’itdi. Noma’lum yoqqa mahzun tikilgan cha sukutga toldi, og’ir xo’rsindi. Peshonasiga tushgan tugunni ko’rib qoldi Sa’dulla.

– Bir maslahatli ish boriydi,– u g’o’ldiradi nihoyat.

– Nimaykan?– dedi Sa’dulla ajablanish bilan do’stining yuziga termilarkan. Bandasi xom sut emgan-da, «xotini bilan o’rtamizda o’tgan gapni eshitib qoldimikan?» degan fikr o’tdi xayolidan...

Xolmat tutila-tutila dardini aytdi.

Sa’dulla dong qotdi: ajabo, hushimi, tushimi? Unchamuncha odamni nazari ilmaydigan raisning o’g’li uning oldiga yordam so’rab kelsa-ya?!

– Men... nima qilishim kerak?

– Yuristlardan tanishing ko’p, bilaman. Undan tashqari, qaynotang zamministr, bir og’iz falon kolxozga tegmanglar, deb qo’ysa, tamom, kimning haddi sig’adi tekshirishga.

Sa’dullaning ensasi qotdi. Biror ma’nili gap kutayotgan Xolmat xafalandi.

– Jahling chiqmasin, Xolmat, lekin gaplaring kulgili-da. Axir hali tekshirish boshlanmagan, bu narsa bo’ladimi-yo’qmi – noma’lum ekan, kimga nima deb aytaman. Mening yuristlardan qanaqa tanishim bor? Kursdoshlarimni bilaman, xolos. Ulardan birontasiniyam bizning tumanga dahli yo’q. Qayn-

otamga kelsak, sen meni to'g'ri tushun, Xolmat, u odamdan men hali hech narsa iltimos qilmaganman, iltimos qilish niyatim ham yo'q... Bosh egishni yoqtirmayman, bilasan-ku odatimni.

– Bu bosh egishmas-ku. Odam odamdan iltimos qiladida, begona bo'lmasa.

– Shu ishdan meni ozod qil, jon jo'ra. Xohlasang ana o'zing bor, shundayam mening jo'ram ekanligingni aytma, aks holda ishing teskari tomonga aylanib ketishi mumkin. Undan keyin u odamning qo'lidan shuncha ish kelishiga ko'zim yetmaydi. Hozir boshqa sohada.

Xolmat yana sigaret tutatdi. Hafsalasi pir bo'lgan edi.

– Boshqa sohada ishlagan bilan hamma yuristlarni tanirkan. ko'pi uning shogirdi ekan, surishtirib bildim-ku... Istasa qiladiku-ya...

Bir zum jim qolishdi. Sukunatni Xolmat buzdi.

– Xo'p, kolxoz masalasida hali vaqt bor desak, o'ziming ishim-chi? Bunisiga yordaming tegar axir. Arzimagan narsa deb, xudo ko'rsatmasin, qamalib ketmayin.

Sa'dulla g'azablandi. «Birovning bolasi o'lim to'shagida yotsa-yu, buning uchun arzimagan narsa bo'lsa... Bu qanaqa toshbag'irlik...»

– Ko'zingga qarab haydasang nima qiladi, yana ichgan ekansan...

– Qiziqsan-a,— dedi Xolmat tishlarini g'ijirlatib,— jo'rttaga qilganim yo'q-ku.

– Bu masalada bir nima deyish qiyin, Xolmat. Hali bolaning taqdiri nima kechadi... – Sa'dulla iloji boricha o'zini qo'lga olib gapirdi. – O'sha yerdagi militsiya, tergovchi-yu prokuror masalani o'rganib chiqib bir narsa der.

Sovuq jaranglagan keyingi so‘zlarni eshitib Xolmatning eti jimirlab ketdi. Go‘yo hozir kela-sola qo‘lini orqasiga bog‘lab olib ketishadiganday tuyildi. Yalingannamo dedi:

– Qaynotangdan iltimos qilmasak bo‘lmaydi, jo‘ra. Har holda oldini olish kerak.

«Tavba, bez ekan-ku toza! Men unga gapirdimmi, devorgami? Quloq solishni istamaydi-ya... Bilganini qilavermaydimi!..»

– Ixtiyor o‘zingda, Xolmat. Boraman desang boraver, men qarshi emasman. Mening fikrim shu... Qani, yur uyga endi. Xotinlar zerikib qolishmasin.

– Menga qara, Sa‘dulla,– dedi Xolmat uning bilagidan ushlab.– Haliyam bir gaplashib ko‘r, qancha desa beraman. Bir tomoni o‘zing ham quruq qolmaysan.

Haligi holat necha chandon dahshatliroq tarzda takrorlandi: qoq tepasida gumbirlagan guldirak yomon chaldi, shunday chaldiki, go‘yo chor tarafga tarig‘ yanglig‘ titilib ketdi.

– Shunaqami? – dedi u zo‘rg‘a hushini o‘nglab. – Qancha berasan?

– Qancha desang... Xolmatning gapi og‘zida qoldi.

– O‘chir ovozingni, ablah!.. Afsuski uyimda mehmonsan...

– O‘zingni bos...

– Sen meni kim deb o‘ylayapsan? Men bu yerda shuning uchun yuribmanmi?! Birinchi kelding, ammo ikkinchi qorangni ko‘rmayin. Men ahmoq jo‘ram kepti mendan hol-ahvol so‘ragani, deb suyunib o‘tiribman-a.

Dag‘al-dag‘al eshitila boshlagan ovozlardan xavotir olib oldin Feruza, keyin Salima tashqariga chiqdi.

– Ha, tinchlikmi? Uyga kirmay, hovlida nima qilib o‘tiribsizlar? – dedi Feruza.

– Menga qara, Feruza, – dedi Sa’dulla jahl bilan. – Boya manavi boyvachcha Ulug‘bekka olib kelgan kiyimlarini hoziroq qaytarib ber. Men birovning sadaqasiga zor emasman!

– Nimalar deyapsiz, Sa’dulla aka!

Salima yig‘lamoqdan o‘zini bazo‘r tiyib gapirdi. Unga qarshi Sa’dulla hech narsa demadi. Indamay uyga kirib ketdi. Orqasidan Feruza kirdi. Nima gap bo‘lganini surishtirdi. Keyin, keyin aytaman, dedi Sa’dulla. So‘ng o‘yga toldi: «Har holda yaxshi ish bo‘lmadi, ko‘nglini qabartirdim. Yotig‘i bilan tushuntirish lozim edi. Erta yuziga qanday qarayman?»

Tunbo‘yi ajriq ustida yotganday u yonboshidan-bu yonboshiga ag‘darilib uxlayolmagan Sa’dulla azonga borib ko‘zi ilindi. Ulug‘bekning chinqirib yig‘laganidan uyg‘onib ketdi. Darhol soatiga qaradi: sakkizdan oshibdi. O‘-ho‘, kech bo‘p ketipti-ku. Irg‘ib o‘rnidan turdi, apil-tapil kiyindi. Narigi xonada hech kimning ovozi eshitilmadi. Feruza Ulug‘bekning kiyimini almashtiryapti chog‘i, ha-ha, mana-mana, bo‘ldi-bo‘ldi, deb qo‘yadi. Sa’dulla horg‘in tovush bilan so‘radi.

– Mehmonlar qani?

– Haydadingiz-ku. Xotini bechora bir ajoyib juvon ekan, yig‘lab esi ketdi. Eriniyam rosa qarg‘adi. Hammasi sizdan o‘tdi, deydi. Sa’dulla indamadi. O‘ziga qarab beozor iljayayotgan o‘g‘lini oldi-da bir-ikki osmonga otib o‘ynatdi. Keyin uni yana joyiga yotqizib qo‘yib, yuvingani hovliga chiqdi... Feruza o‘ylanib qoldi... «Hozir aytaymi? Oldiga tashlaymi o‘rtog‘i berib ketgan narsani? Yo‘q. Jahl ustida turibdi hozir. Keyin, sal hovridan tushsin, aytaman». Shu andisha bilan indamadi.

Kechqurun Sa’dulla ishdan qaytgandan so‘ng juda charchadim, deb erta yotdi. Feruzaning ko‘nglidagi gapi ochilmay



qoldi. U tunbo'yi o'yladi: «Ertalab aytaman, cho'zmasdan hal qilish kerak. Bechoraga yordam bersa beripti-da, nima qipti. Ham ziyorat, ham tijorat, deganday ungayam yaxshi, o'zimizam bir nimalik bo'lib qolamiz. Qadrdon o'rtog'i ekan-ku bировga aytib yurmas.

– Sizam ba'zan juda haddingizdan oshib ketasiz-da,— dedi Feruza nonushta chog'i. Sa'dulla nima gap o'zi, deganday savol nazari bilan xotiniga qaradi. — Rost-da, to'g'riso'zlik ham evi bilan-da. Bitta-ikkita odam shunaqa bo'lsa ekan, hamma shunaqa, zamon shunaqa.

Tush ko'ryaptimi yoki o'ngimi — Sa'dullaning aqli-hushi yetmay qoldi. Esida, kurslarida bir to'poriroq yigit bor edi. Bir bahona bilan yo'q yerdagi to'polonni, janjalni, g'idi-bidini boshlar edi-yu, ammo o'zi oppoq bo'lib qolaverardi, sira sirtiga suv yuqtirmas, shu sabab unga «O'rdak» deb laqab qo'yishgan edi. Bu laqabni unga Feruza qo'ygandi. Mana shu Feruza topgan edi o'shanda! Endi esa... Yo'q, yo'q, Sa'dulla ko'zlariga, quloqlariga ishonmaydi. Nahotki, hozirgi so'zlarni Feruza, o'z muttahamligingni zamon pardasi bilan niqoblama, deb munofiqlarning yuziga shartta gapirib yurgan Feruza aytyapti?! Unga nima bo'ldi? Qayoqdan keldi uning xayoliga bu fikrlar?!

– Ha, — dedi Feruza,— muncha tikilib qoldingiz? Birinchi marta ko'ryapsizmi?

– Birinchi marta ko'rganimda ham bunaqa emasding. Umuman tanimayapman, o'zingmisan yoki boshqa xotin o'tiriptini oldimda.

– Qo'ysangiz-chi, hamma narsaning ham chegarasi bor. Sinfdosh do'stingiz, xotini qishloqdoshingiz ekan...

– Nima qilishim kerak edi? — deb kesatdi Sa'dulla.

– Surishtirib ko‘ring edi, Samarqandda ham kursdoshlarimizdan bor-ku. Ulardan tashqari Ermat aka bor, juda qadrdon aka-uka edinglar.

Sa‘dulla shalviradi, bo‘zardi, bunga nima bo‘ldi o‘zi? O‘sha Feruzami yoki... Nahotki? Sa‘dulla hech narsani idrok qilolmay qoldi, miyasi karaxt edi.

– Gaplaringga tushunmayapman, Feruza?

– Nimasiga tushunmaysiz, – dedi Feruza biroz jahl bilan, – avvalo odamgarchilik degan gap bor, qolaversa, qachongacha tanga sanab o‘tamiz...

Sa‘dullaning ichida go‘yo nimadir chirt etib uzildi, miyasi qizib, ko‘z oldi qorong‘ilashdi. Kaftlarini ikki chakkasiga bosdi. Ko‘zini yumdi, qattiqroq yumdi. Umrida birinchi marta Feruzani – o‘zi sevib, yaxshi ko‘rib olgani, jufti haloli Feruzani ko‘rishni istamadi. Hozir ko‘ziga xotini qoshi-kiprigi popukday, biroz qiyiq ko‘zlari yulduz kabi porlab turgan, kulishlari yurakni o‘rtab yuboradigan istarasi issiq, go‘zal juvon emas, yo‘q, aksincha badbashara, xunukdan xunuk, ovozlari sovuq – aniqrog‘i, «Farhod va Shirin»dagi Yosuman singari ko‘rinib ketdi. Yo alhazar! Odam bolasi bunchalar tez o‘zgarmasa!

Feruza erining oldiga qog‘ozga o‘rog‘lik narsa qo‘ydi.

– Mana, – dedi u, – o‘rtog‘ingiz tashlab ketdi. Sa‘dulla ilkis yuziga sovuq suv sepilganday seskandi.

– Nima bu?

– Ko‘ring...

– Yo‘qot!

– Namuncha...

Allanechuk og‘ringan, o‘ksingan Feruza qog‘ozning bir chetidan ushlab tortdi. O‘ram ochilib ketdi. Bir taxlam el-

lik so'mlik! Bexos unga Sa'dullaning nigohi tushib ko'pchidi, joni og'ziga tiqildi, alamingiz bir o'ksinish bilan so'radi:

– Nega, nega olib qolding?

– Man olib qolganim yo'q, o'zi tashlab ketdi. Bir gaplashib ko'rsin, dedi, yana qancha kerak bo'lsa, aytaversin, dedi.

Sa'dulla peshonasiga shap etkizib urdi:

– Eh, peshanam qursin. Baliq deb ushlaganim ilon bo'lib chiqdi-ku! – Keyin Feruzaga o'qraydi. – Menga qara, Feruza, nima gap o'zi? To'g'risini ayt, men hech narsaga tushunmayapman.

Feruza pinak buzmadi.

– Hech narsa, nima qipti?

– U holda nega dadang bilan oyingning aytganlariga xo'p demading? Nima uchun ular bilan birga yashashga ko'nmading? Qiynalmasdik, tanga sanab yurmasdik...

– U boshqa masala...

– Boshqa emas! – dedi Sa'dulla keskin. – Hammasining mag'zi bir!

– Kim bilib o'tiripti buni olganingizni!

– Hazilingmi yoki chiningmi? Balki meni sinayotgandirsan? Axir o'zing oyingdan ranjib yurasan-ku.

– Oyim noto'g'ri qiladila. Sababi, avvalo bolalarning haqini yemaslik kerak, undan keyin shu ishni qilishga oyimda ehtiyoj yo'q. Bizda esa...

– Bas!— dedi Sa'dulla. – Eshitishni istamayman! Qazisan-qartasan axir naslingga tortasan, deganlari rost ekan.

Nechundir past tushishni istamayotgan, andisha degan savilni unutilib qo'ygan Feruza kutilmagan kesatiqni hazm qilolmay ovozini tag'in bir parda ko'tardi.

– Bu nima deganingiz?

Sa'dulla ham endi o'zini ortiq bosib turolmadi:

– Bu deganim o'g'rining bolasi – o'g'ri, poraxo'rning bolasi – poraxo'r bo'ladi, deganim.

Feruzaning yig'lab yubordi.

– Siz uchun shuncha azoblarga chidab, oxiri eshitganing shumi?

– Chidab kelganing uchun rahmat! Ming rahmat! Ammo hammasini avvaldan bilar eding. Men senga suyanar edim, o'zingga bir madadkor, deb bilardim! Afsus...

– Sabr-toqatning ham chegarasi bor! Mana, bolamiz birga kirdi. Hamon turmushimiz o'sha-o'sha – talabachilikdan farqi yo'q. Biz tengilar dang'illama uchastkada o'tiripti, tagida mashina...

Feruzaning oraga yana shunga o'xshash g'iybatlarni tiqishtirdi. Sa'dulla eshitmadi, eshitishni istamadi. Faqat talvasa ichida qo'l siltagani, «Yo'qol, ko'zingga ko'rinma!» deb baqirganini biladi.

Bir mahal o'ziga kelsa divanda cho'zilib yotipti. Og'ir dardga chalingan odamday bazo'r o'rnidan turdi. O'rtada qaqqayganicha zilday boshini qashlab, atrofga ko'z yugurtirdi. Stolda non, choynak-piyolalar, dasturxon yig'ishtirilmagan. Bir tomonda Feruzaning kiyimlari, bir tomonda Ulug'bekning ko'ylak-ishtonchalari...

Bo'g'ziga achchiq narsa qadaldi. Gandiraklab tashqariga yurdi. Kampir odatiga ko'ra stulchasini olcha tagiga qo'yib sigaret burqsitib o'tirardi. Hamma balodan xabari bor shekilli, Sa'dullaga ma'noli qaradi. U hech narsa bilmagan kabi kampirga salom berib, vodoprovod tomonga o'tdi.

– Ha, otam, tinchlikmi?– dedi kampir Sa'dullaning salomiga alik olarkan.— Xotiningiz sahar-mardondan qovoqtumshug'i osilib jo'nab qoldi?

Sa'dulla avvaliga indamadi. Keyin astagina «bilmadim...» deb qo'ydi. Vodoprovod jo'mragini burarkan, o'yladi: «Kampirning oldida ham uyat... Birovning eshigida sig'indi bo'lib yurgan odamga bunaqa g'alvalarni kim qo'yipti...»

Kampir baland ovozda nasihatini boshladi:

– Hozirgi yoshlargayam hech tushunolmayman, otam. Sal narsaga er-u xotin g'ijillashadi... Qancha kvartir turdi hovlimda. Shularam g'idi-bidi qilaverardi. Men aytardim, otam, hey, manga qara, nimaga bunaqa qilasanlar? Bu kunlaram o'tib ketadi. Bir umr birovning eshigida yashamaysanlar. Odamzodga sal sabr-bardosh kerak. Qayoqda deysiz, otam, birovi ko'nadi, birovi qulog'iga olmaydi. Ammo-lekin hammasi uy olib chiqib ketishdi. Manikida kvartir turganlarning birontasiyam yomon bo'lmadi, otam. O'zi bu joyning farishtasi bor... Bir xillari keyin ham kelib, mandan hol-ahvol so'rab turadi. O'zingizam ko'rgansiz-ku. Qorasini ko'rsatmay badar ketganlariyam bor... Mayli, otam, ishqilib, hammasi o'z kuniga omon bo'lishsin.

Muzday suv chiroyini ochganday tuyildi. Artinib, nima qilarini bilmay qoldi: uyga kirib ketaveray desa – kampirning gapi tugagani yo'q, kirmay desa – hozir bunaqa pand-u hasratni eshitishga toqati bormi. Ammo kampirsho diydiyosini oxirigacha tinglamay jo'navorish ham oson emas: keyin bir umr boshi malomatdan chiqmaydi.

– Siz ko'p kuyunavermang, otam. Bu kunlaram o'tadiketadi. Keyin bir vaysaqi oyim bor edi, deb eslab yurasizlar. – Kampir chuqur uh tortdi. – Eslab yursalaring shuning o'zi kifoya, otam.

Asta-asta kampirning tovushiga mahzunlik qorishdi. «Bu sho'rlikning ham ichi to'la hasrat», deb o'yladi Sa'dulla. Shu

dargohga kelganidan beri kampirga birinchi marotaba achinish bilan termildi. Ajabo, hozir ro'parasida arzimagan narsalarni vaysayveradigan, erta-kech tinmay asabga tegaveradigan johil kampir emas, yo'q, munis, mehribon bir onaxon turardi. Ko'ngli bir xil bo'lganicha so'ri zinasiga asta o'tirdi.

– Ko'nglingizga olmang, otam, qaynonangiz sal olifta-roq ayolmi, deyman-da. Qiziga gap o'rgatadi manimcha. Bo'lmasa, xotiningiz yaxshi juvon, esli-hushli, odobli. Harna chiqsa, onasidan chiqadi, otam.

Odaticha, kampir yaxshi-yomonni javradi, u esa miq etmay tingladi, so'ngra uning oppoq sochlari, ajin bosgan yuzlariga termilib onasini esladi. Esladi-yu ko'ngli orziqib ketdi. Asta o'rnidan turdi.

– Choy damlab beraymi, otam?

– Yo'q, oyi, rahmat, choy ichgim kelmayapti.

– Siz bunday qilmang, otam. Xotinlardi nimasi ko'p – g'idi-bidisi ko'p. Yuragingizga olavermang. Yigit degan unchamuncha gapni yelkasi osha irg'itishi kerak. Rahmatli cholim shunday derdilar.

– Rahmat oyi, ming rahmat sizga.

Uyga kirib karavotga cho'zildi. Boshi qo'rg'oshin quyilganday og'ir. Ertalabki janjal tushimmi-o'ngimmi, deb ikkilandi. Keyin qat'iy xulosa qildi: tush emas! Kampirning gaplari xayoliga keldi: «Xotiningiz yaxshi juvon, esli-hushli, odobli. Harna chiqsa, onasidan chiqadi...» Bugungi iddaolari-chi, ularniyam onasi o'rgatganmi? Esli-hushli bo'lsa nega onasining yo'rig'iga yuradi?

Feruz! Nega bunchalar o'zgarib qoldi? Buning sababi nima? Axir uning xarakterida bunaqa odatlar yo'q edi-ku...

Yo‘qmidi? Balki Sa‘dulla sezmagandir, e‘tibor bermagandir. O‘zi shunaqa bo‘ladi — odam birovni sevsa, uning kamchiliklarini ko‘rmaydi, yomon odatlarini payqamaydi. Aksincha, yoqtirmasa — yaxshi tomonlari ko‘ziga ko‘rinmaydi, fazilati ham qusur kabi tuyilaveradi. Ehtimol Sa‘dulla ham shu ko‘yga tushgandir.

Unday desa, nega Sa‘dulla bilan do‘st tutindi? Oxir-oqibat nega uni yaxshi ko‘rib qoldi? Qancha-qancha boyvachchalardan sovchilar kelganda rad etdi? Nega? Nahotki, Feruza ham hayotning mazmunini yaxshi kiyinish-u qimmatbaho taqinchoqlarda, deb bilsa? Yo‘q, bu mumkin emas! Feruza unaqa qizlardanmas! Unday esa bugungi pichinglarini, harakatlarini qanday tushunmoq kerak?

## XII

Feruza Ulug‘bekni ko‘tarib chiqib ketganiga bir hafta bo‘ldi. Shundan beri Sa‘dulla kampirning tovuq katagidekkina hovlisiga soyaday kirib, soyaday chiqadi. Bir haftadirki, bu hovlida na bironing kulgisi eshitiladi, na yig‘isi. Bir zum osudalikni orzu qilgan yoki biron narsa yozib-chizaman degan kezlari oldiga kirib jonidan bezor qiladigan kampir ham yo‘q hozir. Ikki kun oldin ostona hatlovdi. Shu chiqqanicha badar ketdi. Sa‘dulla-ku jag‘iga suyanib qolgan kampirshoning «suhbatini» juda qo‘msab yotgani yo‘q, uning diydiosiga ko‘zi uchayotgani ham yo‘q, lekin mana bu huvillab yotgan hovlining bir chekkasida odam ovozi eshitilib turgani tuzuk ekan-da.

U joyidan erinib turdi. Xuddi uxlamagandek. Ko‘ngli g‘ash. Deraza tagidagi olchaga qo‘ngan olashaqshaqning xunuk ovozi

dilini battar xijil qildi. Darpardani ochdi-da, kish, yo'qol, deb olashaqshaqni haydadi...

Zinada kafedra mudiriga duch keldi. U qaygadir shoshib ketayotgan shekilli, bir soatlardan keyin meni oldimga kirring, gap bor, deb hovliqqancha ko'chaga chiqib ketdi.

Shu topda har qanaqa kalima qulog'iga yoqmaydi. Ishiyam, dissertatsiyasiyam, aspiranturasiyam — hammasi ko'ziga adlaqanday mayda-chuyda, arzimasday ko'rinib, qo'li ishga bormay yuribdi. Endi aksiga olib mudirning nima zarur gapi chiqib qoldi ekan? Kirmasinmi yo oldiga? Yo'q, kirish kerak. Nima bo'lganda ham kafedra mudiri. Hozircha, uning qo'l ostida ishlab turibdi. Beodoblik qilsa — tuzukmas. Qani aytsin gapini, yoqsa xo'p deydi, yoqmasa yo'q-da. Nima, bo'ynidan g'ippa bo'g'ib olarmidi. Yoki ishdan haydab yuborarmidi. Haydaganda nima? Hozir unga bari bir, hech narsaning qizig'i qolmagan.

Bugun darsi ham yo'q — hovlida parishon aylangancha sigaret tutatdi. Nedir taskinga, bir og'iz iliq so'zga intiq... Bir ko'ngli domlasining oldiga bormoqni o'yladi. Yana fikridan qaytdi: avval mudirga uchrashsin-chi, qani muddaosi nimaykan, podadan oldin chang chiqarib nima qiladi.

Ming xil o'y-gumon, andishaga berilganча yuqori qavatga ko'tarildi. Eshikni ochmoqchi bo'lib, tutqichga qo'l uzatgan edi, ichkaridan qattiq-qattiq ovoz keldi. Kim bilandir gaplashayapti, shekilli, deb sabr qildi. Ovoz sira tinmaydi. Kutdi. O'n minut, o'n besh, yigirma minut... Ovoz tinmas, aksincha. xuddi diktornikiday bir maromda yangrardi. U ajablandi. o'zida jur'at tuyganча, tavakkal dedi-da, eshikni sekin tortdi. Xonada mudirdan bo'lak hech kim yo'q, u burnini stolga tekkizguday engashib, tovushining boricha nimanidir o'qib



o'tirardi. Mashg'ulotiga shu qadar berilib ketganidan hatto eshik ochilganini ham payqamadi.

– Mumkinmi, domla? – dedi Sa'dulla. Lekin mudir o'z ovozigina ko'milib uning so'rovini eshitmadi. Sa'dulla sal dadillashdi: – Domla, kirsam maylimi?

Xuddi magnitofon lentasi uzilib qolganday, mudirning ovozi birdan o'chdi. U boshini qog'ozdan ko'tarib eshik tomonga qaradi-da, Sa'dullani ko'rdi.

– Ha, keling, keling, – deya mulozimat qildi. Sa'dulla ro'paradagi kursiga borib o'tirdi.

– Xo'sh, uka, ishlar qalay? – dedi mudir salmoqlab. – Uylar tinchmi, ilmiy ishlarni bitkazay deb qoldingizmi?

Sa'dulla hayron: mudir bunchalik sertakalluf bo'p qopti. Umrida birovdan tuzukroq hol-ahvol so'ramagan, salomdan avval kafedrada tiqilib yotgan ishni surishtiradigan bu odam... Quyosh qayoqdan chiqdi bugun?

– Bilasiz, Sa'dullajon, man sizni juda hurmat qilaman. Talantingizni tan olaman. Muhokamangizda ba'zi mulohazalarni aytganim sizning foydangiz uchun. Ish boshidan pishiq bo'lsin, erta himoya paytida do'st-dushman oldida u-bu gaplar ko'payib qolmasin, degan niyatda aytganman. O'ylaymanki, siz bu yo'rig'imni to'g'ri tushunasiz, – mudir tomoq qirib oldi, qisqa sukutdan so'ng, yana ham yumshoqlik bilan davom etdi: – Kecha dekanimiz bir xabarni sizga aytib qo'yishimni tayinladilar.

– Niḡa ekan?– dedi toqati toq bo'lgan Sa'dulla. – Aytavering, domla.

– Bilasizmi, Sa'dullajon, dekaning aytishicha, shtatlar qisqararmishmi-ey, xullas, fakultetdan bir-ikki kishini...

Sa'dulla endi barini tushundi.

– Demak, ariza yozishim kerak, o‘z ixtiyorim bilan. Shundaymi?

– Umuman, shunday desayam...

Sa‘dulla qizishib mudir gapini kesdi:

– Siz ko‘p qiynalmang, domla. Maqsadingizni angladim. Men ketaman, bu fakultetda ishlamayman. Lekin siz ham bilib qo‘ying, dekanga ham aytingki, men ariza yozmayman. Shtat qisqarsa, men shu qisqarishga tushsam bo‘shatib yuboraveringlar. Har holda ko‘chada qolmasligimni bilaman, mayda, arzimas odamlar bilan adi-badi aytishib o‘tirishni ep ko‘rmayman.

Oraga bir daqiqalik sukunat cho‘kdi. Hozirgina mayin, yumshoq muomala qilayotgan mudir to‘nini teskari kiydi-ki. avzoyi tamom o‘zgardi. Qovog‘ini soldi, kalta, yo‘g‘on bo‘yni, dum-dumaloq semiz yuzi qizarib ketdi.

– Demak, sizningcha fakultetdagi hamma o‘qituvchilar mayda, arzimas odamlar ekan-da.

– Gapni aylantirib nima qilasiz, domla. Axir fakultetdagi hamma o‘qituvchilar yoki barcha rahbarlar menga ariza yoz degani yo‘q-ku. Hatto dekan aytganigayam ishonmayman.

Bunday zarbani kutmagan mudir yorilgan shardek shalvirab qoldi.

– Haddingizdan oshyapsiz, o‘rtoq Primov! – dedi nihoyat stolga mushtlarini tirab.

– Qizishmang, domla. Mening gapim tamom. Xayr, omon bo‘ling. U shunday deya irg‘ib o‘rnidan turdi-da, tars-tars yurib chiqib ketdi.

Gavjum ko‘chada o‘zini juda g‘arib sezdi. Umri mazmunsiz, maqsadsiz o‘tayotganday tuyildi. Bu yerlarda nima qilib tentirab, sargardon yuribsan, degan savol miyasiga urildi. Chindan ham bu yerda endi uning nimasi bor, kimi qoldi?

Xotini tashlab ketdi, dissertatsiyadan darak yo‘q, mana endi ishdan ham quvildi. Talabalik yillari shoir jo‘ralari «Bu yerlarda ilinjim yo‘q, yupanchim bir sayohatdir», degan she‘rni ko‘p o‘qishardi. Hozir Sa‘dulla ayni o‘sha sayohatni tusab qoldi. Ammo bu ham tag-zamini yo‘q orzu, nazarida endi bu yerlarda hech qanaqa umidi qolmagan, barcha eshiklar uning uchun yopiq edi. Go‘yo hamma qo‘lini bigiz qilib: «Ana xotini tashlab ketgan, o‘zi ishdan haydalgan, ikki yildan beri dissertatsiyasini loaqal muhokamadan o‘tkazib ololmagan noshud, notavon», deb ko‘rsatayotganday edi...

Sa‘dulla uyga kelib u-bu narsalarini sumkasiga joyladi. Xolmat tashlab ketgan pulni ham soldi. Eshikni bekitib avtobekat tomon yo‘l oldi.

\* \* \*

Qishloqqa xuftonda kirib bordi. Bemahalda kelishi ota-onasini ajablantirdi. Tag‘in dam olish kuni ham emas. Odatda — u qishloqqa shanba yoki yakshanba kunlari borar edi.

— Baxayrmi, bolam? — dedi onasi hol-ahvol so‘rashgach. — Kechroq yo‘lga chiqibsanmi?

— Ha, tinchlik, ena. Moshin bo‘lmay shaharda biroz turib qoldim.

— Kelin, nevaram yaxshimi, ishqilib, qudalarim eson-omon yurishiptimi?

— Hammasi yaxshi, — dedi Sa‘dulla o‘zini xotirjam ko‘rsatib. — Hammasi sog‘-salomat, ikki-uch kun dam olishim bor edi, shunga bir aylanib kelay, sizlardi ko‘rib ketay, deb keldim. Samarqandda biroz ishim ham bor.

Kampir sal o‘ziga keldi. To‘rda soqolini silab o‘tirgan otasi ma‘nodor qilib tomog‘ini qirib qo‘ydi.

– Unday bo‘lsa mayligaku-ya, kech qolganingga qo‘rqib ketdim-da, bolam.

Sa‘dulla o‘zini qanchalar beparvolikka urmasin, ko‘ngli tinch emasligini, nimadandir bezovtaligini otasi sezdi. Ikkovi yolg‘iz qolganda ohista salmoqlab savol tashladi.

– Menga qara, Sa‘dulla, ishlaring joyidami, uying tinchmi?

Sa‘dulla yalt etib otasiga qaradi. Otasi donishmand odam, past-balandni yaxshi biladi, mana hozir uning dardi-tashvishini ham sezganga o‘xshaydi, yo‘qsa bunaqa o‘smoqchilamasdi. Shaksiz, u o‘ng‘aysiz holga tushdi, beixtiyor nigohini olib qochdi.

– Ha, joyida, hammasi tinch, – dedi botinmay. – Nima edi, ota?

– Ko‘nglim sezib turipti, bolam, nimadandir xavotirdasan, nimadandir tinch emasan.

Sa‘dulla miq etolmay qoldi, dabdurustdan tili kalimaga kelmadi. Otasi yana ma‘nodor ohangda yo‘taldi-da, o‘g‘lini xijolatdan o‘zi qutqazdi.

– Mayli, bolam, hayot shunday. Yigitning boshidan ne savdolar o‘tmaydi. Faqat odam o‘zini yo‘qotmasligi, doim qo‘lga ola bilishi kerak. Aytishni lozim topmasang aytma, men qistamayman.

Ehtiyotkor ota shunday muloyimlik bilan uning ichiga qarmoq tashladi. Lekin bari bir u o‘zini qattiqlikka urdi – yorilmadi. Har narsaga mulohazakorlik bilan yondoshadigan otasidan ham ko‘ra onaizorini xafa qilib qo‘yishni istamadi.

– Yo‘q, ota, ja unchalik emas...

Onasi kirib suhbat uzildi. Shu ko‘yi bu haqda na otasi, na uning o‘zi boshqa so‘z ochdi...

Ertalab Sa‘dulla Zarbuvi opasining uyiga yo‘l oldi. Xolmatni ko‘rishni, orada kechgan munozarani takrorlab

asabini buzishni istamadi. Aliqul pochchasiga hamma gapni aytib, pulni berib kelaveradi.

Xayriyat pochchasi uyda ekan. Hol-ahvol so‘rashib hovlidagi so‘rida suhbatlashib o‘tirishdi.

– Pochcha, – dedi oxiri Sa‘dulla maqsadga o‘tib, – sizga aytadigan bir-ikki og‘iz gapim bor.

– Tinchlikmi? – dedi Aliqul nimadandir xavotirlanib.

– Tinchlik, pochcha. Lekin, bilasizmi, asli Xolmat bilan... Biroq uni qidirib yurishga vaqtim yo‘q.

– Qidirganingiz bilan uni topolmaysiz, – Aliqulning ovozi siniq chiqdi.

– Nimaga? – dedi Sa‘dulla birdan.

– Jo‘rangiz qamalib qoldi...

– Qachon? Axir yaqindagina u mening oldimga boruvdi-ku.

– Xabarim bor. O‘sha yoqdan kelgan kunining ertasiga olib ketishdi.

– Bola o‘ldimi?

Aliqul xomush bosh irg‘adi.

– Obbo!..

Beixtiyor Sa‘dulla boshini solintirdi. «Chatoq bo‘pti-ku... Yana arzimagan ish deydi-ya... Bir bechoraning gulday bolasi hech narsadan hech narsa yo‘q o‘lib ketaversin, bu boyvachcha esa yallo qilib yuraversin. Men unga shunday imkoniyat yaratay. Qani insof, adolat?! Yo‘q, bunday bo‘lishi mumkin emas! Mutlaqo!» Xolmat yaqin jo‘rasi ekanidan, shu mahal-gacha u bilan oshnachilik qilib yurganidan ijirg‘andi, ezildi. Shuncha yillardan beri u haqda ma‘lum xulosa chiqarmaganidan, bordi-keldiga chek qo‘ymaganidan ko‘ngli o‘ksidi. Irodasizlik qildim, qat‘iyatim yetmadi, deb o‘zidan ranjidi. Opasining gaplaridan keyinoq Xolmat bilan munosabatini

uzishi mumkin edi-ku. Nega shunday qilmadi?.. Biroq bularning hammasi aytishga oson. Qishloqchilik, o'zbekchilik...

Mayli, garchi kech esa-da, endi bordi-keldini uzadi. Qaysidir darajada Xolmatga ichi achisa ham unga shafqat qila olmaydi. Jinoyat qildimi, kimligidan qat'i nazar jazosini olsin. Agar u Xolmatni himoya qilsa o'zi ham jinoyatchi hisoblanadi. Aslida eng katta xatolarimizdan biri ham shu emasmi? Qancha-qancha boyvachchalar, kimlarningdir erkatoylari ne-ne jinoyatlarini, qabih ishlarini yopti-yopti qilib yurishipti. Qachongacha davom etadi bu hol axir?!

– Og'ir bo'пти... Bari bir, sizga arz qilmasam vijdonim azobda qoladi.— U borini pochchasiga lo'nda qilib aytib berdi. So'ng kissasidan qog'ozga o'rog'lik o'sha bir taxlam ellik so'mlikni chiqarib qo'ydi. — Voqea bunday tus olib ketgan ekan, demak pul judayam zarur. Shuni berib qo'ying, sizdan iltimos, pochcha. Aliqul indamadi. Pulni olib uyga kirib ketdi. Birozdan so'ng qaytib chiqdi-da, dedi:

– Sal sabr qiling. Hademay opangiz keladi. Ko'rmay ketib qolsangiz o'pkasi uzilib tushadi. Men ishxonaga birrov kirib chiqay. Tez qaytaman. Aliqul chiqib ketdi. Sa'dulla opasini kutishga qaror qildi. Shoshib ham qayerga borar edi? Yo'liga intiqlik xotini, qolib ketayotgan ishi bo'lmasa...

– U yostiqaqqa yonboshlab ko'zini yumdi. Ko'z oldida turli voqealar jonlandi. Negadir bolaligini, maktabda o'qib yurgan chog'larini esladi. U paytlar juda totli, shirin tuyildi. Qani o'sha damlarning loaqal bir kuni qaytib kelsa. Eh-he-e!..

Kimdir Zarbuvi opasini chaqirdi. Xayoli bo'lindi.

– Kim u, kelavering,— dedi tirsagini yostiqdand ko'tarib. Chaqiruvchi so'ri tomonga yurdi. Ora chamasi o'n metrcha qolganda u oldini ilon kesib o'tgan kabi ilkis to'xtadi.

- Salima!– dedi u ko‘zlari chaq nab.
- Voy, Sa’dulla aka, qachon keldingiz?
- Bugun... Qalay, o‘zinglar yaxshimisizlar?

Salima so‘ri tomon sekin yurdi... Bir chekkasida ohista o‘tirdi... – Sho‘rim qurib qoldi, Sa’dulla aka, – dedi u yerdan ko‘z olmay. – Kambag‘alni tuyaning ustidayam it qopadi, deganlari rost ekan. Shuncha yil turmush qurib nima ko‘rdim. Buyam yetmaganday endi... – U o‘pkasi to‘lib yig‘lab yubordi. Sa’dulla «Qo‘ying, Salima, yig‘lamang», deb taskin bermoqchi bo‘lar, ammo uning o‘zi ham eplab gapirolmasdi. – Meni... men... Sa’dulla aka, sevgining qarg‘ishiga qoldim...

Sa’dullaning eti jimirlab ketdi. «Bilar ekan-da... Meni zor qaqqshatganini bilar ekan-da... Yo‘q, yo‘q, men unga yomonlik istaganim yo‘q, istamayman ham... Mening o‘zim-chi? Mening ahvolim hozir unikidan yaxshimi. Xayriyatki, buni Salima bilmaydi...»

– Unday gaplarni qo‘ying, Salima. O‘tgan gap o‘tdi, endi qaytib kelmaydi. Bu yog‘iga Xolmatni o‘ylang, bolalaringizni o‘ylang, hammasi yaxshi bo‘ladi, ishoning, yaxshi bo‘ladi. O‘zingizni dadil tuting, qo‘lga oling. Do‘st-dushman oldida sir bermaslik kerak.

– Siri qoldimi, – dedi Salima hamon piq-piq yig‘lab. – El-yurt oldida sharmandamiz chiqdi-ku.

– Qo‘ying, unday demang, bitta-yarimta ko‘rib-eshitib qolsa uyat qiladi. Dadil bo‘ling, hammasi joyiga tushib ketadi.

Salima birozdan so‘ng o‘rnidan turdi.

– Meni kechiring, Sa’dulla aka, sizning ham ko‘nglingizni xira qildim... Mayli, men boray, Zarbuvi opa yo‘qlar shekilli, – dedi yonoqlarini artib.

- Maktabda ekan, men ham kutib o'tiribman.
- Mayli, yangamga salom ayting, Ulug'bekjonni o'pib qo'ying, xayr.

Salima xuddi iltijo ohangida so'zladi. O'kinchi va mahzun tovushi Sa'dullaning yuragini o'rtab yubordi. Naq yer bilan bitta bo'layozdi-ya! Vo ajabo, ne sir-u sinoatki uning qoshida hamon mana shunday zabun, hamon mana shunday aftoda – bolaga o'xshab o'zini yo'qotib qo'yaveradi.

Ko'zlarida jiqqa yosh bilan Salima jo'nadi. Yelkasidan og'ir yuk bosganday Sa'dulla o'tirgan joyida cho'kib qoldi...

### XIII

Ovqatni eplab pishirolmadingmi – o'zing yeyaver!

Odatlarimizda shafqatsiz jihatlar ko'p. Taom yaxshi bo'lsa. ko'pincha kim pishirganini surishtirish shartmas. Nari borsa. qo'li dard ko'rmasin, deb qo'ya qolish kifoya. Bordi-yu, bemazaroq chiqsa, ko'raverasiz qaysi qo'ling singur pishirdi. falonchimi, u o'zi asli shunaqa hech balo qo'lidan kelmaydi. masalliqni uvol qipti...

Mayli, hozir gap bu haqda emas, oila xususida. Agar bir yigit ota-onasiga falonchi qizga uylanaman, desa va uylansa yoxud bir qiz biron yigitni o'zi tanlab tegsa, ammo keyinchalik turmushi notinch bo'lsa, shunda ota-ona o'g'liga yoki qiziga nima deydi? O'zing pishirgan osh – o'zing ichaver! Xo'sh, nega endi shunday? Axir ular ham bir chekkada tomosha qilib o'tirmagan-ku! Yigitning yolg'iz o'zi borib yetaklab kelmagan-ku qizni. Yoki qiz hech narsadan hech narsa yo'q uydan chiqib ketmaydi-ku. Kelin yoki kuyov yaxshi, odobli bo'lsa va totuv yashashsa-chi? O', ota-onaning og'zidan moy tomadi: o'g'limga shunday kelin olib berdim,



qizimning baxti bor ekan, ajoyib kuyov topdik... Endi ayting, shu adolatdanmi?..

Feruz o'g'lini ko'tarib kirib kelganda na dadasiga, na oyisiga aytdi Sa'dulla bilan g'idi-bidiga borib qolganini. O'zi-ku dadasi bilan oyisi uni chaqib olishga bahona topolmay yurishipti. Hozir dardini sal yorsa bormi — timsohning oldiga quyvon tashlaganday, xap etib yutadi-qo'yadi. Onasining aytadigani ma'lum: «Battar bo'! Tanlab-tanlab tozisiga uchradig, o'zingdan ko'r. Ajab bo'пти, o'zing pishirgan osh — ichaver endi. Qancha javradim vaqtida, yo'q, ko'zingga oltin bo'lib ko'rindi. Mana, oqibati...» Dadasining pichinglari ham bundan qolishmaydi.

Iddao, ta'na eshitishga Feruzada toqat qani? Hamma dard-alamlarini, iztiroblarini ichiga yutsa yutadi, ammo hech bir kimsa oldiga dasturxon qilib yozmaydi.

— Kelarding-da,— dedi Muazzam opa Feruzani ko'rishi bilan, — o'zing-ku oylab qorangni ko'rsatmaysan, chaqirsayam uch kundan keyin kelasana. Ota-ona kerakmi o'zi senga? Yo o'sha o'zim kal — ko'nglim noziging hammaning o'rniga o'tadimi? Bu ahvolda o'lib qolsamam ikki kundan so'ng kelasan shekilli.

— Sizga telefon qilib uyga borsam, Samarqanddan mehmonlar kelishipti. Bugun ertalab ketishdi.— Feruzabiroz gina ohangida gapirdi. — Nevarangizning tug'ilgan kuniga borib qolasizlarmi, deb o'yladim.

Muazzam opa qizining ginasiga e'tibor bermagan kabi gapni boshqa tomonga burdi:

— Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga, — u shunday deb o'tirgan joyida bir qimirlab qo'ydi.

Feruz onasiga razm soldi. Negadir uning shashti past edi. Doimo qop-qora bo'lib yonib turadigan ko'zlariga bugun

arabiy surma tortilmagan, qoshlarida ham uch kun oldingi o'smaning izlari. Upa-elikning qutisi ham ochilmapti. Feruza onasini bu ahvolda birinchi marta ko'rishdi. U esini tanibdiki, Muazzam opa pardozi-andozi qilib yuradi. Har kuni o'rnidan turishi hamono, arab xotinlariga o'xshab, avval toshoyna oldiga o'tiradi.

Shu odatini tark etibdimi, demak, bir noxushlik bor. Feruzani ham bu gal bekorga chaqirmagan ko'rinadi. O'tirishi, rang-ro'yi ham bo'lakcha. O'sha kuni telefonda so'zlashganda Feruza masala bu qadar jiddiy ekanligini xayoliga keltirmagan, oyimning navbatdagi vahimalaridan biridir-da, deb o'ylagandi. Binobarin, oldin ham bir necha marta hovliqib qizini chaqirtirgan, Feruza kelgach, tayinli bir gap yo'q, sani shunchalik ko'rgim keldi, shunga yo'qlodim, deb hazil qilgan edi.

– Nima gap o'zi, oyi? U kuni telefonda aytmadingiz...

– Hammasi joyida, – dedi Muazzam opa ensasi qotib. Yo'q, hammasi joyida emas.

O'tgan kuni Muazzam opa ishdan qaytayotganda darvoza oldida ikki yigit yo'lini to'sdi. O'zi va tarbiyachi juvon inqilab-sinqillab ko'tarib kelayotgan katta-katta sumkalarni ochishni talab qildi haligilar. Rosti, bu hol aqlga sig'masdi, borib turgan yo'ltosarlik! Shubhasiz, opa jig'ibiyron bo'ldi, balanddan keldi: «Nima haqlaring bor sumkamni tekshirishga? Bezorilar, yo'limdan qochinglar!» yigitlar hujjat ko'rsatishdi. Ana shundan so'ng Muazzam opa bo'shshib qoldi. Go'yo sahnada rol o'ynayotgan artist kabi muomalasini o'zgartirdi: «Qo'yinglar, ukajonlar, mani ovora qilish nima zaril sanlarga. Men nima olardim...» Yigitlar uning na do'q-po'pilasiga, na yalinishiga e'tibor berishdi. Imi-jimida akt tuzishdi.

Feruza onasining bosh-oxiri yo‘q dard-u hasratini eshitar-kan, xayoliga hozirgina Sa‘dulla bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan mashmasha kelaverdi. Go‘yo o‘sha ikki yigit ularning ham uyini tekshiradiganday, Sa‘dullani poraxo‘r deb, ayblaydiganday tuyilaverdi... Demak, shuning uchun borishmagan ekan-da...

– Ha, muncha bo‘zarib qolding! – dedi Muazzam opa jahl bilan. – Endi oyim qamalib ketadi, deb o‘ylayapsanmi?!

Feruza og‘rindi, lekin sezdirmadi.

– Nafasingizni issiq qilsangiz-chi, oyi. Kim shunaqa, deb o‘ylayapti?

Muazzam opa xo‘mraydi. Keyin bilmasdan nordon narsa yeb qo‘ygan odamday aftini burishtirib, o‘zicha g‘o‘ldiradi.

– Ot bilan tuya opmanmi... Ne-ne odamlar bor – tuyani yutsa dumi ko‘rinmaydi... Shu ikkita mishiqi bolaning qo‘lidan nima kelardi. Unaqaning o‘ntasini ipga marjon qilib tizib qo‘yaman. Adang bor – nima g‘amim bor?!

Muazzam opa bo‘yin bermaslikka tirishgan sari Feruza ham ko‘nglimdagini oyim bilib qolmasin, deb o‘zini vaz-min, xotirjam tutishga harakat qildi.

– Sizga nima zaril edi shu, oyi? – dedi Feruza. – Arzi-magan narsalar uchun o‘zingizni xor qilib kimlarningdir oldida yalinib... Hech tushunmayman sizga...

– San nimani tushunarding... – Muazzam opa qizishdi. – Farzand ko‘rding, lekin o‘zing haliyam bolasan. Dunyoning bordi-keldisini o‘ylamaysan. O‘zingga o‘xshagan o‘jar bir erni topib olgansan, go‘yo ikkovingdan boshqa halol odam yo‘q bu dunyoda. Sani to‘g‘riligingni birov bir tiyinga olsa ekan koshki. Sanga o‘xshaganlarning ustidan hamma kuladi-ku. Ko‘pini ko‘rganmiz. Zamon shunday bo‘lgandan keyin qo‘ling-dan nima kelardi.

Bular ohori to‘kilgan gaplar. Feruza uchun yangilik emas – qayta-qayta eshitgan. Shuning uchun hech narsa demadi. Yuz gapir, ming gapir – bari bir o‘zinikini ma’qullaydi. Qolaversa, hozir Feruza bu haqda tortishib o‘tiradigan holatda emas. Har qanaqa pandni eshitsu battar asabi qo‘zib, kayfiyati xiralashadi.

U o‘g‘lini uxlatish bahonasida boshqa xonaga o‘tdi.

Bu xona shinam, jihozi o‘zgacha: derazalariga duxoba pardalar osilgan, yumshoq divan, kreslolar qo‘yilgan, polga gilamlar to‘shalgan, devorlarga, shiftga did bilan gul solingan. Odam o‘tirmagani uchun-mi, quyosh tarafda bo‘lsa-da, uncha issiq emas, havosi toza, harorati mo‘tadil edi.

Feruza o‘g‘lini divanga yotqizdi-da, o‘zi kresloga cho‘kdi. Boshini orqaga tashlab ko‘zini yumdi. Bir zum bo‘lsa-da, hammani, hamma narsani unutishga qaror qildi. Lekin... Koshki buning ilojini topa olsa. U kimniki kamroq o‘ylay desa, o‘sha ko‘proq esiga tushar, nimaniki mutlaqo unutay desa, o‘sha voqea xayolidan jilmas zdi. Hozirgina Sa’dulla bilan bo‘lgan mojaroni umuman eslamaslikka intildi. Qayoqda, ko‘z oldidan Sa’dullaning qiyofasi, quloqlaridan esa bir-biriga aytgan achchiq-tiziq gaplar ketmasdi.

Unga nima bo‘ldi o‘zi? Nega unaqa qildi? Sa’dullani nima uchun ranjitdi? Pul kerak bo‘p qoldimi? Bir vaqtlar dadasi bilan oyisi qo‘liga dasta-dasta pullar berganida oldiga qaytarib otar edi-ku. Endi shu pullarga zormi?..

Yo‘q, bunday emas! U hech qachon pulga o‘ch bo‘lmagan, mol-dunyo, taqinchoqlar, jimjima kiyim-kechaklar uni qiziqtirmagan... Nega unaqada bugungi janjal bo‘ldi? Puldan chiqdi-ku hammasi. Yoki eringni sinamoqchimiding? Hazilmidi? E, o‘lsin, hazil ham shunaqa bo‘lsa... Hozir

Sa'dulla bechora nima qilib o'tiribdi ekan? O'zi-ku sho'rlikning ishi yurishmay xunobi oshib yuribdi. Bu yoqda sen ham g'iringlab asabiga tegib tursang... Axir u ham odam, uning ham asabi bor, or-nomusi bor, vijdoni bor. Nega uni san, sevimli xotini qadrlamaysan, uning tuyg'ularini oyoq osti qilasan?!

Eh, Feruza, Feruza! U seni qanchalar sevishini bilsayding!..

Men-chi, men sevmaymanmi? Nega endi sevmas ekanman. Axir u men istagan yigit-ku. Kamchiliklari bordir, nima qipti. Kimning kamchiligi yo'q?

Eh, kallavaram, xom sut emgan banda. Qayoqdanam o'sha pulni ko'rding. Nega olib qolding? Xolmatga qaytarib bermading? Nega? U bilan Sa'dulla g'ijillashib qolganini ko'ruvding-ku. Kutilmagan birgina shu qilig'ing bilan Sa'dullaning yoniga kirish o'rniga, uning oyog'iga bolta urganingni bilasanmi?! Bir taxlam pul! Sidirg'a ellik so'mlik! O', savil-a! Shunchalar qudratlimi? Nahotki uni ham yo'ldan urdi o'sha iblis – pul! Nahotki, u hamma narsadan – e'tiqoddan, erdan, oiladan ustun bo'lsa?!

Feruza kresloda yastangancha uzoq o'yladi, lekin mulohazalari tumtaraq, beaded edi. Shuurining allaqaysi bo'shlig'ida o'zi e'tiqod qo'yan, hanuzgacha ardoqlab kelgan haqiqat nuri porlab ko'ringanday bo'ldi. Daf'atan majolsizlandi. A'zoyi badanidan sovuq ter chiqib ketdi.

– Yo'q!– ovozing boricha qichqirib yubordi.– Yo'q! Menga pul ham, mol-dunyo ham sariq chaqa! Ko'nglimni tushunadigan birdan-bir odamimni... Qanday ko'rgilik, qanday?!

Nazarida hech qachon yuvib bo'lmaydigan gunohi azimga qo'l urgandek edi, endi bu aybi oilasiga ham kasr qiladi,

oqibat, ro‘zg‘ori buziladi, dunyodagi eng ardoqli kishisidan bir umrga ayriladi. Bunga o‘zi sababkor, faqat o‘zi! Qiyinchilikka dosh berolmadi, axiri ojizlik qildi, ojizlik! U ingrandi, qarg‘andi. Bir payt nolasidan Ulug‘bek cho‘chib uyg‘ondi va xarxasha qila boshladi. Bora-sola o‘g‘lini ko‘tarib bag‘riga bosdi.

– Menga sen keraksan, bolajonim! Seni yetim qilishni, otangdan ayirishni istamayman. Sadqai saning ko‘z yoshlaring ketsin! Sadqai dadangning ranjishlari ketsin!.. Man ahmoq nima qilib qo‘ydim, bolajon! Qaysi shayton yo‘ldan urdi mani? Kechir, bolajonim, kechir! – U o‘g‘lining yuz-ko‘ziga termilib Sa‘dullani ko‘rganday bo‘ldi.– Mani kechiring, dadajonisi. Ko‘nglingizga ozor berguncha har narsa bo‘lay! Kechiring!..

Feruza ho‘ngrab yubordi. Ovozini onasi eshitib qolmasligi uchun o‘g‘li ko‘kragiga yuzini bekitganicha to‘yib-to‘yib yig‘ladi, yig‘ladi...

\* \* \*

Olim Akbarovich qiziga dastlabki kunlar unchalik e‘tibor bermadi, onasidan xabar olgani kelgandir-da, deb qo‘ya qoldi. Ammo oradan ikki kun, uch kun o‘tyapti hamki, Feruza ketay demaydi, uning ustiga rang-ro‘yi ham bir ahvolda. Ilgarilari kelganida ikki-uch soat o‘tirib, ketamanga tushib qolar edi.

Bu hol, tabiiyki, Olim Akbarovichni taajjubga soldi. To‘rtinchi kunga o‘tganda, shubhasini xotinigga sezdiradi. Allaqanday gumonlar Muazzam opaning ham miyasida charx urar, biroq bularni eriga aytolmay dog‘da edi, Olim Akbarovich o‘zi gap ochgandan so‘ng Muazzam opa ham yorildi:

– Man ham hayronman, adasi. So‘rasam, hech narsa demaydi. Ishlaringiz bir yoqli bo‘lguncha yoningizda turay, kuvovingiz qishlog‘iga ketgan, deydi.

Qizi bilan kuyovidan bir qadar sovigan bo‘lsa ham, bari bir endi Olim Akbarovich tashvishlandi. «Bir gap bor bu yerda. Bekordan-bekorga ikkovi ikki tomonga ketmagan...»

– Hay, mayli,— dedi Olim Akbarovich vazmin ohangda, — unday bo‘lsa tuzuk, lekin har holda qizingning ko‘ngliga yana bir qo‘l solib ko‘r. Negadir shu gapga mening uncha ishongim kelmayapti... Ertaga menam fakultetdan bir surishtirib ko‘raman...

Muazzam opa Feruzaning ko‘ngliga bir emas, bir necha marta qo‘l solib ko‘rdi, ammo niyatiga yetolmadi. Xo‘sh, Feruza, nima deydi? Sa‘dulla bilan o‘rtasida kechgan gapni oyisiga yoki dadasiga qanday aytadi? Yo‘q, yo‘q! U aytmaydi, aytolmaydi!

Bu kunlarning har soati Feruza uchun oyday uzun, qahraton qish kunlari kabi rutubatli. Mayli, undan battar bo‘lsin, lekin hech kimga ko‘nglini ochmaydi. Ammo qachongacha? Axir, bari bir, payti yetganda sir ochiladi-ku!

U bo‘sh qoldi deguncha o‘zi bilan o‘zi fikran olishadi, tortishadi, o‘zini o‘zi inkor qiladi, ma‘qullaydi, kam o‘ylovlikda ayblaydi. «Bechora Sa‘dulla, ne azoblarda yuribdi ekan?.. Ertaga ketaman! Undan uzr so‘rayman...»

Har tun shu fikr xayolini band etadi, tong otganda ikkilanib qoladi. «O‘zi kelsin... Loqal telefon qilsin, keyin bo‘raman...»

– Manga qara, Feruza,— dedi bir kuni Muazzam opa,— rostini ayt, tinchlikmi o‘zi? Kelganingga ham bir haftadan oshdi, oldinlari kelmasingdan ketaman, deb turarding...

– Malol kelyapmanmi? – dedi Feruza o‘ziga begona to-  
vushda to‘ng‘illab. – Ko‘p tashvish chekavermang, ketaman  
haliyam. Manavinaqa gaplar chiqib qolgani uchungina yonin-  
gizda turay devdim-da.

– Mani to‘g‘ri tushun, qizim. Sani kelganing malol  
kelmaydi, faqat xavotir olyapman, xolos. Aytmoqchi, ering  
ishidan bo‘shapti...

Feruza yalt etib oyisiga qaradi.

– Kimdan eshitdingiz?

– Adangdan. Adang dekan bilanmi, zavkafedراسي bilanmi  
gaplashipti, shu yerdami, deb surishtiripti...

Feruza indamay o‘rnidan turdi-da, behollik bilan ichka-  
riga yo‘naldi. Miyasini turli savollar ayovsiz o‘yardi: «Nega  
ketdi ishdan? Sababi nima ekan? Kimning qo‘li bor bu yerda?  
Nahotki, adam... Nahotki, shu darajaga borsalar... Yoki  
hamma narsadan voz kechdimi? Axir u bu qadar irodasiz  
emas edi-ku...»

O‘ylayverib boshiga og‘riq kirdi, chakka tomirlari zirqi-  
rab ketdi. Butun kuch-quvvati, irodasini to‘plab o‘zini qo‘lga  
oldi. Qosh qorayib qolganiga qaramay, narsalarini sumkasiga  
joyladi-da, Ulug‘bekni ko‘tarib yo‘lga tushdi. Oyisining endi  
kech bo‘ldi, ertalab borarsan, degan tavallosini eshitishni  
xohlamadi.

\* \* \*

Hanuz Sa‘dulla tushuniksiz jodu iskanjasida... Oh, Salima-  
ning qarshisida mung‘ayib turishlari... Haligi e‘tirofi yuraginigina  
emas, butun tani-jonini ezdi, o‘rtadi, yondirdi. Otasi-onasi  
va qarindosh-urug‘lari bilan parishonhol xayrlasharkan,  
Samarqandga kelib, g‘amga botgancha samolyotga chiqarkan,



biron daqiqqa ham xayolidan Salima o'kinch bilan aytgan gaplar ko'tarilmadi. «Men sevgining qarg'ishiga qoldim...» Rostmi shu gap? Rostmi? Unda men-chi? Meni ham sevgi qarg'adimi? Axir men hech kimni zor qaqshatganim yo'q-ku. Nega bunday bo'ldi? Feruza bilan aytishib qolganimizga hech aqlim yetmaydi. Har doim mayda-chuydalarni chetlab o'tishga odatlangan Feruza nega endi birdaniga bunaqa qildi? Ehtimol, uning kuyunishida ham jon bordir. Rost-da, qachongacha tanga sanab, o'n tiyinni ham hisob-kitob qilib yuramiz. U ham boshqa ayollarga o'xshab kiyingisi, o'ynab-kulgisi keladi. Qolaversa, yaxshi yeb, yaxshi kiyinishni tusaydi, o'rgangan. Aytishicha, xayolidan kiyimim eskirdi, endi nima qilaman, degan fikr kechmagan sira. Men bilan turmush qurib nima ko'rdi? Istagan narsasini yeb-ichib, xohlagan kiyimini kiyib yurish u yoqda tursin, erkin, bemalol yashay olmayapti-ku. Anov ezma kampirning qosh-qovog'iga qarab charchab ketdi bechora. Xo'sh, aybi, gunohi nima? Meni yaxshi ko'rganimi? Oila kam-ko'stini butlash erkakning ishi-da. Og'ir-yengilni bo'yingga olib uylandingmi bu yog'ini epla! Ro'zg'or tebratish qo'lingdan kelmas ekan, uylanmagin edi. Ko'rpangga qarab oyoq uzat! Haliyam Feruza shuncha chidadi. Boshqa qiz bo'lgandami – bir oy ham turmasdi...

Hammasi to'g'ri, lekin sabr qilish kerakmi yoki sal nar-saga... Kim to'kislikka birdan erishibdiki, bular erishadi? Asta-sekin bo'ladi-da. Qolaversa, nega endi nopok yo'l qidirish kerak? Harom pulga ro'zg'or boqadimi, ya'ni o'g'lini nonga, sutga to'ydiradimi? O'sha hisobdan mehmon oldiga osh-suv qo'yadimi?! Yo'q, harom-harishga berilgandan ko'ra och va yupun yashagani ming marta afzal!

Feruza ham shu fikrda edi-ku. Nega endi u aynib qoldi? Sabr-toqati yetmadimi? Nahotki? Yo'q, Sa'dullaning

ishongisi kelmaydi — Feruza bu qadar yengil emas, bu odat unga begona...

Samolyot Toshkent qo‘nalg‘asiga qo‘nganini deyarli sez-madi. Miyasini turfa xayollar tinimsiz parmaldirdi. Goh bu fikri to‘g‘riday tuyilar, goh unisini ma‘qul ko‘rardi. Hushini yig‘ib tuynukchadan tashqariga qaradi: samolyot tep-tekis yo‘lakdan vizillab ketib borar, chekkadagi to‘sinlar va yorit-gichlarni ko‘z zo‘rg‘a ilg‘ardi...

Ko‘cha boshida taksidan tushdi. Uyg a qanday kirib bo-rishni o‘yladi. Yuragi zirqiradi. Hech kim yo‘q — huvullab yotgandir. Hoynahoy kampir ham kelmagan. Bir jihatdan shunisi ma‘qul. Shundoq ham yuragi siqilib turganda oldi-qochdi gaplari bilan battar asabini buzadi. Qani endi o‘sha mojar o birdan tushga aylansa-yu hozir darvozani ochishi bi-lan Feruza kutib olsa, o‘g‘li unga qarab talpinib tursa. Yo‘q afsuski, unaqa emas — bari o‘ngida yuz bergan.

Hozir Feruza qayerda, nima qilayapti ekan?

Xayol surgancha bir-bir bosib borarkan, kimdir jarangla-gan tovush bilan otini tutib chaqirdi. Cho‘chib tushdi. Ilkis qaradi:

— Chori!..

Hozir shu holatda shu yerda Chorini uchratish yetti uxlat tushiga ham kirmagandi. Bir-birlari bilan uzoq ko‘rishmagan aka-ukalardek, o‘pka-gina, hazil-mutoyiba qila-qila, chek-siz quvonch aralash qayta-qayta quchoqlashdilar.

Universitetni bitirgandan so‘ng Chori Surxondaryo sari qanot qoqqan, qaysidir tumanda muqim o‘rnashgan, na iloj-ki avval xat bilan aloqa bog‘lab turishdi, keyin esa... Negadir buni ham xudo ko‘p ko‘rdi.

— Yuribmiz soyai davlatingizda, — dedi Chori. — Shahrin-gizga bir kep qoluvdik. O‘zlarini ziyorat qilaylik, deb izlasak

yo‘qlar. Darvoza berk. Boshqa joyga ko‘chib ketgan bo‘salaring kerak, deb o‘yladim,

– E. qayoqqa deysiz, Chori. Haliyam shu ahvol. Men qishloqqa ketuvdim. Feruza onasinikida bo‘lishi kerak.

– Qishloqlar tinchlik ekanmi? Ota-enangiz yaxshi yurishiptimi?

– Rahmat.

– Qani esa ketdik, – dedi Chori gapni kesib. – Biron joyga borib picha otamlashamiz. Bari bir uyda hech kim yo‘q, yolg‘iz ekansiz. Feruza kelguncha zerikib o‘tirasizmi?

Sa‘dulla e‘tiroz bildirolmadi. Bormay desa o‘zi jo‘rasi suhbatini istayapti, uyga taklif qilay desa, ahvol bunaqa. Ko‘ndi.

Sa‘dulla narsalarini uyga tashlab chiqdi.

Chori taksi to‘xtatdi-da «Zarafshon» restoraniga haydashni buyurdi. Darhol o‘zini orqa eshikka urdi. Izidan Sa‘dulla kirdi. Qurg‘ur Chori dadil, dangal. Bunday fe‘l unda ilgari ham bor edi, endi yana ham bo‘rtibdi.

Restoranda uzoq o‘tirishdi. E-he, nimalar xususida gaplashishmadi. Talabalik hangomalari ham eslandi, paxtadagi g‘alvalar ham qolmadi. Gurung aylana-aylana Sa‘dullalarning to‘yiga taqaldi. To‘y shu yerda o‘rganini Chori havas bilan esladi.

– Xo‘sh, Feruza qalay? – dedi Chori. – Qaynota-qaynonangiz tuzukmi? Haliyam zamministrmi?

Araqning ta‘sirimi yoki Chorining bu savollaridanmi, Sa‘dullaning ko‘ngli sirqirab ketdi. Ko‘z oldida Feruza jonlandi, uning «Qachongacha tanga sanab yuramiz?» degan ta‘nasi quloqlari ostida jarangladi. Chuqur xo‘rsindi. Ma‘yus tortdi. Hushyorlikni qo‘ldan bermaydigan Chori nenidir sezdi. Ammo indamadi, nima gap, deb so‘ramadi. Asli bunga

hojat yo‘q edi. Sa‘dulla ko‘ngli to‘lib, toshay deb turgandiki, hech qanaqa turtkisiz dardlarini to‘kib solishga tayyor edi. Shunday qildi: Bosib-bosib sigaret tortarkan, omadi yurishmay qolganini – Feruza bilan san-u manga borgani, fakultetga sig‘ishmayotganini oqizmay-tomizmay so‘zladi. Boray desa yeri yo‘q, yotay desa go‘ri yo‘q bir g‘aribman, dedi xo‘rsinib.

– E, qo‘ysangiz-chi,– dedi Chori uning ko‘nglini ko‘tarish niyatida o‘zini xushchaqchaq tutib,– talabalikdagi injiq-lingingiz haliyam qolmaptida-a. Qaysi oilada g‘idi-bici bo‘lmaydi? Shungayam ota go‘ri qozixonami?

Bu mayda-chuyda emas-da, Chori. Kelib-kelib Feruzadan shu gapni eshitsam...

Chori uni qayirdi:

– E, Sa‘dulla, odam degan sal fe‘lini kengroq qilishi kerak. Hammasi chepuxa, o‘tadi-ketadi. Feruza unaqa qizlardan emas, tushunadi. Bir xayol bilan aytgan-qo‘ygan-da. Harna qilsayam ayol, u-buga ko‘ngli ketadi. Siz-u biz tugul, ne-ne korchalonlarning uyidayam o‘tadi bunaqa mashmasalar. Parvo qilmang. Feruza tushunadi. Ana, meni aytdi deysiz, keladi o‘zi. Pushaymon qilib yurgandir. Men ishonaman, Feruza keladi, sizdan uzr so‘raydi... Odam sal o‘zini qo‘lga olishi kerak. Xayol surib, darveshlik qilib yuravergan bilan ish bitmaydi. Chori shishaning tagida qolgan aroqni qadahlarga quydi. Qani, oling jo‘ra, salomatlik bo‘lsin. oilangizga tinchlik-totuvlik, qut-baraka tilayman. Ishlarinigizga omad bersin.– Ichishdi.– Xohlasangiz hozir chiqib o‘zim Feruzaga qo‘ng‘iroq qilaman. Darrov uyga yetib keling. deyman.

– Qo‘ysangiz-chi,– dedi Sa‘dulla.

Ular restorandan chiqishganda soat o‘ndan oshgan edi. Sa‘dulla shuncha qistamasin Chori ularnikiga bormadi. «Er-

talab aeroportga chiqaman. Mehmonxonaga boray, narsalarimni tayyorlab qo‘ymasam ulgurolmay qolaman. Ish ko‘p, jo‘ra. Respublika prokuraturasiga bir zarur ish bilan keluvdim. Sizni ko‘rmay ketsam gunohga botardim. O‘zingiz boring Surxondaryoga», deb xayrlashdi...

Sa‘dulla qorong‘i tor ko‘chadan uyga sudralib bormoqda.

– Feruza! Nahotki, u endi qaytib kelmasa? yoki Chori aytganiday tushunarmikin?.. Eh, Feruza, Feruza!..

Darvozaga shoshilmay yaqinlashdi. Qarasa, hovlida chiroq yoniq. «Kampir shu yerda ekan-da...» Ichkariga kirdi. Kampir turadigan uy eshigi darvoza ro‘parasida. Sa‘dulla hovliga qadam bosishi bilan o‘sha eshikka ko‘z tashladi: yopiq. «Iye, kampirni nima jin urdi, eshigini yopib o‘tirti», u hali biron marta kampir eshigini bekitib qo‘yganini ko‘rmagan edi. Qish kunlari noiloj yopar, o‘shanda ham sal kun yitillasa darrov eshigini ochib yuborardi. «Yuragim siqilib ketdi, otam. Yorug‘ jahonni ko‘rib turay», derdi.

Indamay o‘z kulbalari tomonga yo‘naldi. Ne saodat-u ne quvonch bu eshik ochiq. Yuragi shuvillab ketdi: Feruza keldimi? Ostonadan ichkariga bir qadam qo‘yishi bilan dunyodagi eng aziz, eng suyumli kishisiga duch keldi.

Feruza!..

U gangib qoldi: tushimi yoki o‘ngi?

Sog‘inch, behudud sog‘inch akslangan, intizorlik, totli intizorlik bilan to‘lgan nigohlar to‘qnashdi. Xuddi laha kutgan, orzu qilgan intiq, ma‘sum nigohlar.

Bir mahal o‘ziga kelsa Feruza og‘ushida. Kim avval otdi o‘zini – Feruzami, Sa‘dullami – ikkovi ham bilmaydi. Jimgina o‘pishishdi, so‘ng yana nigohlar uchrashuvi, chuqur-chuqur entikishlar.

Feruzani yig'lab yubordi. Sa'dullaning ham o'pkasi to'lib ketdi. Hech qachon — eng tashvishli kunlarda ham bu qadar xo'rliqi kelmagan edi. Tomog'iga nimadir tiqildi, o'jizligini bildirmaslik uchun uni tag'in o'pa ketdi, o'pdi. Qaynoq bo'salar Feruzani allaqachon sarxush qilib qo'ygan, u Sa'dulladan kelayotgan aroq hidiga ham e'tibor bermas edi. Suyukligi og'ushida o'zi sezmagani holda nozlanar edi...

#### XIV

Kafedra mudiri mujmallik bilan masalani haligiday ko'ndalang qo'ygandan so'ng Sa'dulla o'qituvchilik bilan xayrlashgan, domlasi aralashuvi bilangina aspiranturada bazo'r qolgan edi.

O'shanga ham yarim yildan oshdi. Aspirantura muddati tugayapti. Demak, tezroq yoqlashi kerak. Biroq ilmiy ishi hali na muhokama qilingan, na tarjima. Shu vaqt davomida kafedra mudiri oldiga biron marta ham bormadi. Nima deyishini o'zi biladi. Ishdan haydagan, ilojini topsa aspiranturadan harn quvishni mo'ljallagan odam endi uning dissertatsiyasini muhokama qilarmidi. Muhokamaga qo'ygan taqdirda ham oqibati ma'lum-ku.

Domlasi maslahati bilan indamay ishini qilib yuraverdi. «Dumni bunaqa qilpillatishlar vaqtincha, o'g'lim,— dedi bir kuni domlasi. — Kafedra mudiri ham, boshqalar ham hadeo karillagani bilan uzoqqa borisholmaydi. Hamma narsaning oxiri bor. Senga o'xshaganlarga albatta yo'l ochiladi...» «Lekin qachon, domla?— dedi Sa'dulla.— Axir ungacha bizning o'zimiz tamom bo'lamiz-ku». «Gaping to'g'ri,— dedi keksa professor,— gaping to'g'ri, o'g'lim. Biroq shoshmashosharlik ketmaydi. Odam har bir ishni o'ylab, shoshilmay bajarishi

kerak. Toki keyin pushaymonda qolmasin. Ko'rib turibsan, hamma joyda o'zgarish ketyapti. Adolat, haqiqat yuzaga chiqyapti. Shu to'liqdan biz ham chetda qolmasmiz... Shuning uchun mayda-chuydalarga e'tibor bermay ilmingni puxta qil, dissertatsiyangni yana ko'r, qayta-qayta tahrir qil. Keyin ruschaga tarjimasini o'ylash kerak. Lozim bo'lsa, Moskvaga olib boraman, o'sha yerda himoya qilasan. Bitta-ikkitaning buzg'unchiligi bilan yaxshi bir ish yo'qqa chiqmaydi. Biroz sabr qilaylikchi, agar natija ko'rinmasa o'zim ministrlikka boraman,— so'ng go'yo esiga bir narsa tushganday professor o'ylanib qoldi, shogirdiga sinchkov tikildi, — menga qara, bir narsani ochiqoydin, yashirmay ayt. Bu qaynotang bilan oralaring nega buzilgan?» Sa'dulla o'ylanib qoldi. «Buzilmagan oramiz, domla. U kishi bilan oramiz nega buzilishi kerak? U katta odam — zamministr, men esa...» Professor sal jahllandi: «Ko'p latta-chaynarlik qilma. Bilasan, unaqa odamlarni jinim suymaydi. Menga shapshap deguncha shaftoli de. Chaynalmasdan bor gapni ayt qo'y-da». «Domla,— dedi Sa'dulla,— men ham hech kimga, xususan, sizga sira yolg'on gapirolmayman. Rosti, u kishi bilan oramiz buzuqligining sababi — men u kishining yo'liga yurmadim, aytganlarini qilmadim. Hatto xotinim, ya'ni u kishining qizi ham men tarafda. U odamning aytganlariga ko'nish uchun men vijdonimni, or-nomusimni, yigitlik shanimni oyoq osti qilishim, sotishim kerak edi...» Professor kuldi: «Shunday qilganingda allaqachon fan kandidati, ehtimol dotsent ham bo'larding». Sa'dulla qizishib ketdi: «Tupurdim men unday kandidatlikka!» Professor uning yelkasiga qo'lini tashladi: «Rahmat, o'g'lim! Seni shogirdlikka olib yanglishmagan ekanman. Unaqa yo'llar bilan dissertatsiya yoqlaganlarning ko'pini

ko'rganman. Cho'ntagida di plomi bor, kallasida esa alif ham yo'q. Faqat cho'ntagini o'ylab «olim» bo'ladiganlardan hazar qilaman. Undan ko'ra boshqa ish qilish kerak. Axir tirikchilik o'tkazishning yo'llari ko'p-ku. Meni kechirgin-u, o'g'lira, sening qaynotang ham o'shanaqa «olimlar» toifasidan. Uni yaxshi bilaman. Talabaligidanoq mansabga o'ch edi. Qanday qilib kandidat bo'ldi — aqlim yetmaydi...— Professor bir zum jim qoldi, keyin sekin Sa'dulla tomonga engashdi:— Endi bir sirni aytay. Faqat oramizda qolsin. Bo'ptimi? Sening ishlaring «yurishmayotgan»iga, kafedradan ketganingga kim sababchi, bilasanmi? Bilmaysan! Endi aytay, qaynotang! Nima uchun deysanmi? Eshit. Avvalo, mana o'zing aytding, sen bilan munosabati yaxshi emasakan. To'g'rimi? Bundan tashqari va eng asosiysi, sen mening aspirantimsan. Olim Akbarovich doktorlik dissertatsiyasini yoqlaganida men qarshi chiquvdir. Chunki, o'g'lim, yana meni ichi qora odam ekan, deb o'ylama, u dissertatsiya emasdi. Hatto kandidatlikka ham arzimasi edi. Mansabdor bo'lgani uchun hamma ko'tar-ko'tar qildi. Olamda hali bunchalar katta kashfiyot yaratilmagan, deb jar solganlar ham topildi... Shundan beri menga adovati bor. Bo'lmasa, uncha-muncha domlaning haddi bormi Olim Akbarovich kuyovining dissertatsiyasini muhokamadan o'tkazmaslikka, hatto uni ishdan bo'shatib yuborishga...— Professor chuqur xo'rsindi.— Ha-e, o'g'lim, shunaqa dahmazalar... Aljiramoqchi emasdim, g'iybat menday qariyaga yarashmayci. Lekin seni azbaroyi yaxshi ko'rganimdan, hasratlashgim kelci. Mayli, xabardor bo'lib qo'y, bundan keyin qadamingni o'ylab bosgin, degan ma'noda yuragimdagini aytdim, toki allaqanday munofiq va xudbin odamlarning oyog'i ostida ezilib, xor bo'lib ketmagin».



Professor bilan suhbatga berilgan Sa'dulla qaynotasining pichinglarini esladi. Hatto bir marta sal aytishib qolishganda, Olim Akbarovich uyalmay-netmay «Bu gaplarni sizga ustozingiz, o'sha ichi qora professor o'rgatgan. Bilaman, u doim sizni manga qayrab soladi. Ammo u qari chol chuchvarani xom sanapti. Men bilan olishishga o'zlik qiladi. Ne-ne zabardastlar man bilan kurashaman, deb beli chiqib ketgan. Sharti ketib, parti qolgan cholga yo'l bo'lsin», deb kerilgan edi. Kurakda turmaydigan po'pisalardan Sa'dullaning g'azabi qaynab, «Professorni tinch qo'ying! Qolaversa, men buzoq emasman, kim qayoqqa yetaklasa indamay ergashib ketaveradigan» deb qat'iy javob bergandi. Qaynotasi bilan orasida kechgan xush-noxush bahslarni shaksiz professoorga aytmagan. Bugungi suhbatdan so'ng masala Sa'dulla uchun yanada oydinlashdi. Bir o'kindi, bir g'azablendi. Nahotki, odam shunchalik tubanlikka borsa?

Sa'dulla kafedradan ketgandan so'ng Feruza o'g'lini bog'chaga joylashtirib, ishga kirdi. Harna-da, arg'amchiga qil — quvvat. Sa'dulla oladigan arzimasi stipendiya bilan tirikchilik o'tadimi?! Sa'dulla ham ishga joylashmoqchi bo'ldi. Feruza ko'nmadi. Hozircha man ishlayman, siz dissertatsiyangizni yozing, deb gapni keskin qildi.

Bir kuni Sa'dulla uyga kech qaytdi. Sezdiki, Feruzaning ta'bi xira, qovoqlari solingan.

Tinchlikmi?—dedi xavotir bilan. Nechundir Feruza javdiradi, javob qilmadi, to'rsaygancha derazaga o'girilib oldi. Battar tashvishga tushgan Sa'dulla asta yelkasidan ushlab, uni o'ziga qaratdi va savolini takrorladi.

— Adamlani ishdan bo'shatishipty, — dedi nihoyat Feruza piqillab.

– Shunchaki bo‘shatishiptimi, boshqasi tinchlikmi ishqilib?

– Hali noma’lum emish. Tekshirish davom etayotganimish. Kimlardir adamni sotgan emish. Ishqilib, oxiri baxayr bo‘lsin-da...

Sa’dullaning ko‘nglini allanechuk achinish hissi chulg‘adi. Feruzaga tasalli berdi.

– Qo‘ying, ezilavermang. Dadangiz ishdan bo‘shasa hech narsa emas. Eng muhimi, boshqa ovora qilishmasa bas.— Tergov deyishga tili bormadi, Feruza ne ko‘yga tushishini o‘yladi. O‘zi hozir qizib turibdi. Bordi-yu og‘zidan haligi so‘z chiqib ketsa, bechora kuyib ketishi tayin.— Bir borib kelamizmi yo?

– Bugun kech bo‘ldi. Ertaga borarmiz,— Feruza ko‘zlarini ishqalab oshxonaga chiqib ketdi. — O‘tiring, ovqatingizni olib kelaman.

Dasturxon ustida ham, keyin ham ularning gurunglari qovushmadi. Chamasi qovushish uchun nimadir yetishmasdi, lekin shu narsa nima — ikkovi ham bilmasdi.

Ertalab o‘rnidan birmuncha lanjlanib turgan Sa’dulla o‘zicha avval alg‘ov-dalg‘ov tushlarini muhokama qildi. So‘ng domlaga uchrashish kerakligini esladi, nonushta qilib fakultetga jo‘narkan, xotiniga tayinladi:

– Siz ishdan keyin Ulug‘bekni olib o‘tavering. Men ishimni bitkazib to‘g‘ri shu yoqqa boraman.

– Seni ko‘rganim juda yaxshi bo‘ldi, o‘g‘lim,— dedi professor. — Tabriklayman!

– Nima bilan, domla? — dedi Sa’dulla bo‘shashib.

– Hali eshitmadingmi? — Professor uni bir chekkaga boshladi. — Yangilikdan orqada qopsan, o‘g‘lim. Kafedra mudiringni ishdan olib tashlashdi-ku.

– Nega?

Taajjub aralash berilgan savol professorga g'alati ta'sir qildi chog'i, daf'atan uning quyuq, oppoq qoshlari uyrilib, kichkina ko'zlarini bekitdi.

– Yemoqning qusmog'i bor, degan maqolni eshitganmisan? Demak, ularning qusadigan payti kepti. Bilasanmi, kim mudir bo'ldi?

– Yo'q.

– Sobirjon,– dedi professor mamnun holda.

Sobir Jamilovni Sa'dulla yaxshi taniydi. U ham shu professorning shogirdi. Bir yil oldin doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Osonlikcha bo'lmaganini o'shanda professordan eshitgandi. «Ko'rdingmi, o'z so'zida, ahdida qattiq turdi. Ilm degani – mashaqqat, o'z qarashlaring va fikringni isbotlab himoya qila olmasang, yaxshisi ilm yo'liga kirmay qo'ya qol», degandi o'shandi professor.

Keyincha u Sobirjon bilan professorning uyida bir necha marta uchrashishgan, suhbatlashgandi.

– Boshqa gapdan xabaringiz yo'qmi, domla? – dedi Sa'dulla.

– Nima gap ekan, bo'tam?

– Olim Akbarovichni ishdan olishipti.

Professor og'ir burilib qaradi: Tagi juda baquvvat edi-ku.

– Anchadan beri tekshirishayotgan edi...

Professor odatiga ko'ra Sa'dullaning yelkasiga qo'lini tashladi.

– Xafa bo'lma, o'g'lim. Ishdan ketgan bitta sening qaynotang emas. Zamon talabi shunday. Eng muhimi, sen shularning yo'liga yurmagansan. O'z e'tiqodiningda sobit turgansan. Bundan keyin ham shunday qil. Bu gaplarni qo'y. Ishingni tezlashtir...

– Yaxshi, domla.

– Xayr, omon bo‘l! – Professor shunday deb qo‘l cho‘zdi. Sa‘dulla u bilan xayrlashib, yuqori qavatga ko‘tarildi. Koridor-dan shaxdam qadamlar bilan borayotgan edi, ro‘parasidan Sobir Jamilov chiqib qoldi.

– Salom, Sobirjon aka... Tabriklayman, hozirgina dorrladan eshitdim.

– Iye, Sa‘dullaxon, yaxshimisiz? Rahmat. Qayoqlarda yuribsiz, hech ko‘rinmaysiz. Qani, bu yoqqa yuring-chi.

Sa‘dulla yangi mudir bilan biron soat suhbatlashdi. Xonadan chiqqanda kayfiyati chog‘, o‘zini qushday yengil his qilar edi. Bir mo‘jiza ro‘y berib ikki yelkasiga ikkita qanot bitsa-yu, osmon-u falakka uchib ketsa...

U zinalardan yugurib tusharkan, keyingi ikki-uch yil mobaynida hozirgidek xursand bo‘lgan paytini eslay olmadi.

Ko‘chaga chiqdi. Endi qilishi lozim bo‘lgan ishlarini xayolidan o‘tkazdi. Hush-fikri qaynotasining uyiga og‘ganda yana ko‘ngli xijil tortdi. Bormasa bo‘lmaydi, boray desa yana qosh-qovog‘i, dimoq-firoq... Yoki endi unaqa qilmasmikan? Qayoqda, o‘rganib qolgan, otdan tushsa ham egardan tushmaydi...

Bari bir boradi. Loaqal Feruza uchun...



---

## MUQADDIMANING DAVOMI YOKI XOTIMA

...Besh-olti zina tushgandan so'ng kutilmaganda ro'parasi yorisha boshladi. Sa'dulla to'xtadi. Atrofga alangladi. Bu nur, bu yorug' qayerdan kelyapti?

Yo tavba! Hozirgina u yuqoridan pastga tushib kelayotgan edi. Zinaning oxiri ko'rinmasdi. Nazarida u yer ostiga kirib ketgandi. Endi esa u pastga tushmaydi, yuqoriga ko'tarilib boradi. Ajablanib orqasiga o'girildi, vo ajabo, hali o'zi tushib kelgan zina teskari turib qoldimikin? Yo'q, unday emas – orqa tomonda hech qanaqa zina yo'q. O'sha o'zi tushib kelayotgan zina uni yuqoriga boshlab turibdi. Bu ne hol? Hozirgina zimiston edi bu joylar, endi esa ohista yorishib bormoqda.

Asta-asta odimladi. Yana bir qadam, yana... Yuqoriga ko'tarilib boraverdi. Qadam olishlari ham yengil, charchamaydi, hansiramaydi.

Eng yuqoriga chiqdi. Qarasa, ro'parada – qandaydir eshik. Haliyam shuni uchratuvdi. Ochmoq istagida itargandi, yopiq ekan, ochilmovdi. U yana qanday qilib qarshisida paydo bo'ldi? Endi qayerga boradi? Bu eshik yopiq! Yana orqaga qaytib pastga tushib ketadimi?

O'ziga o'zi savol berib, ikkilanib turgandi, ro'paradagi eshik sharaqlab ochildi. Kimdir kelayotgandir, deb Sa'dulla o'zini chetga oldi. Lekin hech kim ko'rinmadi. Hayron qoldi, Bu ne hol, ne sinoat? Eshikni kim ochdi?

Kimningdir ovozi yangradi: «Yur! Oldinga yur! Nimaga qarab turibsan. Eshiklar ochildi-ku!»

Cho'chib tushdi. Alang-jalang qilib atrofni kuzatdi. Shovur sezilmadi. Bu kimning ovozi? Professornikimi yoki Sobir Jamilovniki? Yo'q, Feruzaning ovoziga o'xshaydi. Qo'ysanchi. erkak kishi sado berdi-ku! Ha, topdim — otam! E, tavba, sal bo'lmasa qiblagohimning ovozini tanimay qolayozipman-a! Tag'in asta ilgariladi. Yaqin borsa eshik yopilib qolishidan qo'rqdi. Yo'q, unday bo'lmadi. Ostonadan hatladi, iye, qayerga kelib qoldi? Bir tomoni fakultet hovlisi shekilli, bir tarafi kampirning torgina joyi-jalolini eslatadi, ana u bog'lar, tokzorlar esa xuddi qishlog'i manzaralari. Hov anovi olma-yu anorlarni qachonlardir otasi bilan o'zi ekkandi.

Qiziq, endi qarshisida bir nechta katta-kichik eshiklar yarqiradi. Ochilaverdi, ochilaverdi...

U qulochini kerib, to'yib-to'yib nafas oldi. Olisdan, juda olisdan nido keldi:

— Eshiklar ochiq!!! O-o-chi-q!

*Dubulta — Toshkent  
1986 yil*



*Adabiy-badiiy nashr*

**Mamatqul Hazratqulov**

**ESHIKLAR OCHIQ**

*Qissa*

Tuzuvchilar: **Laziz Tangriyev (g'oya muallifi), Ilhom Zoyirov,  
Abror Qilichev, Muhiddin Omonov**

Muharrir *Abror Qilichev*  
Badiiy muharrir *Akrom Bahromov*  
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*  
Musahhih *Dono To'ychiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *Zilola Mannopova*

IB № 4785

Bosishga 25.03.09-y.da ruxsat etildi. Bichimi 70x108  $\frac{1}{32}$ .  
Tayms garniturası. Ofset bosma. 7,35 shartli bosma toboq.  
7,6 nashr tobog'i. Adadi 2000 nusxa. 107 raqamli buyurtma.  
13–2009 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

**Bizning internet manzilimiz: [www.iptdgulom.uz](http://www.iptdgulom.uz)**

**E-mail: [fop-iptd@rambler.ru](mailto:fop-iptd@rambler.ru)**